

“ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”

mavzusidagi Respublika
ko'p tarmoqli, ilmiy
KONFERENSIYA

#9

MAY 2023



Tahririyat a'zolari

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Мадымаров Т.Т. yur.f.d., prof.
Мурзаева С.Р. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent

Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent,
TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: M.Yusupov

THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN: 2181-3558

ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI
№ 9-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
20-MAY 2023-YIL

RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION,
THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES
9th REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
MAY 20, 2023



ЎСМИРЛИК ДАВРИДА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-ТВОРНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ

Д.Ҳ.Исмоилова

*Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
3-босқич 323-гуруҳ курсанти*

Аннотация. Ижтимоий нормалар жамият бошқарувининг ажралмас қисми эканлиги, ижтимоий нормалар шахс ёки ижтимоий гуруҳ хулқ-атворини муайян ижтимоий муҳит билан уйғунлаштирувчи қоидалар мажмуи эканлиги, глобаллашув даврида ижтимоий нормалар тизимидаги жиддий ўзгаришлар ва тенденцияларнинг моҳияти, хулқ-атворлар оғишига таъсир этувчи замонавий омилларни ўрганиш тамойилларининг роли, интернет, виртуал дунё, ахборот оқимининг таҳлили, унинг социологик жиҳатларини ўрганиш

Девиант хулқ-атвор турларига кирувчи ичкиликбозлик, гиёҳвандлик, ўзини ўлдириш билан боғлиқ ижтимоий иллатларнинг ҳар бири юзага келиши ва ижтимоий оқибатларига кўра моҳиятан турли жиҳатларга эга. Биринчи фарқ узоқ давом этадиган ижтимоий зарарли одатлар девиант хулқ-атвор турмуш тарзининг ажралмас қисмига айланади. Доимий оилавий келишмовчилик, оила ва атроф-муҳитдан қоникмаслик, уйдаги тушунмовчилик ва бошқалар - буларнинг барчаси боланинг руҳиятини жароҳатлайди ва у мавжуд вазиятни ўзгартиришга ҳаракат қилади. Бу ўринда камчиликлар, жумладан, низолар ривожланишининг олдини олувчи ва унга қарши курашувчи ижтимоий назорат тизимлари ижтимоий институтларда салбий рол ўйнайди.

Вояга етмаганларнинг девиант хулқ-атвори - катта ёшдагиларнинг оғма хулқ-атвори қонуниятларига мувофиқ эмаслигини қайд этиш зарур. Умуман олганда, бугунги кунда жамиятнинг қайсидир қатламларидан бири, девиант хулқ-атвордан ҳимояланган, деб бўлмайди, ҳат бир ўсмир таъсирга ва боғлиқликка дуч келади.

Вояга етмаганларнинг хулқ-атвори профилактикаси ишида оммавий ахборот воситалари орқали ташвиқий-маърифий ишларни олиб бориш муҳимдир. Жамоатчилик фикри сўрови маълумотлари бўйича телевидение ўсмирлар ва ёшлар учун ахборот олишнинг афзалроқ манбаи ҳисобланади. Шу муносабат билан ижтимоий рекламанинг роли ўсади. Ижтимоий реклама ўз таклифлари билан - меҳнатни рағбатлантирадиган, ижобий мақсадларга эришиш учун инсон фаолияти мотиватсиясини кучайтиради. Реклама ижтимоий қадриятларни ёяди ва тарғиб қилади. У мамлакатлар ва

халқларнинг яшаш тарзини, андозаларини шакллантиришга кўмаклашади. Рекламанинг ижтимоий функцияси турмуш тарзи тарғиб қилинишини ҳам назарда тутди. Девиант ҳуққ-атворнинг энг яхши профилактикаси - бу тарбиянинг воситалари, шакллари ва усулларини аниқ белгилаб олган ҳолда вояга етмаганлар онгига мақсадга қаратилган ташкилий таъсир кўрсатишдир. Ҳуқуқий тарбияни олдини олиш имкониятлари тийишнинг бошқа воситаларига қараганда анча самаралироқдир. Чунки ҳуқуқий профилактика чоралари одатда, бирмунча кечикади ва қилмиш содир этилгандан кейин амал қила бошлайди. Олдини олиш билан боғлиқ ҳуқуқий чоралар - ишлаши учун у боланинг онгига қўйилиши, унинг эътиқоди, тажрибасининг бир қисмига айланиши керак. Буни аниқ мақсадга қаратилган тарбиявий таъсир кўрсатиш йўли билан эришиш мумкин. Бизга маълумки жамиятимизда содир қилинаётган қўплаб жиноятлар, жумладан вояга етмаганлар томонидан содир қилинаётган жиноятлар ва уларни келтириб чиқарувчи омилларни ўрганишда вояга етмаган жиноятчиларнинг маънавий-ахлоқий шаклланишига таъсир этувчи салбий ҳолатларни таҳлил қилиш ҳам алоҳида аҳамият касб этмоқда. Жумладан, оилада ёки кўча-кўйда турли хил ахлоқсиз хатти-ҳаракатларнинг гувоҳи бўлган ўсмир, ахлоқсизлик жиноятларини ҳам содир қилишга қўл уради. Бундай жиноятлар қаторига вояга етмаган ўсмирлар томонидан номусга тегиш ҳолларини кўришимиз мумкин. Оилалардаги ота ёки она ичувчи ёки маънавий ахлоқсизлик билан ажралиб туради. Бунда назаримизда вояга етмаганлар томонидан содир қилинаётган жиноятчиликка қарши кураш ҳамда унинг олдини олиш биринчи навбатда оила ахлоқини қадриятларимизга мослаштиришдан бошлашга тўғри келади. Шу ўринда турли хил ҳуқуқшунос олимларнинг бу борадаги турлича қарашлари мавжуд бўлиб, буларнинг барчаси вояга етмаганлар томонидан ахлоқсизлик хатти-ҳаракатларини содир қилишга оилани роли муҳимлиги ҳақида сўз юритилади. Буларнинг барчаси болалар ва ўсмирларнинг ижтимоийлашуви жараёнини қийинлаштиради ва мана шу асосда уларнинг ҳуққ-атворида ҳар хил четга чиқишларни келтириб чиқаради. Ўсмир ҳуқуқлари ўзида бутун инсониятнинг кадр-қимматини мужассам этади. Бу дегани болалик - инсон шахсининг ривожланишида ноёб, муҳим давр демакдир. Инсон ҳуқуқлари аввало, болалар ҳуқуқларидан бошланади. Ҳар қандай жамият ва барча инсониятнинг келажаги ўта юқори даражада ёш авлоднинг моддий ва жисмоний ривожланиш даражасига, унинг инсон ҳуқуқларини шахс ва жамият ҳаётидаги роли ва аҳамиятини тушунишига, шунингдек, ўз тақдири ҳамда ўз ҳаракатлари учун маъсулиятига боғлиқ.

Мамлакатимизда ҳуқуқий демократик давлат пойдевори қурилмоқда. Бунда давлат қуришни ҳуқуқий саводхон, ҳуқуқ маданиятини мустаҳкам эгаллаган ёш, вояга етмаганлар жинойтчилиги ва унинг олдини олиш муаммолари авлод амалга оширади. Буюк давлатни қуриш учун баркамол инсон тарбияланмоғи зарур. Шу сабабли ёшларни ҳуқуқий давлат тизими ва моҳиятини чуқурроқ англаши, қонун асосларини билиши, қонун ҳурмат қилиши, уларга сўзсиз бўйсунishi маданиятига эга бўлиши руҳида тарбиялаш бугунги куннинг асосий вазифасидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
2. Sotsiologiya molodeji. Uchebnik. /Pod red. V.T.Lisovskogo. SanktPeterburg, 1996.

THE THEORY OF RELATIVITY

I. G'oziyev

D. Alimjonov

Students of Fergana Polytechnic Institute
islomjongoziyev02@gmail.com

Annotation. This article is about the theory of relativity.

Keywords: Relativity, part, time, classical, completed, mechanic, space.

The theory of relativity is a modern physics doctrine about the properties of space and time that are relevant to any physical process. The theory of relativity created by Albert Einstein consists of 2 parts: the special theory of relativity and the general theory of relativity. The special theory of relativity was completed in 1905 and the general theory of relativity in 1916.

Concepts of space and time have varied in different eras. In classical physics, time has nothing to do with space and matter. The classical mechanics of space and time can be expressed physically based on Galileo Galilei's principle of relativity. An event that occurs at a specific point in space at a specific time is called an event. Mechanical phenomena occur in the same way in all inertial reference systems, so the form of the equation of motion is the same in all inertial reference systems. This property is called the invariance of Isaac Newton's equation of motion with respect to Galilei substitutions.

According to the theory of relativity, the properties of space and time are interrelated in physical processes. Space and time are interconnected because of

motion. As the body is in different motion, the properties of space and time are also different. The special theory of relativity is based on two principles: the first is the principle of relativity, and the second is the constancy of the speed of light. Based on the principle of relativity, mathematical equations representing physical laws have the same form, that is, they are invariant to different inertial reference systems. The second principle can be expressed as follows: the speed of light in space has the same value in all inertial reference systems and does not depend on the movement of the light source.

The modern physics theory of gravitation, space, and time was largely developed by Einstein and is called general relativity. The principle of equivalence served as the basis for the creation of the theory of general relativity. Conclusions from the theory of relativity have been confirmed on the basis of many tests, observations and experiments. To date, there is no known evidence or experimental results that show the existence of flaws in the theory of relativity.

Albert Einstein published his special theory of relativity in 1905 based on many theoretical results and empirical findings by Albert A. Michelson, Hendrik Lorentz, Henri Poincaré, and others. Max Planck, Hermann Minkowski and others did further work. Einstein developed general relativity between 1907 and 1915, with many other contributions after 1915. The final form of general relativity was published in 1916. The term "relativity" is based on the phrase "relativistic theory" used by Planck in 1906, who emphasized how the theory uses the principle of relativity. In the controversial section of the same paper, Alfred Bucherer first used the term "theory of relativity" (German : Relativitätstheorie). By the 1920s, the physics community understood and accepted special relativity. It quickly became an essential and indispensable tool for theorists and experimentalists in the new fields of atomic physics, nuclear physics, and quantum mechanics.

By comparison, general relativity does not seem useful without minor adjustments to the content of Newtonian gravitation. It seemed to offer little opportunity for experimental testing, since most of it was on an astronomical scale. His mathematics was complex and fully understood by very few people. Around the 1960s, general relativity gained much attention in physics and astronomy. New mathematical techniques have made general relativity's application to simple calculations and its concepts easier to demonstrate. Astronomical phenomena such as quasars (1963), 3-kelvin microwave background radiation (1965), pulsars (1967) and the first black hole candidates (1981) were discovered, which further confirmed the theory.

According to Newtonian mechanics, we consider the passage of time and length through the universe as absolute physical quantities: regardless of the

inertial frame of reference, time passes the same in all frame of reference, and a given distance in one frame of reference is the same in another frame of reference. This causes the speed of light to be relative to the time frame, as opposed to the observed speed of light. We reconcile our assumptions about absolute space and time with observational results. This is where the Minkowski space-time diagram comes in handy.

We now give special relativity an algebraic representation through Lorentz substitutions. Interestingly, Lawrence discovered these permutations by summarizing several observations before Einstein invented special relativity, but relativity gave him the real conceptual fodder. Lorentz transformations allow us to relate space-time coordinates in different reference systems.

References

1. Jankoli.D. «FIZIKA» V.2 Tomah.Per.s.ang.M.- Mir.1989 g.-321c.
2. Douglas Ciancoli. Phusics a General Course. 2010 year.Chapter 1-43.
3. Halliday Resnick “Fundamentals of Physics” 2012.
4. Abduraxmanov K.P., Egamov U. Fizika kursi , 2011 y.
5. Ogursov N.A. Kurs leksiy po fizike, Harkov, 2007.
6. Ahmadjanov O.I. Fizika kursi. 1,2,3-qism.-T.; O`qituvchi, 1988., 1989.

KOGNITIV TILSHUNOSLIK MASALALARI

Jabborova Sayyora Alimovna
Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitologiya, uning paydo bo'lishi, kognitiv tilshunoslik qanday tushunchani anglatadi, tilshunoslik doirasida yangi bir paydo bo'lgan soha ekanligi, Kognitivist, Kognitologiya sohasi haqida tushunchalar berilgan.

Kalit soʻzlar: til va nutq, antik davr, kognitologiya, kognitiv lingvistika, tilshunoslik, til va tafakkur, taraqqiyot bosqichi.

Til va nutqning paydo bo'lishi boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu sabab til va nutq xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, o'tmishi, ma'naviyati va shu kabi masalalarni o'rganuvchi psixologiya, falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, etika kabi bir qator ijtimoiy fanlar bilan aloqador. Bu aloqadorlik hosilasi o'laroq tilshunoslikda bir qancha yangi yo'nalishlar – mentalingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika kabi fanning yangi sohalari vujudga keldi.

O'zbek tili tadqiqi sohasida ham milliy ruh, milliy madaniyat va milliy dunyoqarashni tiklash uchun harakat kuchaydi. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham tilni ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular orasida tilga izchil yondashish bilan aloqador bo'lgan vazifaviy tahlil, kognitiv tahlil, lingvopragmatik tahlil yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir butunlikning ikki tomoni sifatida ko'riladi.

Ma'lumki, tilshunoslik bo'yicha qarashlar antik davrlardan beri mavjud bo'lsa-da, XIX asrning birinchi choragida alohida mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shubha yo'qki, til o'rganish sohasi boshqa fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar, tahlillar natijasi sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodlariga ega bo'lgan fan hisoblanadi. Xattoki, tilshunoslikni murakkab, ilmiy, falsafiy, ijtimoiy fan desak xato bo'lmaydi. Tilshunoslik fani bugungi taraqqiyot bosqichiga kelgunga qadar uch ming yillik tarixiy taraqqiyotni boshdan o'tkazdi.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot va ishlab chiqarishning jadallashuvi, kompyuter texnologiyasining barcha sohalarga shaxdam qadamlar bilan kirib borishi xalqlarning bir-biridan ajralib qolishi yoki ijtimoiy aloqasiz yashashi imkoniyatini butunlay yo'qqa chiqardi. Shuningdek, yer yuzida o'z taraqqiyoti mobaynida boshqa xalqlar yutuqlariga bee'tibor bo'lgan yoki ular bilan tajriba almashmagan birorta ham xalq bo'lmasa kerak. Bu ijtimoiy o'xshashlikning barchasi, avvalo, tilda va til orqali xalq hayotida namoyon bo'ladi. Har bir milliy tilning lug'at tarkibi, uning so'z boyligi shu millatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida esa, har bir tilning leksik tarkibidagi so'zlarning qachon va qay tariqa paydo bo'lganligi, bu so'zlar xalqning ijtimoiy-madaniy imkoniyatlari mahsuli sifatida yaratilganmi yoki unga o'zga tillardan kirib kelganmi, degan masalalarni o'rganishni taqozotarkibi, uning so'z boyligi shu millatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida qiladi.

Kognitivizm tushunchasi insonning tafakkur jarayonlarini tartibga soladigan barcha tamoyillarni tadqiq qilishni o'z ichiga oluvchi butunlikdir. Til fikrlash va ta'sir o'tkazish jarayonlariga kirish vositasi sifatida talqin etiladi. Inson tajribasi, uning [tafakkuri](#), dunyoqarashi, mentaliteti aynan tilda mustahkam o'rin egallaydi; til esa kognitiv mexanizm bo'lib, ma'lumotlar maxsus kodlar yordamida ifodalangan va o'zgartiruvchi belgilar tizimi hisoblanadi.

Tilshunoslikda kognitiv sohaning paydo bo'lishi yoki u haqidagi qarashlarning birmuncha avvalroq shakllanishiga qaramay, uning rasmiy tilshunoslik sohasida tan olinishi XX asrning so'ngiga to'g'ri keladi. Shu davrda, ya'ni 1989-yil bahorida Germaniyaning [Duisburg shahrida](#) kognitiv lingvistika bo'yicha ilk xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. Simpoziumda kognitiv tilshunoslik birlashmasini tuzishga kelishiladi. Kognitiv lingvistikaga oid tadqiqotlar yoritib

boriladigan jurnalga asos solingan va kognitiv tilshunoslik tadqiqotlari xuslosalari taqdim etib boriladigan monografiyalar seriyasini yaratish kelishib olingan, kognitiv tilshunoslikning taraqqiyot bosqichi edi.

Kognitiv lingvistikaga oid izlanishlarda til va tafakkurning murakkab munosabatlari o'rganilishidagi yuqori bosqichining guvohi bo'lamiz, bu muammo asosan tilshunoslikning nazariy jihati bilan bog'liqdir. Bunday tadqiqotlarni inson miyasini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan soha vakillari neyrofiziologlar, shifokorlar, psixologlar boshlashgan. Til faoliyatining (lisonni shakllantirish, muloqot qilish, tinglash, o'qish, xotirada saqlash, yozish va boshqalar) inson miyasida hosil bo'ladi, shuningdek, til faoliyatining har xil turlari miyaning turli qismlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat muammosi rivojlanishining navbatdagi bosqichi psixolingvistika bo'lib, u nutqni yaratish va idrok etish jarayonlarini, tilni inson ongida saqlanadigan belgilar tizimi sifatida o'rganish jarayonlarini, tilning o'zaro bog'liqligini o'rganadi¹

Lisoniy faoliyat – kognitiv faoliyat bilan bevosita bog'liq, uning ajralmas bir qismidir. Ammo kognitiv tilshunoslik, kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli holda, inson tomonidan til tizimini harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitivist – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Lekin bu qiziqish oddiy emas. Kognitologiya sohasi mutaxassisi lison va tafakkur munosabatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqot jarayoni – lisoniy sintaktik tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi. Demak, kognitiv tilshunoslik inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog'liqligida tadqiq etuvchi, tushuntiruvchi tadqiqot sohasidir². Kognitologiya (cognitive science)-tafakkur xakidagi fan. Inson lisoniy faoliyatini sabab va okibat bog'likligida tadbik etuvchi, tushuntiruvchi, bilish nazariyasining asosi, insonning bilish faoliyati xakidagi fan.

Kognitiv tilshunoslik - (ingl. Cognitive - bilishga oid; cognitze - bilmoq, anglamoq, tushunmoq; cognition - bilish). Tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi soha. Inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog'liqligida tadqiq etuvchi, "tushuntiruvchi" fan. Kognitiv tilshunoslik majmuaviy yo'nalishi (sohasi) bo'lib, u tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun'iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fan sohalariga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik

¹ Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Монография.. АСТ: «Восток-Запад». 132 с.

² Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах, Сангзор. 2006. 75 б.

kognitologiya fani zamirida yuzaga kelgan. Ushbu fan ta'sirida kognitiv tilshunoslik fani bilan bir qatorda kognitiv psixologiya, kognitiv antropologiya, kognitiv sotsiologiya xatto, kognitiv adabiyotshunoslik fanlari yuzaga kelgan. Kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi bilan yangi tushuncha va shu tushunchani anglatuvchi terminlar paydo bo'ldi. Masalan, kognitiv tilshunoslik, kognitiv metafora, kognitiv fonologiya, leksik konsept, lingvistik paradigma, grammatik monitor, lisoniy ong, matn fokusi, tafakkur tili, oraliq til, tabiiy til kabi. Fanlar o'rtasidagi bog'liqlik o'zaro bir-birini to'ldiradi. Kognitiv tilshunoslik insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'ladi. Tilshunoslik fani doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi.

Kognitiv tilshunoslik terminlarining o'zbek tilshunosligida berilishini XXI asrning dastlabki o'n yilligida yaratilgan ilmiy maqolalarda, ilmiy asarlarda uchratamiz. Inson nutqning paydo bo'lishi va voqealanishi, tilning belgilar tizimi sifatida o'rganilishi, inson xotirasida saqlanishi, vazifasi, til va tafakkurning o'zaro ta'siri munosabatlari doirasida psixolingvistika fani yuzaga keldi. Inson psixologiyasida kechayotgan jarayonlar bevosita uning nutqida namoyon bo'lishini kuzatish qiyin emas. Lingvokulturologiyaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot va o'quv adabiyotlarining deyarli barchasida tilga antropotsentirik yondashuv XX asr oxiri XXI asr boshida yangidan paydo bo'lgan¹.

Kognitiv tilshunoslik faniga yangicha yondoshuvlarni olib kirganligi bilan muhimdir. Kognitiv tilshunoslik insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'ladi. Tilshunoslik va gnoseologiya, tilshunoslik va falsafa kabi fanlar doirasidagi masalalarni o'zbek tili tabiatidan kelib chiqib ish ko'radigan ushbu soha hali yangi yo'nalish bo'lgani uchun bu borada qilingan ishlar sanog'i unchalik ko'p emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Монография.. АСТ: «Восток-Запад».
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах, Сангзор. 2006.
3. Demyankov V.Z Kognitivnaya semantiya. Kratkiy slovar kognitivnix terminov - M : 1996
4. Джолдасова Г.Б. On Cognitive Grammar // Замонавий тилшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари / Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2012

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах, Сангзор. 2006. 92 б.

ONTOLOGY AND REALITY

*I. G'oziyev**D. Alimjonov**Students of Fergana Polytechnic Institute**islomjongoziyev02@gmail.com*

Annotation. This article talks about the existence AND reality of philosophy.

Key words: Ontology, branch, philosophy, school, being, from, them, foundation.

Ontology (Greek *ontos* - existence and ... *logia*) - branch of philosophy, the doctrine of existence. Examines the general foundations, principles, forms and laws of existence. Although the term "ontology" was introduced to science by the German philosopher R. Hochlenius in 1613, H. Wolff (1679-1754) used it in his book, Greek philosophers first described its various interpretations. They considered O. to be a doctrine of existence that separates real existence from unreal existence. The representatives of the Elea school contrasted the deceptive appearance of the sensory world with real existence and used O. as a doctrine of eternal, single, pure existence.

The representatives of the Miletus school and the Ionian philosophers disagreed about the qualitative interpretation of the primordial being. From them, Empedocles said that such a foundation, which lies in the beginning of existence, "in the form of teachings reflecting the essence of God, in Eastern pantheistic philosophy, the unity of existence and unity of existence appeared in the form of doctrines. In philosophy, O. is also found in the form of monistic, dualistic and pluralistic concepts (see in the form of teachings reflecting the essence of God, in Eastern pantheistic philosophy, the unity of existence and unity of existence appeared in the form of doctrines. In philosophy, O. is also found in the form of monistic, dualistic and pluralistic concepts (see Matter). R. Descartes was the representative of dualistic O. in the philosophy of the new era. The philosophy of VG Leibniz, who put "monad" - "divine atoms" at the basis of his philosophy - belongs to the pluralist O. According to this concept, several essences may underlie the universe. Such a concept is also found in empirio-criticism. R. Avenarius, E. Max believes that the basis of existence is a set of senses. In modern philosophy, the content of O. is more enriched. This is probably connected with the development of ideas about existence. It is known that in the mechanistic, metaphysical and materialist interpretation of existence, it was equated with materiality, actual existence, and reality. In existence, all things and events, realities that existed before, that exist now and will exist in the future,

Reality — objective reality representing natural and socio-historical phenomena. In a broad sense, it represents the existing world, the world, the essence of existence, and in a narrow sense, the term means objects, events, and processes. V. has been interpreted differently in the history of philosophy. In particular, it was explained in connection with theology in medieval philosophy: philosophers of the 16th and 17th centuries (T. Hobbes, R. Descartes) interpreted V. as materiality existing in space and time. Hegel, who considered V. to be an important stage of logical knowledge, V. - explains that it is a specific state of the absolute idea that strives for self-realization, the unity of essence and existence. A dialectical approach to V. drawing correct conclusions is considered a pledge of V. change.

Existence is a philosophical concept that represents an objectively existing reality . It does not consist only of the world of material objects. Existence is manifested at different levels: organic and inorganic nature, biosphere, social existence, objective ideal existence (cultural values, general principles of scientific knowledge, concepts, etc.), human life. Being has been interpreted differently in the history of philosophy. Kindi, Farabi , Ibn Sina , Omar Khayyam in the philosophy of the Near and Middle East, thinkers like Ibn Rushd divide existence into two - possible existence and obligatory existence. In their philosophy lies the concept that the first cause of existence is Allah (his existence is obligatory), but Allah and existence cannot be separated from each other, they are inextricably linked with each other in the form of causality.

There is a distinct difference between real and imaginary existence. Real existence defines existence, imaginary existence defines essence. Real existence refers to the reality of things, processes, persons, behaviors, etc.; it has the character of space and time, it is special, unique. An imaginary existence (in the sense of an idea) is devoid of a temporary, real, experiential character, it cannot be a fact; it is fixed, eternally existing (N. Hartman). Imaginary existence in this sense appears as a value, an idea, a mathematical and logical concept. Plato sees in it a true, private "real" being. Specific existence differs from existence in the general sense. According to Heraclitus , there is no fixed existence, only ever-changing existence.

Metaphysicians they believe that "real" existence is transcendent, something-in-itself. The totality of all existing things, the universe as a whole, is called existence. J. Berkeley , D. Hume believe that existence exists only in the subject, in the mind. Some philosophers believe that existence consists of manifestations of some earthly spirit, immaterial force. Especially HegelIn his philosophy, existence is the initial, direct and very uncertain stage of absolute idea, rising from

abstraction to concreteness. Viewing existence as a product of the soul is typical of the philosophy of the late 19th and early 20th centuries. L. Feuerbach, AI Gersen, NG Chernyshevsky claim that existence is objective, it is related to matter in motion. Some philosophical currents recognize the reality of the existing world, the objectivity of existence. They emphasize that the most important feature of existence is its materiality. According to the modern ontology, being is the same as all the various manifestations of existence.

References

1. Philosophy. Text of lectures, T., 2000.
2. Bakhtiyar Torayev. [1]
3. Orginal.uz.//

ZAMONAVIY TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Daminova G.B.

Nizomiy nomidagi TDPU doktoranti.

Kalit so'zlar: fanlararo integrasiya, fanlararo aloqa, integratsiya, integrallashgan darslar, fanlararo aloqadorlik.

Annotatsiya. Ushbu maqolada integratsiya ta'limining asosiy tamoyillari, integrativ yondashuv, integratsiyalashgan darslar afzalliklari haqida qisqacha bayon etilgan.

Talabalarning bilim faoliyatini qanday tashkil etish, ularga qanday qilib fanlararo bilimlarni o'zaro bog'lashni o'rgatish va bunga xohish uyg'otish, qanday qilib ularda tabiiy- ilmiy savodxonligini oshirish uchun qiziqish uyg'otish kabi muammolarga duch keladi. Bularning barchasi kimyo fanini o'qitishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish borasida hali ko'plab izlanishlar olib borish zarurati borligini anglatadi.

Muammo shundan iboratki, talabaning real olam haqidagi bilimlari orasida ko'plab nomutanosibliklar kelib chiqishida ma'lumotlarga bir tomonlama yondashuvlar sabab bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi har bir ma'lumot esa talaba tomonidan haqiqiy dunyoning bir qismi sifatida qabul qilinadi.

Zamonaviy ta'limda fanlarni integratsiyalashuvi yangi pedagogik yechimlarni faol izlash, talabalarga samarali va asosli ta'sir ko'rsatish uchun pedagogik xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlaridan biridir.

Integratsiya talabalar bilimining tarqoq bo'lishini va tizimsizligini bartaraf etishga, yaxlit bilimlar, umuminsoniy qadriyatlar majmuini egallashiga yordam beradi.

Axborot hajmining tez o'sishi sharoitida uni idrok etish va tushunish imkoniyati sezilarli pasayadi. Buni hal etish yo'li turli fanlarni sintez qilish, integrallashgan kurslarni ishlab chiqish, barcha o'quv fanlarini o'zaro bog'lash orqali amalga oshiriladi.

O'quv materiali mazmunini integratsiyalashning uchta darajasi mavjud:

predmet ichidagi - tushunchalar, bilimlar, ko'nikmalar va boshqalarning integratsiyasi, alohida elementlarning ichida;

fanlararo - faktlar, tushunchalar, tamoyillar va boshqalarni sintez qilish, ikki yoki undan ortiq fanlar;

transdissiplinar (ma'lum ilmiy qarashlardan o'zgacha yondoshuv) - ta'limning asosiy va qo'shimcha tarkibiy qismlarining sintezi [3, 4, 5].

Integrativ ta'limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

ta'limning shaxsiy yo'nalishi (Inson - ta'lim jarayonining asosiy qadriyati);

umumlashtirilgan predmet tuzilmalari va faoliyat usullarini shakllantirish (qonunlarni anglash asosida bilimlarni o'zlashtirish);

ta'limda ma'no hosil qiluvchi motivlarning ustuvorligi (rag'batlantiruvchi, ichki, tashqi va tashkiliy);

o'qitishdagi izchillik (ilmiy nazariya doirasidagi aloqalarni anglash);

muammoli o'rganish;

faoliyatni aks ettirish;

dialogik (haqiqat dialogik muloqot jarayonida tug'iladi).

Integrativ ta'limning maqsadi: dunyoga yaxlit tasavvurni shakllantirish.

Integral ta'lim doirasida alohida texnologiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

integratsiya;

loyixa texnologiyalari;

jahon axborot hamjamiyatida ta'lim texnologiyalari;

Internetga asoslangan yirik tizimli o'quv kurslarini o'qitish.

Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda quyidagilar hisobga olinadi:

bilim bloklari birlashtirilgan, shuning uchun darsning asosiy maqsadini to'g'ri aniqlash muhim;

ob'ektlarning mazmunidan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olinadi;

o'quv materiali mazmunida ko'plab havolalar o'rnatiladi;

integratsiyalangan ma'lumotning qismlari darsda zarur bo'g'in bo'lib, oxirgi yakunni olishi uchun rejalashtirilgan;

o'qitishning usul va vositalarini puxta tanlash, hamda o'quvchilarning darsdagi yuklamasini aniqlash talab etiladi.

Integratsiya jarayoni muayyan shartlarning bajarilishini talab qiladi: o'rganish ob'ektlari bir xil yoki yetarlicha yaqin; integratsiyalashgan sub'ektlar bir xil yoki o'xshash tadqiqot usullaridan foydalanadi, ular umumiy qonuniyatlar va nazariy tushunchalar asosida quriladi [1, 2,].

Bir darsda turli fanlarning har bir birikmasi avtomatik ravishda yaxlit darsga aylanmaydi. Ushbu darsning uzviy bog'liqligini, yaxlitligini ta'minlaydigan yetakchi g'oya kerak.

Integratsiyaning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilib ko'ramiz.

Didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri -tizimli o'qitish tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.

Fikrlashni rivojlantirish, mantiqiylikni, moslashuvchanlikni, tanqidiylikni rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratadi.

Tizimli dunyoqarashni rivojlantirishga, talabalarning shaxsiyatini uyg'unlashtirishga hissa qo'shadi. Ko'p sub'ektivlik pasayadi, fanlararo aloqalar kengayadi va chuqurlashadi va ko'proq bilim olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ta'limga fanlararo integrativ yondashuv talabalarning mustaqil bilim olish faolligini oshirishga, ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy fan va ta'lim amaliyoti o'qituvchiga fanlararo integratsiyani amalga oshirishning ko'plab usullarini taqdim etadi va natija o'rganilayotgan materialning xususiyatlariga, auditoriyaning tayyorgarlik darajasiga, xonaning moddiy-texnik bazasiga shuningdek talabalar va o'qituvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimov Sh.S. The role of integrated educational content in ensuring the quality of vocational teacher training. // Scientific-theoretical and methodical journal "Pedagogy", T., 2015, issue 2. -38-44-b.
2. Aliyeva N.O., Ismoilov E.O., Kudirov Sh.Sh. Possibilities of using the integration of natural sciences in the teaching of biomass and biogas formation processes. // Popular scientific-practical magazine "Modern education", T., 2015, issue 6. -31-36-b.
3. Alasdair Cameron, Jaskie Jones. Raising objectives // Renewable energy world. - NewYork, 2006. Volume 9, number 2. -Pp. 90-92.
4. Kroon M.A., van Swaaij R.A.C.M.M., Zeman M., Metselaar J.W. Study of the Design of the a-Si: H Transverse Junction Solar Cell. // Proc. of the 2nd World Conference and Exhibition on Photovoltaic Solar Energy Conversion. - New York, 1997. -Rr. 57-63.
5. Daminova G.B. Zamonaviy ta'lim muhitida integrallashgan kimyo darslarini tashkil qilish // O'zMU Xabarlarini ilmiy jurnali. 62-66 b.

**OTMDA SIFATGA QARATILGAN KADRLAR TAYYORLASH
MEXANIZMLARI (tezis)**

N.O.Musaev
ORIENTAL UNIVERSITET
“Ta’lim menejmenti” yo’nalishi magistri

Kalit soʻzlar: boshlangʻich nuqta, OTM, ratsional tizim, dolzarb muammo, raqobatli bozor sharoiti, yangi muhit, islohot bosqichi, amaliyot.

Ключевые слова: отправная точка, ВУЗ, рациональная система, актуальная проблема, конкурентная рыночная конъюнктура, новая среда, этап реформ, практика.

Key words: starting point, university, rational system, current problem, competitive market conditions, new environment, stage of reforms, practice.

Yangi Oʻzbekistonning kelajagi bugundan boshlanadi. Har qanday taraqqiyot uchun bu fikr boshlangʻich nuqta va asos hamdir. (Shuning uchun vatanimiz kelajagini ilmiy asosga yoʻnaltirgan rahbariyatimiz ichki siyosatini har qancha olqishlasak, oz.)

Taraqqiyotimiz poydevori boʻlgan tarbiya va ta'limga darz yetmasligi uchun, avvalo, tarbiyani yot gʻoyalardan poklagach, ta'limni asl fundamental bilimlar va eng ratsional tizim asosiga qurmoq lozim boʻladi.

Krizisga yoʻliqqan oʻtish davri ta'lim tizimi kelajagimiz uchun mutlaqo yaroqsiz, uni endilikda tamomila yangi asosga qurmoq lozim. Bugungi kun ta'lim menejamenti oldidagi dolzarb muammo mana shunda.

Korruptsiyani vujudga keltiruvchi monopoliyalardan xoli boʻlgan, halol raqobatli bozor sharoitida oʻzining munosib oʻrnini va bahosini topuvchi zarur koʻnikma va yetarli mahorat sifatlariga ega boʻlgan mutaxasislarni tayyorlash bugungi kun ta'lim menejementining asosiy vazifasidir.

Maktabdagi har qanday “2chi” ni super kontrakt orqali talabalar safiga qoʻshsang, undan muayyan muddat oʻtgach, diplomli mutaxassisga ega boʻlasan, degan tushuncha endi ketmaydi. Bunday sharoitda astoydil (az tahti dil), ya'ni dilining tub-tubidan oʻqimoqchi boʻlib kelgan oʻsmir ham oʻqimaslikka oʻtadi. Ya'ni muhit¹ oʻz hukmini oʻtkazadi. Demak, yangi muhit yaratilishi lozim. Bu muhit qanday boʻladi? Javobni menejementdan kutamiz. Endilikdagi zarur muhit mavjud tizim asosida bosqichma bosqich, tadrijiy ravishda planli reja asosida tuzilgan (reforma) islohotlar orqali amalga oshadi.

Islohotning 1chi bosqichi. Bu OTM reytingini va bakalavr kadrlarning malakaviy sifatini oshiruvchi mexanizmlardan birini joriy etishdir. U guruhdagi

¹ Falastindagi “Oʻlik dengiz”ga tushgan har bir jonvor muhit ta'sirida tuzga aylanar ekan.

talabalar kvotasining semestrlar aro qisqarib borishiga asoslangan raqobatli muhit yaratishni nazarda tutadi.

Islohotning 2chi bosqichi. Bu bosqichda OTMning eshiklari talabalar va barcha talabgorlar uchun ochiq bo'ladi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi imtihon komissiyalariga ariza berib, o'zidan qaysi fanning qaysi bandi bo'yicha imtihon olishlarini so'raydi va o'tsa, o'sha fanning o'sha bandini bilishi haqida munosib (sertifikat) guvohnomasini oladi. Ko'zlangan fanlar bo'yicha yetarli miqdordagi "sertifikat"larni yiqqan talabaga diplom beriladi. Bu diplomning bahosi ishlab chiqarishda amalda bilinadi. OTM reytingi va kadrlarining qadrini oxir oqibatda amaliyot aniqlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qish bu o'q ishdur. O'qish dargohi saylgoh emas. O'qish mashaqqatlar maydonidir. O'qish sinovlar maydonidir. O'qishni bitirib chiqish faqat uning mashaqqatlarini yenga olganlar, yiqilmaganlarning nasibi bo'lmog'i kerak.

МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ДИҚҚАТ КОНЦЕНТРАЦИЯСИ БУЗИЛИШЛАРИ ВА УЛАРНИ КОРРЕКЦИЯ ҚИЛИШ

Жабборова Нафиса Жуманазаровна

Хоразм вилояти Қўшқўпир тумани 11-мактаб, психолог

Ибадуллаева Зубайда Отабоевна

Хоразм вилояти Қўшқўпир тумани 24-мактаб, психолог

Диққат концентрацияси бузилган бола кўп ёки оз даражада шахс сифатида камчилиги бор. Бундай болаларнинг оналари уларнинг хулқ-атворини қуйидаги тарзда таърифлайдилар. Мактабдаги ўзлаштириш ёмонлашади, кайфият тез-тез ўзгариб туради, қатъиятсиз бўладилар. Машғулотларнинг дастлабки соатларида улар фаол ишлайдилар, сўнг ўзларини бошқара олмайдиган ва нотинч бўлиб қоладилар. Дарснинг дастлабки 10- 15 дақиқаларида улар тез- тез ишга қобилиятли бўладилар, сўнг эса эркаланиш, гаплашиш, бошқа ишлар билан шуғулланиш, афтларини буриштиришни бошлайдилар, бошқа ўқувчиларнинг диққатини ҳам ҳар қандай йўл билан ўзларига қаратишга ҳаракат қиладилар. Ёзма ишларни бажаришда эса, болалар бошида эътиборли, кейинроқ хатоларга йўл қўя бошлайдилар, баъзан эса, умуман ёзишни тўхтатиб қўядилар. Уй вазифаларини қийинчилик билан бажарадилар. Агар она ёрдам бермаса, бу кечгача чўзилиши мумкин. Болалар ҳар қандай арзимас нарсага ҳам чалғийдилар. Агарда уларни ишни давом эттиришга мажбурласалар, улар кўпинча йиғлай бошлайдилар. Ўйинга оз вақт қолади, тез орада умуман

ўйнаш истаги йўқолиб кетади, болалар қўзғалувчан ва агрессив (тажовузкор) бўлиб қоладилар, ўқишга эса улар ҳеч қандай қизиқиш билдирмайдилар, ўзи учун ҳеч қандай машғулоти топмайдилар, инжиқлик қиладилар. Улар доимо бошқаларга ҳалал бергани ва қўзғалгани сабабли, атрофдагилар улар устидан арз қиладилар, ниҳоят уларни шифокорга кўрсатишга тўғри келади. Бошқа болалар эса, аксинча, ҳеч қандай фаоллик намоён қилмайдилар, сусти ва камҳаракатчан. Уларда ҳеч қандай қизиқиш ва ҳоҳишлар бўлмайди. Улар на мактабда, на уйда ҳеч кимга ҳалал бермайдилар, шу сабабли уларга нисбатан сабрли муносабатда бўладилар. Бу далил айнан шу билан изоҳланадики, бундай болалар билан ота-оналари шифокор ёки психолог олдида жуда кам ҳолларда ва анча кеч болалари юқори синфларда ўқиётган вақтида муружаат этиб қоладилар.

Қуйида биз ақлий жиҳатдан нормал бўлган болаларда муддатли ёки давомли диққат концентрацияси заифлашувига олиб келувчи муҳим сабабларни таҳлил қилиб кўрамиз. Сабабларнинг биринчи мажмуаси бола шахси ва тузилиши хусусиятлари билан боғлиқ. Бунда оилавий ёки ирсий омилларнинг аҳамияти қандай деган саволга ҳали аниқ жавоб топилгани йўқ. Ҳар қандай болалар невропатологига унинг кундалик тажрибасидан яхши маълумки, бундай беморлар – ҳеч қандай бирорта жисмоний касаллик кўрсатмаси, бош миянинг эрта шикастланиши ёки муҳитнинг салбий таъсири бўлмаса-да, заиф, қўзғалувчан, тез толиқувчан бўладилар. Кўп ҳолларда бу болалар, тез қўзғалувчан, ўзига ишонмайдиган, кўрқок, ўзгарувчан бўлишади. Оддий ташқи қўзғатувчиларга улар нотабиий жавоб кўрсатадилар. Уларда кўпинча нутқ, мотор, билиш, эмоционал ва биринчи навбатда ижтимоий соҳада намоён бўладиган тараққиётдан қисман, орқада қолиш кузатилади.

Агар мактаб ёшига етган, нормал шароитда ўсган ва мактабдаги барча талабларга жавоб бера олган болада шахснинг бирор жиҳати тараққиёти секинлашса, масалан, ижтимоий ёки эмоционал томони, у ҳолда унинг нормал интеллектуал қобилиятларига қарамай, ўзлаштириши тушиб кетади. Бундай ҳолда шу нарса қизиқки, етилишнинг бу камчиликлари доимо хотира концентрацияси заифлашуви билан бирга кечади.

Шунингдек, жинсий етилишнинг асинхрон сомато-психик жараёнларида диққат концентрацияси ўзгаришлари баён этилган. Ўз вақтида қўйилган ташхисда бу ҳолатни мақсадга йўналтирилган машқлар ва организмни умумий мустаҳкамлаш йўли билан енгиш мумкин.

Сабабларнинг иккинчи тўплами ўткир жисмоний касалликлар, узоқ давом этган ақлий ва жисмоний зўриқишдан озиш, уйкуга тўймаслик

оқибатида ўта чарчаш, ақлий ва жисмоний иш қобилиятининг тушиши билан бирга кечувчи касалликлар (масалан, специфик ва носпецифик инфекциялар, юрак- қон томир тизими фаолиятининг бузилишлари, гормонал касалликлар, авитамининдек эндоген ва экзоген психозларни ўз ичига олади).

Сабабларнинг учинчи тўплами бола шахсининг нотўғри тараққиёти ва фаоллигининг камайишига олиб келиши мумкин бўлган, ижтимоий муҳит билан боғлиқ бир гуруҳ касалликларни ўз ичига қамраб олади. Агар кўзғатувчилар болага катта жадаллик билан, лекин қисқа вақт давомида таъсир этса, у ҳолда улар ғзаб, чўчиш, кўрқув, ғам, жаҳл, шодлик ва ҳ.к. каби маълум аффектив реакцияларни юзага келтиради. Доимо вегетатив реакциялар билан бирга кечувчи бу ҳиссиётлар қисқа вақт ичида боланинг диққатни тўплаш қобилиятига таъсир кўрсатади. Бунинг устига заиф ҳиссиётлар ҳам кучли эмоциялар каби уни камайтиради. Энг мақбул диққат концентрациясига эришиш учун жадаллиги бўйича ўртача кўзғалиш зарур. Барча кучли намоён бўлувчи эмоциялар кўп ҳолларда қисқа вақт намоён этса, у ҳолда улар юзага келтирган диққат концентрацияси бузилиши ўткинчи хусусиятга эга. Атрофдагиларнинг узок вақт давом этган салбий таъсири ва низоли вазият билан бирга кечувчи нотўғри тарбия жараёнида бу ҳолат умуман ўзгача тус олади. Бунинг негизида неврозларнинг шакллари, фрустрацион толерантлик ривожланади, кўзғалувчанлик ортади. Олимлар бу билан боғлиқ ҳолда болалар диққати концентрацияси заифлашувини ижтимоий-биологик муаммо сифатида кўриб чиқадилар. Болалар диққати бузилишига олиб келувчи энг муҳим психосоциал омилга тартибсиз кун тартиби, уйқуга тўймаслик, уй вазифаларини бажаришдаги тўсиқлар, мактабдаги юқори талаблар, ҳиссий зўриқиш, радио ва телевидениянинг чалғитувчи таъсири, ота-оналарнинг эътибори камлиги, боланинг мактабга душманларча муносабати, нотўғри тарбиянинг турли шакллари, оилада алоқанинг мавжуд эмаслиги, ота-оналарнинг кўзғатувчи ва спиртли ичимликларни истеъмол қилиши, ҳомиладорлик, ота-оналари маълумотининг паст даражаси, кўп фарзандлик ва ота-оналарнинг ишда ўта чарчаш кабилар киради.

Сабабларнинг учинчи тўпламига таълим шароитлари ҳам киради, чунки улар ҳам ўқувчи диққатига ҳам ижобий, ҳам салбий таъсир кўрсатади. Болаларни муддатидан илгари мактабга қабул қилиш (кўпинча ота-оналар қистови билан), кўп сменали таълим, синфлардаги ўқувчилар сонининг кўплиги, ўқувчиларнинг барча чора-тадбирларда иштирок этиши, ўқитувчиларнинг ҳаддан ортиқ банд бўлиши, ўқитувчиларнинг тез-тез ўзгариши ва ўқув усулларининг тез-тез ўзгариши, ўқув материаллари ва уй

вазифаларининг кўплиги, ҳаддан ортиқ талаблар болаларда диққат концентрацияси бузилишининг сабаблари бўлиши мумкин.

Сабабларнинг тўртинчи тўплами ўз ичига ўткир ва сурункали мия органик психосиндроми билан бирга марказий нерв тизими касалликларини камраб олади. Менингоэнцефалит, шикастлар, интоксикация, шишлар, ҳуруж билан кечувчи церебрал касалликлар ва шу каби бош мия касалликлари шахсининг бутунлай ўзгариши, шу жумладан, диққатнинг заифлашувига олиб келади. Муваффақиятли даъволаш ёки операциядан сўнг психик оғишлар симптомлари тез йўқолиб кетади. Бироқ кўп ҳолларда сурункали мия психосиндроми узок йилларга, ҳатто ўн йилларгача қолиб кетади. Болаларда илк ёш даврларданок бош мия шикастланиши тараққиётидаги бола марказий тизимини шикастловчи турли этиологик ва патоанатомик бузилишларни ифодалаш учун ўзида умумий тушунчаларни намоён этади(Г.Голлнитз). Бу муаллифнинг фикрича, улар эмбрионал тараққиётнинг бошида 6 ёшгача бўлган даврни ўз ичига олади. Сурункали мия психосиндроми умумий вегетатив ва специфик симптомлар ёки миянинг муайян соҳаси бузилишлари белгилари генезига боғлиқ бўлмаган ҳолда намоён бўлади. Симптоматика турли муаллифлар томонидан турлича таърифланади ва таснифланади. Специфик органик симптомларга Г.Голлнитз юқори толиқиш, диққатнинг заифлашган концентрацияси, қуйи иш қобилияти, аффектив реакциялар, агрессивлик, секинлашган тафаккур фаолияти, ланжлик, визуал-мотор дезинтеграция ва қуйи фарқлаш қобилиятини киритади. Муаллиф сурункали мия психосиндромлари белгилари орасидан диққатнинг заифлашувини бежиз биринчи ўринга қўйгани йўқ. Шу билан бирга кўплаб тадқиқотлар шуни тасдиқлайдики, мактаб ёшидаги болаларда диққатни тўплаш қобилияти бош мия шикастланиши симптомлари орасида кўп учраб экан. Биз юқорида эслатиб ўтганимиздек, диққатнинг бузилишига эга соғлом ўқувчилар сони 8-15 % ни ташкил этади. Уларга юқорида кўрсатилган сабаблар оқибатида сурункали диққат барқарорлиги билан ажралиб турувчи барча ўқувчилар киради. Муҳитнинг худди шу салбий таъсирига учраган бош мия функциялари эрта бузилган болалар бундан, айниқса, чуқур изтиробда. Боладаги сурункали психосиндромнинг ифодаланиши ундаги бош мия шикастланиши даражасигагина боғлиқ бўлмай, ундаги компенсацион ва декомпенсацион кечувчи жараёнларга катта таъсир кўрсатади. Мақбул шароит маълум даражада бош мия касалликлари билан боғлиқ нуқсонларни тўлдиришга ёрдам беради ва аксинча, муҳитнинг салбий таъсири кейинчалик бола ҳулқида оғишларни юзага келтириши мумкин бўлган бош мия психосиндромининг кучайишига олиб келиши мумкин.

Диққатнинг концентрацияси бузилишлари деганда, биз инсоннинг бошқа ҳиссий қўзғалишларни идрок қилиши билан бирга бир муаммо бўйича ғайрат билан ишлаш қобилиятининг заифлашувини тушунамиз. Бунда экзоген (оптик, акустик, тактил, таъм) ва эндоген омиллар (чуқурликни ҳис қилиш, ҳароратни сезиш, инстинкт, ва ҳ.к.) шунингдек билиш жараёнларининг таъсири кўриб чиқилади. Мақсадга йўналтирилган ва жамланган диққат шахснинг субъектив хусусиятлари, ҳиссиётлари, фикри, хоҳишлари, ақли, характери, майли, импульслари, эмоционал ҳолатларига боғлиқ. У ижтимоий ва маиший таъсирларга боғлиқ. Мотив, қараш, қизиқиш, интилиш, одат ва эҳтиёжлар ҳам диққатнинг жамланиш даражасига боғлиқ. Бир турдаги ва вақтдаги қўзғатувчининг маълумлиги ва миқдори диққатнинг жадаллиги учун аҳамиятга эга. Унга қўзғатувчи жадаллиги, катталиқ, ранг-баранглиқ, рангларнинг кескин ўзгариши, ёруғлик, баланд овозлиқ, ёрқин ифодаланган симметрия ва оптик, акустик, таъм ёки ҳид билиш қўзғатувчиларнинг бир шакллилиги каби омиллар таъсир этади.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЛИНГВИСТИКИ В ДРЕВНЕМ РИМЕ И В ДРЕВНЕЙ ГРЕЦИИ

Жалолова Ситора Хамидовна

Несмотря на то, что возникновение учения о лингвистике и его развитие началось почти 3 тысячи лет назад, лишь в XIX-XX веках наука о языке выделилась как самостоятельный предмет среди других областей науки. Но человечество гораздо раньше начало интересоваться наукой о языке.

В VI-V веках до нашей эры в древней Афина философия являлась единственной наукой, вобравшей в себя все знания. Поэтому языковые явления в тот период тоже рассматривались как одно из направлений философии. Например, они считали, что взаимосвязь языка и предмета похожа на отношение между природой и обществом и называли эту взаимосвязь «гармонией». Имена предметов и их смысловые значения часто являлись темой споров и дискуссий среди знаменитых античных философов. Исходя из этого развитие древнегреческой лингвистики можно изучить, разделив его на 2 периода:

1. Философский период
2. Грамматический (филологический) период

В частности, один из таких споров происходит между героями произведения Платона (427-347 вв до н.э.) «Кратил» Гермогеном и Кратилом. По мнению Гермогена название каждого предмета отражает его свойства и

соответствует его природе. Современник Гермогена Сократ (469-399 вв. до н.э.) тоже, соглашаясь с Кратилем, утверждает, что никто не способен изменить по своей воле название какого-либо предмета.

Они считали, что язык появился в духе человека по причине его естественных потребностей в общении и, что слово выражает естественное свойство предмета. По их утверждениям, какое свойство предмета пытается передать говорящий, называя этот предмет, именно это свойство, а не другое понимает и слушающий тоже. Название предмета находится в особой взаимосвязи и гармонии с самим предметом.

То есть, не только сам предмет, но и его название тоже было создано самой природой, и каждый предмет имеет свое правильное, незаменимое название. Это утверждение вызвало за собой такое понятие как оноματοпея – подражание звукам. Согласно этой теории, есть некая схожесть между произношением названия предмета и в самом предмете. Например, названия сладких, мягких, приятных предметов состоят из мягких звуков, и, наоборот, названия горьких и неприятных предметов состоят из твердых звуков и т.д. Эта гипотеза стала основой учения об этимологии названия предмета, но, конечно, оно было далеко от научной этимологии.

Анологисты, во главе со знаменитым греческим философом Аристархом, (конец II века до н.э.) выдвигали гипотезу, что есть взаимосвязь между грамматическим строением и словарным составом языка. Они считали, что в греческом и латинском языках есть 3 рода: мужской, женский и средний, который не относится ни к первому, ни к последнему роду.

Предводитель течения аномалистов – Кратес и его сторонники, наоборот, утверждали, что неразумно делить все существующие предметы бытия на 3 грамматических рода. Например, в русском языке существуют слова «черепашка» и «белка», которые по своему грамматическому строению являются существительными женского рода, а на практике же, и самец, и самка этого животного называются одинаково. Такие примеры доказывают несоответствие между строением и смыслом слов.

Представители философского периода античной лингвистики:

1. Анаксимен – (560-502 гг. до н.э.) – в своем произведении «Риторика» положил основу стилистики
2. Продик – (V век до н.э.) – изучал синонимию и свойства синонимических слов
3. Протагор – (480-410гг. до н.э.) – изучал роды слов, времена глаголов и типы слов

4. Платон – (427-347гг. до н.э.) – основатель науки об этимологии, логически различил в речи существительные и глаголы, заметил, что слова, выполняющие роль подлежащего, являются существительными, а слова, выполняющие роль сказуемого, глаголом.

Грамматический период языкознания. Этот древнегреческий период также называется македонским периодом, и он связан с именем великого греческого полководца Александра Македонского. Именно во время военных походов Александра Македонского, греческая культура и наука распространилась в Средиземном Море, в Среднем Востоке, в Черном море, а также в некоторых частях современной Европы, и вместе с восточной культурой, образовала смешанную культуру – эллинизм. Македония считается центром культуры эллинизма, и, начиная с III века до н.э. даже Афины и Рим не могли на нее равняться. Почти 700 тысяч культовых произведений, собранных во время военных походов, стали причиной создания знаменитой Александрийской библиотеки, а позднее, и Александрийской школы.

В грамматический период лингвистики представители Александрийской школы проводили серьёзные исследовательские работы по фонетике, морфологии и синтаксису греческого языка. Больше всего были проработаны вопросы морфологии. Они проанализировали звуки по акустическому принципу и посчитали, что звуки и буквы это одно и то же. Также они сумели классифицировать буквы на гласные и согласные, назвав гласными те буквы, которые произносятся самостоятельно, а согласными те, которых можно произносить только при помощи гласных. Большой заслугой школы Македонского является то, что она сумела отделить грамматику от философии.

Конечно же, редкие уникальные рукописи, привезенные с Востока, тоже сыграли в этих достижениях немалую роль. Так, в развитии древней Греции и древнего Рима немало важный вклад внесли и древние египтяне, и шумеры, и финикийцы, и народы древнего Ирана тоже. В Александрийской школе занимались своим творчеством великие поэты и писатели. Их основной задачей было изучить и проанализировать древние рукописи. Особенно их интересовали произведения Гомера. Также они изучали рукописи, привезенные с Востока. По исследовательским трудам знаменитых ученых этой школы Зенодота, Аристарха (конец II века до н.э.), Дионисия (начало II века н.э.), и Апполония Дискола (2-половина II века) формировались учения о грамматических категориях и классификациях.

Зенодот (250г. до н.э.) – первый руководитель Александрийской библиотеки. Вел исследовательские работы над произведениями Гомера, Эсхила, Софокла. Сумел различить артикли и местоимения.

Дионисий (170-90гг. до н.э.) – ученик Аристарха, создатель первого систематизированного учебника «Искусство грамматики». Согласно его учению, самой малой частью речи является слово, а предложение – это выражение мысли, и оно создается посредством взаимосвязи слов. Он отметил, что имя существительное и прилагательное меняются по падежам и числам. А глагол не меняется по падежам, но имеет категорию времени, лица, числа, наклонения и спряжения. Местоимения способны заменить существительные. Наречие – эта неизменяемая часть речи, прикрепленная к глаголу и выражающая качество глагола.

Аристарх (215-143гг. до н.э.) – один из передовых ученых Александрийской школы, был руководителем Александрийской библиотеки. Вместе со своими 40 учениками полностью восстановил тексты произведений Гомера. Разделил слова на 8 частей: имя существительное, имя прилагательное, глагол, артикль, местоимение, наречие и союз.

Аристотель (324-322гг. до н.э.) – грамматический период античной лингвистики полностью связан с именем великого мыслителя Аристотеля. В своем произведении «Поэтика» он различил 8 видов слов: элемент (т.е. звук), слог, союз, имя существительное, имя прилагательное, глагол, падеж и предложение.

Апполоний Дискол (1-половина II века н.э.) – автор произведения о синтаксисе греческого языка.

Список использованной литературы

1. Античные теории языка и стиля, М. — Л., 1936. – стр. 56
2. Античные теории языка и стиля, М. — Л., 1936. – стр. 110
3. Античные теории языка и стиля, М. — Л., 1936. – стр. 110
4. Кондратов, А. Звуки и знаки / А. Кондратов. - М.: Знание, 2008. - 208 с
5. Будагов, Р.А. Язык, история и современность / Р.А. Будагов. - М.: МГУ, 2014. - 299 с.
6. Будагов, Р.А. Язык, история и современность / Р.А. Будагов. - М.: МГУ, 2014. – 300-301 с.
7. Будагов, Р.А. Язык, история и современность / Р.А. Будагов. - М.: МГУ, 2014. – 351-353 с.

**ПОСТМОДЕРН СОЦИУМДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК
БАРҚАРОРЛИГИНИНИНГ ИЖТИМОЙИ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ**

Х.К.Жаббарова
СамДЧТИ, катта ўқитувчи

Аннотация. Мақолада постмодерн социумда гендер тенглик барқарорлиги ҳақида гап боради. Гендер тенгликнинг барқарорлигининг фалсафий жиҳатлари ва унинг жамият ҳаётидаги аҳамиятига муносабат билдирилади. Инсоннинг ҳаётга ижтимоий мослашувида тенглик ниҳоятда муҳимлиги мақолада асосли тарзда баён этилган. Шунингдек, постмодерн социумда гендер тенгликнинг таъмин тенденциялари ўрганилишига ҳам муносабат билдирилган.

Маълумки, бугунги постмодерн социумда инсоният янги технологиялар ёрдамида барча ютуқларга эришмоқда. Бугунги жамиятда аёллар эркаклар билан назарий жиҳатдан тенг ҳуқуқли деб эълон қилинган бўлсада, амалда ҳар соҳада, ҳар куни уларга нисбатан юзлаб зўравонлик турлари учрайди. Дунёнинг турли бурчакларида ҳуқуқлар тенгсизлигидан, миллионлаб аёллар азият чекмоқдалар. Бироқ цивилизацияни сўнгги пайтларида жамиятда, олимлар тадқиқот ишларида аёлнинг эркаклар билан тенг ҳуқуқли эканлиги кизгин баҳслашувларга сабаб бўлмоқда. Кейинги пайтда аёл ва эркакни давлат сиёсатида тенглиги ёки тенгмаслиги қонунлар билан мустаҳкамланиб борилмоқда.

Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш мақсадида давлатимиз томонидан бир қанча чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, Ўзбекистон Барқарор ривожланишининг Бешинчи мақсадини амалга ошириш мақсадида “Гендер тенгликни таъминлаш ҳамда барча хотин-қизлар”нинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш”га оид тўққизта вазифани ишлаб чиқди.

Тарихий доирага нисбатан "гендер" тушунчаси яқинда пайдо бўлган бўлса-да, аммо у аллақачон кўплаб бой таърифларга эга. Шуни таъкидлаш керакки, бир қарашда ўхшаш кўринадиган “жинс” ва “гендер” тушунчалари аслида бир хил эмас. Замонавий фанда бу икки тушунча билан фарқланади.

“Гендер” тушунчаси тадқиқот мақсадлари ва уларнинг тушунчаларига қараб, турли олимлар томонидан турлича тақдим этилади. Аслини олганда, гендер - бу "ижтимоий жинс", ижтимоий-биологик хусусият, шахснинг жамиятдаги бошқа одамлар билан ўзаро муносабати ва маданият билан танишиш натижаси. Бу унинг жинсига мос равишда инсон социализациясининг маълум бир натижасидир. Демак, гендер тушунчаси, аввало ижтимоий тушунча бўлиб, янги ижтимоий қарашлар ва маданиятга боғлиқдир.

Гендер муаммоси файласуфлар, педагоглар, психологлар ва бошқаларни ўзига жалб қилмоқда. Гендерни психолог жиҳатлари бўйича таниқли психологлар Р.Столлер, З. Фрейд, Ш.Берн Симона де Бевуар, фалсафага оид томонларини Кейт Уэст, С.Г.Айвазова, Д.Зиммерман, педагогикага оид бошқа томонларини эса П.Репкина, Р.Сафарова, Г.Акрамовларнинг ишларида ёритилган. Бундан ташқари ҳозирги кунда ҳар бир соҳада гендер тушунчаси бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Аёл ва эркак ўртасидаги муносабат масаласи кишилик жамияти, ижтимоий муносабатлар, миллатлар, давлатлар, маданият ва цивилизация билан чамбарчас боғлиқ.

Постмодерн социумда гендер тенглик барқарорлигинининг ижтимоий фалсафий таҳлилини илмий –назарий ва амалий жиҳатдан ўрганиш эҳтиёжи мавжудлиги гендер мавзусининг долзарблиги билан белгиланади.

Замонавий жамиятда илмий тадқиқотчилар «гендер» феномени ва у билан боғлиқ “гендер тенглик”, “гендер муносабатлар“, “гендер маданият”, “гендер социология”, “гендер тараққиёт”, “гендер фалсафаси” каби атамаларни ишлатмоқда. Бугунги илм-фан жадал ривожланмоқда, аммо бу гендер тенглик барқарорликни умумлаштиришни, таҳлилни ҳам тақозо этмоқда.

Немис психологи, социолог Эрих Зелигманн Фромм “Эркак ва аёл” номли асарида икки жинс вакиллариининг табиати ва хусусиятлари, гендер тенглиги муаммосини таҳлил қилиш асосида қуйидаги хулосаларга келади: “Тенглик ўзликни англатади. Тенглик талаби табиатан кутблидир: ҳар хил фарқларга қарамай, ҳеч ким бир-бирини ўз мақсадига эришиш сифатида ишлатмаслиги керак, чунки ҳар бир инсон ўзи учун мақсаддир. Ва бу шуни англатадики, ҳар бир инсон ўз турининг ва миллатининг вакили сифатида индивидуал хусусиятларини, ўзига хослигини ривожлантириш эркинлигига эга бўлиши керак. Тенглик фарқларни инкор этишни эмас, балки уларни тўлиқ амалга ошириш имкониятини назарда тутати¹. Демак, инсон ўзининг тенглигини англагандан кейин унинг ҳаётида муҳим ўзгаришлар бўлади. Тенглик талаби кутбли бўлсада, бу ерда эркакнинг ҳам, аёлнинг ҳам умумийлик билан бирга ўзига хос мақсадлари мавжуд.

Бугунги кунда постмодерн социумнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилиш, гендер муносабатларини ўрганиш нафақат “аёл”ни жинс сифатида, балки унинг ижтимоий борлиқни тараққиётини таъминлашдаги конструктив роли замонавий жамиятнинг долзарб ижтимоий масаласи

¹ Эрих Фромм. Мужчина и женщина. ISBN: 5-237-00060-6. АКТ. 1998

эканлиги, бу масалани таҳлил қилиш ва ҳал қилиш жуда муҳим эканлиги кўриниб турибди.

Ҳаётимизда дуч келаётган зўравонликлар, ёшларни учраштирмасдан мажбурлаб ниҳоклаб бериш, ўқимишли қизларни келин қилиб, уларни ишлашига рухсат бермайдиган, хотинларини остонадан хатлаб ташқарига чиқармайдиган ҳолатлар ҳам постмодерн социумида кузатилмоқда. Ўша зўравонликни амалга ошираётган шахс ўзининг жавобгарликка тортилмаслигини билади. Жамият ҳам зўравонлик қилаётган шахсни оқлашга, бу ҳолатда аёл киши зўравонлик ҳақида хабар бермаслиги ёки унинг атрофидагилари, оила аъзолари томонидан чидаш кераклиги, турмушнинг мушти бўлиши, фарзандлари учун чидаш лозимлиги каби маслаҳатлар берилади.

Жамиятда эркак ва аёлнинг тенг ҳуқуқлик масаласи бугунги кунда долзарб масалага айланган. Аёлларга нисбатан муносабат маданиятни шакллантирилмасдан туриб, инсон ҳуқуқлари тенглигига эришиб бўлмайди.

2023 йил 12 апрел кунидан бошлаб кучга кирган “Хотин-қизлар ва болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунда¹ оилавий (маиший) зўравонлик, шахвоний шилқимлик қилиш, Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳузуридаги Оила ва хотин-қизлар қўмитасининг хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш соҳасидаги ваколатлари, ҳимоя ордерининг амал қилиш муддатини узайтириш тўғрисидаги ва шунга ўхшаш моддаларни ўзгартирилиши халқимизни ўзига бўлган ишончини орттиради десак, муболаға бўлмайди.

Мамлакатимизнинг барқарор ривожланишини таъминлаш билан боғлиқ замонавий қарашларга асосланадиган янги жамиятни барпо этиш ғояси халқимизнинг барча қатламлари томонидан қўллаб-қувватланаётгани ва эл-юртимизнинг бу ғоя атрофида жипслашаётгани кўришимиз мумкин.

Адабиётлар

1. Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 3-модда.
2. Эрих Фромм. Мужчина и женщина. ISBN: 5-237-00060-6. АКТ. 1998

¹ Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 11.04.2023 йилдаги ЎРҚ-829-сон

3. Воронина О.А. Гендерная экспертиза законодательства Российской Федерации о СМИ. МЦГИ, 2001. (Воронина О.А. Россия Федерацияси ОАВ тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг гендер экспертизаси. МЦГИ, 2001.)
4. Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендера// Возможности использования качественной методологии в гендерных исследованиях. МЦГИ, 2001.
5. В.Алимасов. Гендер фалсафаси. 2008 йил. Тошкент.
6. Хрестоматия к курсу «Основы гендерных исследований». МЦГИ. М., 2001. (“Гендер тадқиқотлар асослари” курсига хрестоматия. МЦГИ. М., 2001.)
7. Djabbarova X. K. Philosophical foundations of gender equality //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 1-3.
8. Djabbarova X. K. Philosophical Foundations Of Gender Equality //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 03. – С. 270-272.
9. Ahrorova M.R Attitudes towards gender equality in the Eastern mentality in the process of globalization// Language and literature proceeding international virtual confirence 2022 <http://dx.doi.org/105281/zenodo.5926972> [12-15]

OLIV TA'LIM SOHASIDAGI IMTIYOZLAR VA ULARNI TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Iskandarova Yodgora Oybek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura bosqich
“Davlat boshqaruvi huquqi” yo‘nalishi talabasi
yodgora.iskandarova707@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston huquq tizimida oliy ta’limdagi imtiyozlarning nazariy-huquqiy va amaliy masalalari, ularning ahamiyati, imtiyoz tushunchasi hamda bu borada bir qator mualliflarning fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: imtiyoz, imtiyoz berilgan subyektlar, oliy ta’lim muassasalari.

Abstract. The article analyzes theoretical-legal and practical issues of privileges in higher education in the legal system of Uzbekistan, their importance, the concept of privilege, and the opinions of a number of authors in this regard.

Key words: privilege, privileged subjects, higher education institutions.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga qaratilgan bo‘lib,

fuqarolarga ajratilyotgan imtiyozlar mazkur islohotlarning amaliy ifodasi sanaladi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yilning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb berilishi ham ijtimoiy soha va ta’lim bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatib beradi.

Eng avvalo, imtiyoz tushunchasini tahlil qiladigan bo‘lsak, Malkoning fikriga ko‘ra, imtiyoz - bu obyektiv huquq normalari tizimida o‘z ifodasini topadigan va huquqbuzarliklardan farqli o‘laroq, huquq normalariga to‘liq mos keladigan toifadir. [1]. Demak, har bir sohada belgilanadigan imtiyozlar, birinchi navbatda, qonunchilikda ifodalanishi hamda ushbu qonunchilikka muvofiq bo‘lishi kerak.

Shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, rus olimlari “льготы” va “прилегеия” tushunchalariga alohida ta’rif berishadi, ya’ni bu ikki tushuncha bir xil ma’noni anglatmaydi. Birinchidan, imtiyoz eng katta hajm va o‘lchamlarga ega bo‘lgan eng katta afzalliklarni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, agar imtiyoz o‘zining ustunligida kompensatsiya va kafolat funktsiyalarini bajarsa, u holda imtiyozga, birinchi navbatda, huquqiy rag‘batlantirish sifatida qaralishi kerak [16, b. 109–110].

Uchinchidan, imtiyoz ham alohida, ham shaxsiy huquqiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarga berilishi mumkin. Aniqrog‘i, bu nom ma’lum bir ustunlikni o‘zida mujassam etgan shunday istisno holatni bildiradi...” [16, b.109–110].

Umuman olganda imtiyoz muayyan sabablarga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan afzallik. Imtiyozlar davlat qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga binoan — fuqarolarga, shuningdek, jamoat birlashmalari tomonidan ma’muriyat qaroriga muvofiq — uning a’zolariga tayinlanishi mumkin. Imtiyoz berilgan shaxs esa belgilangan qoidalardan istisno tariqasida muayyan majburiyatlarni bajarishdan to‘la yoki qisman ozod qilinadi yoxud ularni bajarish sohasida muayyan qulayliklardan foydalanadi.

Shu o‘rinda, oliy ta’lim muassasalari tushunchasiga ta’rif berib o‘tishni ham maqsadga muvofiq deb bilamiz. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 11-moddasiga muvofiq, oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi. Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi.

Endi esa oliy ta’lim tizimida ajratilgan imtiyozlarga kelsak, ularni tasniflagan holda ko‘rib chiqamiz.

Xotin-qizlarga ajratilgan imtiyozlarga quyidagilar kiradi:

- 1) kam ta’minlangan oiladan chiqqan xotin-qizlar;

- 2) to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya'ni otasi yoki onasi vafot etgan xotin-qizlar;
- 3) 14 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq farzandlarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan alohida yashayotgan yolg'iz ayol (erkak)larning qizlari;
- 4) shaxsiy uy-joyga ega bo'lmagan, ijarada yashayotgan oilalar;
- 5) ota-onalardan biri yoki har ikkisi ishsiz bo'lgan va ish qidiruvchi shaxs sifatida aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida hisobda turganlar;
- 6) nogironligi bo'lgan farzandi bor oilalardan chiqqan xotin-qizlar;
- 7) oliy ma'lumotli xotin-qizlar bilan qamrab olish darajasi respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlaridan ikki yoki undan ortiq marotaba past bo'lgan tumanlar, shuningdek, olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda yashovchi oilalardagi qiz farzandlar (ularni o'z hududida 3 yil ishlash sharti bilan).

Harbiylar uchun esa quyidagi imtiyozlar belgilab berilgan:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qism qo'mondonligi (rahbariyati) va O'zbekiston Yoshlar ittifoqining tavsiyanomasiga asosan har bir harbiy qismdan bir nafardan yuqori natijalarga erishgan yosh harbiy xizmatchilar;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar (idoralar)da harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlari OTMlarga kirishda ajratilgan besh foizli qabul ko'rsatkichlari doirasida;
- 3) harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan hamda harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog'ida yaradorlik, kontuziya, shikastlanish yoki kasalliklar oqibatida nogiron bo'lib qolgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar (idoralar)ning harbiy xizmatchilarining farzandlari;
- 4) harbiy ta'lim muassasalariga kirish uchun esa kursantlar (o'quvchilar)ni qabul qilishning umumiy sonidan besh foizli qabul ko'rsatkichlari (qo'shimcha besh foizli qabul kvotasi) ajratiladi;
- 5) terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari;
- 6) "Temurbeklar maktabi" bitiruvchilariga oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat OTMlariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan ballarning 15 foizi miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida.

Davlat mukofoti sovrindorlariga ajratilgan imtiyozlar:

- 1) umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari bo'lgan o'quvchilari;
- 2) "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohiblari bo'lgan umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari;
- 3) "Nihol" mukofotiga sazovor bo'lgan yoshlar madaniyat, san'at yo'nalishida;
- 4) badiiy akademiyaning tasviriy san'at bo'yicha respublika tanlovi g'oliblari akademiya taqdimnomasiga asosan;
- 5) "Tarbiyachi" respublika ko'rik-tanlovi g'oliblari Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli OTMLarning mos ta'lim yo'nalishlariga.

Yuqorida qonunchiligimizda oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun ajratilgan imtiyozlarni ko'rib chiqdik. Imtiyozlar yuzasidan qonunchilikka quyidagilarni taklif qilib bersak bo'ladi:

- barcha imtiyozlar bitta normativ-huquqiy hujjatda jamlanishi lozim;
- davlat organlarida faoliyat yuritadigan shaxslarning farzandlariga berilgan imtiyozlarning o'rniga har bitta davlat organida xizmat qilgan shaxsning o'ziga qaysidir sohada imtiyozlar berilishi lozim. Masalan, qonunchilikda belgilangan muddatdan oldin nafaqaga chiqish yoxud tibbiyot muassasalarida bepul davolanish;
- Oliy ta'limga kirishdagi imtiyozlar qonunchilikda belgilanishidan oldin fuqarolarning ijtimoiy holati, sharoiti, moddiy ta'minlanganlik darajasi mahalliy hokimiyat vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va zarur bo'lgan holatda deputatlar tomonidan ham atroflicha o'rganib chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Малько, А. В. Привилегии и иммунитеты как особые правовые исключения / А. В. Малько, С. Ю. Суменков. – Пенза : Информационно-издательский центр ПГУ, 2005. – 180 с.
2. Статья 14 Приложения № 6 к Концепции информационной безопасности Федеральной налоговой службы (утв. приказом ФНС РФ от 13 января 2012 г. № ММВ7-4/6@ // Справочно-правовая система «Гарант». (Тест приказа официально опубликован не был.)
3. Регельсбергеръ, Ф. Общее учение о правѣ: пер. И. А. Базанова / подъ ред. Ю. С. Гамбарова. – Москва : Типографія Высочайше утвержд. Т-ва И. Д. Сытина, 1897. – 295 с.

**ILMIY-FANTASTIKA JANRIDA AYZEK AZIMOVNING O'ZIGA XOS
USLUBI**

*Tokhirova Umida Akramovna
Buxoro Davlat Universiteti*

Badiiy adabiyot - ijtimoiy ong shaklining eng faol sohasidir. U hayotni har taraflama chuqur tasvirlashi bilan fanning boshqa sohalaridan ajralib turadi. Obrazlilik – badiiy adabiyot in'ikosining eng asosiy belgisi bo'lib, u hayotni jonlantirib, badiiy bo'yoqlarda tasvirlab, inson tuyg'ulariga ta'sir qiladi.

Ma'lumki, badiiy adabiyot qanday yashashni emas, qanday yashamaslik kerakligini ham o'rgatadi.

Adabiyotning badiiyligi uning obrazligidan kelib chiqadi. Badiiylilik deganda voqealikka hayotiy, jonli kartinalarda, o'quvchida estetik zavq, jonli tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlash darajasi tushuniladi. Badiiylilik asarda hayotning haqqoniy aks ettirilishi, xarakterlarning tipikligi, san'atkor talqin etgan ijtimoiy idealning muhimligi, asarning xalqchilligi, yozuvchining shakl va mazmun elementlarini bir-biriga mutanosib qilib uyushtirishi kabilar bilan belgilanar ekan, bu fantastik janrdagi asarlar uchun ham xosdir. Chunki bu asarlarda voqealikka mohiyati haqqoniylik bilan ochiladi, yuksak insoniy fazilatlar ulug'lanali, ilg'or g'oyalar ifodalanadi: kompozitsiya mukammal, til obrazli va shirali, barcha shakl elementlari g'oyaviy mazmunga mos bo'ladi. Ularning yuksak badiiyligi ana shularda ko'rinadi.

Amerika ilmiy – fantastika janri XX asr 50-yillariga kelib jahon adabiyotida fantastika janrining keng tarqalgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo'nalish ilm-fanning barcha sohalaridagi, shu jumladan, texnika va adabiyot sohalaridagi ta'sirining ko'rinishiga aylandi. Haqiqatan, bu fazoni kashf etishga bo'lgan qiziqish ortidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam berdi, shuningdek ijtimoiy – siyosiy tanqid va hajviyaning qisqarishiga erishilishiga ham asos bo'ldi. Amerika ilmiy fantastika janriga qiziqish va uni tushunish zamonaviy adabiyotda bu yo'nalishning o'sha davr uchun ahamiyat kasb etib, jurnallarda aralash chop ettiriladigan fantastikaning bir oddiy ko'rinishidan zamonaviy romannavislikning keng tarqalgan yo'nalishiga aylantirdi. Klerison bu uslubdagi asarlarda asosiy mavzu insoniyatning yadro urushi qirg'inlari bashoratidek muvaffaqiyatni va 1960-yillardagi xilma-xillikka ko'rsatib berishini aytib o'tadi. Ayzik Azimov, Robert A. Heynleyn, Jon W. Kempbel, Rey Bredberi, Marjori Nikolson, Maks Erlich, Judi Merril, Kurt Vonnigut kabi yozuvchilar ham shu mavzularda asarlar yaratgan mashhur fantastiknavislardir.

XX asr ilmiy-ommabop va ilmiy-fantastik adabiyotining yorqin namoyondasi, amerika yozuvchisi Ayzek Azimov 1920-yil 2-yanvar sanasida Rossiyaning Mogilyov guberniyasi (hozirda Smolensk viloyati), Petrovichi shahrida, tegirmonchi oilasida tug'ilgan. Ayzek Azimov Juda va Rakel Azimov uch farzandining to'ng'ichi edi. Unga ona tomondan bobosining xotirasi uchun, bobosining ismini qo'yishgan ekan.

1923-yilda A. Azimovlar oilasi AQSH ga muhojirlikka ketishadi. O'sha vaqtda u atigi uch yoshda bo'lgan. U o'zi haqida hazil aralash "ota-onam meni chamadonda olib kelishgan" der edi. A. Azimov Nyu-Yorkning Bruklin shaharchasida o'sib voyaga yetadi va shu yerda ular qandolatchilik do'koni ochishadi.¹

A. Azimovning ilmiy fantastikaga qiziqishi uning shirinlik do'koni yonida sotiladigan bir nechta ilmiy-fantastik jurnallarni o'qib ko'rganida boshlanadi. Ammo otasi ularni o'qishiga qarshilik qiladi. Do'konda yangi "Science wonder stories" deb nomlangan yangi jurnal paydo bo'lgach, A. Azimov otasini bu juda jiddiy jurnal deb ishontiradi va natijada uni o'qishga ruxsat oladi. U tezda ilmiy-fantastik asarlar ishqiboziga aylanadi. A. Azimov muharrirlarga maktublar yozib, jurnalda paydo bo'lgan hikoyalarni sharhlab, o'z hikoyalarni yozishga harakat qiladi.

Ayzek Azimov ijod olamiga juda erta kirib kelgan. Uning ilk asari kichik bir shaharchada yashovchi bolakayning sarguzashtlari haqida bo'lib, bu vaqtda atiga 11 yoshda bo'lgan bo'lajak yozuvchi, kitobning 8-bobgacha yozib, so'ngra tashlab yuboradi. Lekin undagi voqealarni o'z o'rtog'iga gapirib berganida, o'rtog'i bunga qattiq qiziqib qolib, davomini yozib berishini talab qila boshlaydi. Ayzek Azimov, keyinchalik ham, o'sha daqiqa uning uchun o'zida yozuvchilik iste'dodi borligini anglashga turtki berganligini ko'p eslagan.

Amerika adabiyoti kolonial kunlardan to hozirgacha uzoq va mashaqqatli yo'l bosib o'tdi. Jamiyat, tarix va texnologiya unga sezilarli ta'sir o'tkazdi. XX asr 50-yillariga kelib, ilmiy – fantastika janri jahon adabiyotida fantastika janrining keng tarqalgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo'nalish ilm-fanning barcha sohalaridagi, shu jumladan, texnika va adabiyot sohalaridagi ta'sirining ko'rinishiga aylandi. Amerika adabiyotining qalami o'tkir yozuvchilaridan Ayzek Azimov yaratgan bir qancha asarlar ham XX asr Amerika adabiyoti ilmiy fantastika janri taraqqiy etishiga sabab bo'ldi, desak adashmaymiz. Bu asarlarning ko'pchiligi texnik janrga asoslangandir. Yozuvchi qalamiga mansub romanlar odatda fan – texnika olami va bu sohada inson harakatlarining muvaffaqiyatsiz yakunini

¹ M. Bakoeva, E. Muratova, M. Ochilova . "English Literature" – T.: Tashkent, 2006. – B. 140-145.

tasvirlaydi. Shu sababli ham, biz Ayzek Azimovni ilmiy-fantastika janrining asoschisi deya olamiz. Uning asarlari adabiyotning ilmiy-fantastik yo`nalishidagi eng sara namunalaridandir. “Koinot oqimari” asari ham Azimov ijodiga mansub Amerika ilmiy – fantastika janrining durdona asarlardan biridir. “Koinot oqimlari” asari 1952-yilda yozuvchining ayni qizg’in ijod pallasida yaratilgan bo’lib, kitobxonlar e’tiboriga tushgan bebaho fantastik asardir. “Koinot oqimlari” da eng yaxshi ilmiy-fantastik janrdagi asarning barcha komponentlarini ko’rish mumkin. Matnning asosiy nuqtasi shundaki, asar muallif tomonidan hikoya qilinadi, matn ko`chirma gaplardan va qisqa dialoglardan tashkil topadi.

Asarda keltirilgan 1950-yillardagi fazoviy texnika yutuqlarining muhokamasi: masofaviy nazorat uskunalari, koinotdagi sayyoralar va yulduzlarni tadqiq qiluvchi mexanizmlar, fazoviy kemalar o’sha davr kitobxonlari uchun hali yangilik sanalgan.

Ayzek Azimovning yana bir qirrası borki, bu jihat “Koinot oqimlari” fantastik romanida yaqqol ko`zga tashlanadi. U bir xalqning ikkinchi xalq ustiga bostirib kelib, uni yoppasiga qulga aylantirib ishlatib, ushbu mehnat natijasidan faqat o’zi “non va yog”ga ega bo’lishini keskin qoralaydi. Sark va Florina o’rtasidagi munosabatlar XX asrning o’rtalarida kolonial kuchlar va ularning koloniyalari orasidagi vaziyatga o’xshashdir, bu yerda Floriniyaliklar kirt maydonlarida ishlashga majbur qilinib sarkliklardan pastroq irq sifatida qaraladilar.

Ayzek Azimovning ijodiga mansub asarlar har qaysi davrda ham o’zining yuksak o’rniga ega bo’lib qoladi. Azimovning asarlarida texnologiyaning qanday yaratilishi, uning insoniyat uchun qanday foyda keltira olishi to’g’risidagi g’oyalar ilgari surilgan. Uning fikricha, robotlar yoki texnologiyalar insoniyatni falokatga olib bormasligi, balki odamzot uchun eng yaxshi yordamchi bo’lishi kerak deb hisoblaydi. Uning asl kasbi biokimik bo’lganligi uchun, hikoyalarda o’z kasbidan kelib chiqqan holda, kimyoviy moddalar va ularning reaksiyalari haqida yozgan. Shuningdek astronomiya sohasiga murojaat qilib, hikoyalari orqali o’zining ilmiy qarashlarini bayon etgan. Uning ko’plab asarlari asosida mashhur kinofilmlar ishlangan. Yozuvchining asarlari jahonning o’nlab tillariga tarjima qilingan va millonlab qayta-qayta nashr etilgan. Jumladan, jahonga mashhur ushbu fantast-yozuvchining asarlari orasida o’zbek tiliga tarjima qilinganlari ham bor. Uning “Koinot oqimlari” romani hamda, qator hikoyalari o’zbek fantast yozuvchisi Ozod Mo’min tomonidan o’zbek tiliga o’girilgan. Ayzek Azimov ilmiy fantastikada barakali ijod qilgan. Uning ko’plab asarlari kosmik kemalar ishtirokida, o’zga galaktikalardagi hayotni tasvirlaydi. Uning “Sirli nur”, “Pushtirang falokat”, “Birinchi sinov” kabi hikoyalari ilmiy fantastika janridagi eng yaxshi hikoyalar sifatida tan olingan. A. Azimov asarlari ilmiy fantastikaning “kosmosga sayohat”

yo'nalishida yozilgan bo'lib, undagi voqealar samokezar kemalarning kosmosga uyushtirgan sayohati, o'zga sayyoraliklar, ularning hayot tarzi yoxud ularning insoniyatga, yer kurrasiga qanday ta'sir ko'rsatishi kabilar yoritiladi. Adibning o'ziga xos yozish uslubi mavjud bo'lib, ingliz adabiyotidagi birorta ijodkorga taqlid qilmaydi. Asarlarida ilm-fanning kelgusida erisha olishi mumkin bo'lgan kashfiyotlari bayon etiladi.

Ingliz adabiyotida A.Azimov, ilmiy-fantastikani mustaqil janr sifatida taraqqiy etishiga katta hissa qo'shgan. U yaratgan asarlar yaxshilik bilan yakun topadi, qahramonlar asar so'ngida o'z yo'llarini topib, baxtga erishishadi. Ijodkor yaratgan asarlari bilan insonlarni ezgulikka, yaxshilik qilishga chorlaydi. Yaratilgan kashfiyotlar, izlanishlarning barchasi insoniyat uchun foyda keltirishi, ilm fan insonlar hayotini yaxshilashga xizmat qilishi kerakligi ta'kidlanadi. Azimov asli kasbi biokimyogar bo'lgani uchun asarlarida asosan kimyoviy moddalarning o'zaro ta'sirlari, ulardan qanday foydalanish haqida yozadi. Ijodkorning asarlarida zamon va makon masalalari bir biridan farq qiladi. Uning asarlarida voqealar asosan yer yuzida insoniyat kelajakda ro'para bo'ladigan kashfiyotlar haqida bayon etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adib nafaqat ilmiy-fantastikaning, balki jahon adabiyotining rivojiga ham munosib hissa qo'shdi. Uning ijodiy merosi har tomonlama o'rganishga va tadqiq etishga loyiqdir. Uning asarlarining tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'lib, kitobxonni chuqur mulohazaga boshlaydi. Insonni o'zini o'zi anglashga, hayotda to'g'ri yo'ldan borishga, vijdonli, e'tiqodli bo'lishga undaydi, insonlar mehr oqibat va bag'rikenglikni shakllantiradi. Shuningdek, adibning ijodiy merosi yoshlarni dunyoqarashini o'stirish, ezgu qadriyatlar ruhida tabiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Осипов А. Н. Фантастика от “А” до “Я” М.:1999 .
2. Сиротин А. “Фантазии о прогрессе”. – И.: Москва, 2013 г.
3. Tokhirova U.A “The description of image in H.Shaykhov’s works” – Студенческий вестник, (8-3)2021. 52-54
4. Asimov Isaac., “The Foundations of Science Fiction”. –P.: 1982.
5. Bakoeva M, Muratova E, Ochilova M. “English Literature” – T: Tashkent, 2006.
6. Muxlisa J.Ch (2022). the skill of translators in recreating the historical period reflected in the novel “the days gone by”. academica globe: inderscience research, 3(01), 76–82
7. Jumamurodovna, C. M. (2022). Expression of the “Pride/Hubris Motif in English Literature. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND

SUSTAINABLE EDUCATION, 1(4), 81–83. Retrieved from <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/174>

ONA TILI O'QITISHNING UMUMIY METODI

Mamatisakova Nafisa Nabijanovna

Jalakuduk tumani 3-maktab Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola ona tili metodikasini maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilashi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshirishi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilashi haqida.

Kalit so'zlar: Materiallarini kuzatish, elementar, o'quv predmeti, puxta va saranjom.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari. Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin uloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzidagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ong'li ravishda tatbiq

etadilar. Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.

”Ta’lim to’g’risida”gi qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi:

— ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

— ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

— umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limining majburiylik;

— o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo’nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o’qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

— ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

— davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiq;

— ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

— bilimli bo’lishni va iste’dodni rag’batlantirish;

— ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg’unlashtirish

Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o’zaro bog’lanadi. Maktab ta’limidagi har bir o’quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko’nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatan ham, ona tili o’qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o’sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma’lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o’rganadi va hokazo. Pedagogika fani bolalarni har tomondan rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o’qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma’lumotlariga tayanadi.

Ona tili metodikasini umumiy pedagogika bilan bog’lash ayniqsa boshlang’ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o’quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o’quv faoliyatida zarur bo’lgan ko’p odat va ko’nikmalari hali tarbiyalanmagan bo’ladi. Tashkilotchilik, jamoa ishiga tez kirishish, e’tibor bilan eshitish, o’qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va sarajom bajarish kabi ko’nikma va odatlar o’qituvchi va maktab tomondan amalga oshiriladigan umum pedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o’qitish metodikasi. — T.: O’qituvchi, 1992.
2. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosi va imlosi. — T.: 2003.

3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi“, 1992.
4. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi“, 1999.
5. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: „O'qituvchi“, 1997.
6. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim-oftobim (2-sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi“, 2000.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОВЕТРИВАНИЯ В ПОДЗЕМНЫХ ВЫРАБОТКАХ ШАХТЫ «МУРУНТАУ» НА ПЕРСПЕКТИВУ

Куролов Адиз Асроркулович
к.т.н., начальник ЦПБ АО “НГМК”,
a_kurolov@ngmk.uz

Авазов Адхамбек Нурилла угли
магистрант кафедры горное дело НГГТУ,
adxambekavazov@gmail.com

Ражабов Элёр Худоёрлович
Инженер горной группы Центрального проектного бюро НКМК,
Rajabovelyor1191@gmail.com

Аннотация. В тезисе анализирован отчет воздушно-депресссионной съёмки (ВДС) в подземных выработках шахты «Мурунтау», и разработаны схемы проветривания на перспективу. Согласно полученным результатам отчета с углублением выработок даны рекомендации для повышения эффективного проветривания шахты «Мурунтау».

Ключевые слова: Воздушно-депресссионная съёмка, подземная выработка, шахта «Мурунтау», схемы проветривания, эффективное проветривания.

Правильная организация проветривания шахт зависит не только от подачи в них необходимого количества воздуха, но и от соответствующего распределения его по горным выработкам с помощью различных средств оборудования. Многие средства, применяемые на практике, часто не обеспечивают надлежащее распределение воздуха по выработкам.

Полнота использования свежего воздуха, подаваемого в шахту, зависит от эффективности работы средств распределения по горным выработкам.

При этом применяемые средства должны обладать, способностью регулировать количество воздуха в широких пределах в различных условиях их установки. [1],

Усовершенствование существующих и изыскание принципиально новых средств оборудований регулирования воздуха-распределения и оптимальное проветривание по выработкам является основным вопросом для горнорудной промышленности.

Шахта «Мурунтау» (далее шахта «М») относится к разряду геологоразведочной шахты, деятельность, которой направлена на ведение геологоразведочных работ по уточнению контуров рудных залежей и содержания в них полезных ископаемых, а также для откачки карьерной воды из карьера Мурунтау.

В настоящее время на шахте «М» ведутся работы по вскрытию нижележащего горизонта согласно утвержденного рабочего проекта «Разведка глубоких горизонтов месторождения «Мурунтау» с устройством водоотливного комплекса на отметке +150м.» и работы по проекту до разведки месторождений Центрального РУ на 2022 год с целью до разведки глубоких горизонтов и флангов месторождения «Мурунтау», а также осушения карьерного поля.

В данное время используется вентилятор ВОД-21, предназначенный для проветривания подземных горных выработок шахты через ствол 1-Главный.

В рамках отработки V очереди карьера «Мурунтау» конечная отметка достигает горизонта - 480м. В целях своевременного осушения карьерного поля шахтой «Мурунтау» необходимо произвести углубку подземных горных выработок от горизонта -150м. до горизонта -480м., что в свою очередь приведет к увеличению количества поддерживаемых горных выработок и глубоких горизонтов.

С увеличением протяженности проветриваемых выработок, а также в связи с изменением схемы проветривания в перспективе с фланговой на центрально-сдвоенную, возникает необходимость в увеличении производительности вентилятора главного проветривания.

В 2021 году со стороны специалистов ЦПБ НГМК совместно со службой ПВС шахты «М» проведена обследование главной вентиляторной установки ВОД-21М и составлен Отчет НИР «Проведение воздушно-депресссионной съёмки в подземных выработках шахты «Мурунтау», разработка схем проветривания на перспективу».

Воздушно-депресссионная съёмка проводится с целью выполнения требований «Единых правил безопасности при разработке рудных, нерудных

и россыпных месторождений подземным способом» определения «узких» мест вентиляции горных работ и разработки оптимальной схемы проветривания шахты на перспективу. [3]

Исследование о воздушно-депресссионная съемка (ВДС) включает:

- результаты проведения ВДС и обследования вентиляторной установки главного проветривания;
- расчёт воздухо-потребности шахты в свежем воздухе;
- разработку оптимальной схемы проветривания на современное положение и на перспективу.

Предварительные расчеты показывают, что производительность вентилятора ВОД-21 не будет удовлетворять требуемой потребности количества подаваемого в шахту свежего воздуха. В связи с чем, потребуется замена вентилятора ВОД-21 на более производительный вентилятор ВОД – 30.

На сегодняшний день бригады приступают вскрытию и проведению горных выработок горизонта -150м, количества чистого воздуха необходимого на ближайшее месяцы так как на горизонте -150 м будет работать как минимум две проходческие бригады.

Результаты расчета показывают, что на перспективу ВОД-21М может не обеспечить потребность шахты при развитии работ на горизонте -150м и увеличении забоев, в связи с этим рекомендуется принять решение во вовлечению существующих вентилятора ВОД-30. Аэродинамические характеристики сооруженного на шахте «М» вентилятора ВОД-30 позволяет обеспечить в дальнейшем воздухопотребность шахты а также эксплуатации вентилятора ВОД-30 необходима герметизировать надшахтного здания и копра ствола 1-1.

Согласно вышеуказанному отчету и принятых решений, ЦПБ разработан рабочий проект «Присоединение вентиляционного канала вентилятора ВОД-30 к вентиляционному каналу вентилятора ВОД-21 шахты «М»» для обеспечения свежим воздуха горизонта -150м и проветривания на перспективу.




Рис. 1. «Присоединение вентиляционного канала вентилятора ВОД-30 к вентиляционному каналу вентилятора ВОД-21 шахты «М»»

В настоящее время ведутся работы по вскрытию и подготовке горизонта -150 м, что в свою очередь усугубляет условия проветривания данного горизонта в период проходки и эксплуатации, что требует принятия безотлагательных мер по подаче свежего воздуха в данный горизонт.

Действующая схема вентиляции с применением ВОД-21 не дает необходимого количества свежего воздуха в потребном количестве, что требует изменения ранее запроектированной схемы вентиляции действующих горизонтов шахты «М» с применением вентилятора ВОД-30, который должен был задействован в эксплуатацию согласно ранее разработанного рабочего проекта «Отработка запасов опытно-промышленного блока с устройством выхода на борт карьера. Корректировка».

Целью настоящего проекта является строительство вентиляционного канала вентилятора ВОД-30 к вентиляционному каналу вентилятора ВОД-21

Шахты «М» для создания нормализации условий проветривания на стадии реализации рабочего проекта «Разведка глубоких горизонтов месторождения «Мурунтау» с устройством водоотливного комплекса на отметке -150 м», доразведки флангов месторождения Мурунтау с применением горизонта -150м, а также осушения карьера Мурунтау на промежуточных горизонтах отработки. [4]

Выводы:

Согласно результатам для улучшения в перспективе проветривания шахты предлагается:

Провести работы по герметизации люков для входа в канал вентилятора.

Провести работы по герметизации вентиляционных сооружений (вентиляционных дверей) и довести утечки до нормативных в соответствии с таблицей 6.1 и 6.2 «Временная инструкция по расчету количества воздуха, необходимого для проветривания рудных шахт» вентиляционных дверей горизонта -75 м и -150 м.

На перспективу геологоразведочные работы шахты «Мурунтау» будут развиваться на горизонте -150м. Общешахтная струя создаваемая вентилятором ВОД-21М направляется на кольцевой штрек под воздействием лобового сопротивления вентиляционных дверей и это уменьшает статическое давление воздуха значительно.

Расчеты показывают, что на перспективу вентилятор ВОД-21М может не обеспечить потребность шахты при развитии работ на горизонте -150м и увеличении забоев, в связи с этим рекомендуется принять решение по вовлечению существующего вентилятора ВОД-30. [4]

Литература

1. Ушаков К.З., Бурчаков А.С., Пучков Л.А., Медведев И.И. Аэрология горных предприятий. М.: Недра, 1987 г.
2. Кириин Б.Ф. Ушаков К.З. Рудничная и промышленная аэрология. М.: Недра, 1983 г.
3. Ржевский В.В. Открытые горные работы. Часть 2. Технология и комплексная механизация. М.: Недра, 1985 г.
4. Отчет НИР «Проведение воздушно-депресссионной съёмки в подземных выработках шахты «Мурунтау», разработка схем проветривания на перспективу и исследования по определению оптимальной схемы проветривания». Навои, 2021 г.

OBRAZLI FRAZIOLOGIZMLARNING SHAKLLANISH OMILLARI

Jurayeva Zamiraxon Quchqarboyevna
TATUFF Xorijiy tillar kafedrası assistenti

Annotatsiya. Maskur maqolada obrazli fraziologizmlarning tarixiy rivojlanishida madaniy va ijtimoiy omillarning ta'siri atroflicha o'rganilgan. Obrazli frazeologizmlarning adabiyot va tarjimada qo'llanilishning dolzarbligi tahlil qilingan. Tilni boyitishda va mazmunli qilishda obrazli frazeologizmlar katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, obrazli frazeologizmlar, madaniyat, adabiyot, tarjima, ijtimoiy omillar, til vositalari.

Аннотация. В данной статье подробно исследуется влияние культурных и социальных факторов на историческое развитие образной фразеологии. Анализируется актуальность использования образной фразеологии в литературе и переводе. Подчеркивается, что образная фразеология имеет большое значение в обогащении языка и придании ему осмысленности.

Ключевые слова: фразеология, образная фразеология, культура, литература, перевод, социальные факторы, языковые средства.

Abstract. The influence of cultural and social factors on the historical development of figurative phraseology is studied in detail. The relevance of the use of figurative phraseology in literature and translation is analyzed. It is emphasized that figurative phraseology is of great importance in enriching the language and making it meaningful.

Key words: phraseology, figurative phraseology, culture, literature, translation, social factors, language tools.

Til har bir xalqning e'tiqodi, madaniyati va dunyoga munosabatini tavsiflovchi eng muhim omildir. E'tiqod, dunyoqarash, madaniyat bir-biriga o'xshamasligi sababli turli xalqlarning maqollari, matallari bir xil emas. Ayrim tilshunos olimlar xalqning madaniyatini o'rganishda uning tilini o'rganish muhim deb o'ylaydilar. Ularning fikricha, til va madaniyat bir vaqtning o'zida birgalikda ishlab chiqilgan o'zaro bog'liq tizimdir. Madaniy omillar til bilan chuqur chambarchas bog'langan va shu tariqa til shakllarida morfologik va tuzilmaviy jihatlar aks etadi.

Har bir tilning frazeologiyasi dunyoning obrazli tasvirlarini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Frazeologizmlarni bilish xalq tarixi va xarakterini chuqurroq anglash imkonini beradi. Frazeologizmlar lug'at bilan chambarchas bog'liqdir. Ularni o'rganish lug'at tarkibi, ta'lim va nutqda leksik birliklardan foydalanishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu atama haqida gapirganda, tilimiz bir

zumda yuqoridagi tushunchani anglatuvchi boshqa tushunchaga aylanadi. Bu frazeologik birliklar atamasidir. Ular har qanday tilning o'ziga xosligi va o'ziga xosligi jamlangan maxsus til vositalaridir.

Frazeologizmlar xalqning azaliy va ajoyib urf-odat va an'analari, tarixiy yodgorliklari, ertak va qo'shiqlar namunalarini o'z ichiga olgan go'zal galereyaga o'xshaydi. Frazeologiya lug'atning eng rang-barang qismigina emas, balki eng demokratik qatlami hamdir.

Frazeologizmlardan ilk bor adabiyotda foydalanilgan. Ba'zi badiiy adabiyotlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilganda, ajralmas so'z birikmalarini tarjima qilish imkonsizdek bo'lib ko'ringan. Keyin maskur tillardagi frazeologik birliklar tadqiq etilgan. Frazeologiya atamasi filologiyada birinchi marta 1558 yilda ingliz adabiyotshunosi Neander tomonidan qo'llanilgan. Neander adabiy asarlarni tarjima qilishda ushbu atamadan foydalanishga majbur bo'ldi. Frazeologik materiallarning katta qismi lug'at va boshqa manbalarga kiritilgan bo'lsada, frazeologiya nazariyasiga oid tadqiqot ishlari tilshunoslikka oid manbalarda kam uchraydi. Hozirgacha ingliz frazeologiyasi masalalari grammatika, stilistika, leksikografiya va til tarixi doirasida o'rganilgan. Keyinchalik frazeologiya leksikologiyaning bir tarmog'i sifatida o'rganila boshlandi. Tilshunoslik rivojlanishi bilan hozirgi vaqtda frazeologiya ko'pchilik tillarda tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida qabul qilinib, tadqiq qilinmoqda. Aytish joizki, bir qator Sharqiy Yevropa va Rossiya olimlari o'z asarlarida bu sohani tadqiq qilib ko'p natijalarga erishganlar. Biroq frazeologiya leksikologiyaning bir qismi bo'lib qoldi, chunki frazeologiyaning tilshunoslikda mustaqil soha sifatida ajralib chiquvchi mezonlar hali ishlab chiqilmagan. Demak, frazeologiya leksikologiyaning bir qismi sifatida o'rganiladi. B.A.Larin, E.D.Polivanov va V.V.Vinogradov kabi tilshunos olimlar frazeologiyani mustaqil o'rganish g'oyasini olg'a surgan. B.A.Larin frazeologiya bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmaganligini tasdiqladi.

Frazeologizmlar qo'llanilishi va tuzilishiga ko'ra klassifikatsiya qilinadi. Eng kam o'rganilgani va kam ahamiyat qaratilgan frazeologizmlar qatoriga obrazli frazeologizmlarni kiritishimiz mumkin. Obrazli frazeologizmlar - bu ba'zi bir obyektlarga xos xususiyatlarni boshqa obyektlarga o'tkazadigan iboralardir. Ular so'zlashuv nutqining eng muhim elementiga aylangan va har bir mamlakatda o'ziga xos muloqot madaniyatini aks ettiradi.

Har bir obrazli frazeologizm o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lib, aksariyat hollarda u real yoki xayoliy predmetdan kelib chiqadi. Demak, masalan, "baklusha urish" frazeologizmi "baklusha" ma'no yasovchi so'zi bug'doy yoki javdar unidan yasalgan mayda dumaloq nondir.

Biroq, barcha majoziy idiomalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirishga ega emas. Ularning ko‘pchiligi antik davrda paydo bo‘lgan va vaqt o‘tishi bilan yangi ma’noga ega bo‘lgan, ammo ularning kelib chiqishi allaqachon unutilgan.

Obrazli frazeologizmlarni boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki ular kelib chiqqan xalqning madaniyati va tarixini tavsiflaydi. Ko‘chma so‘zlarni to‘g‘ri tushunish va ishlatish uchun siz muloqot qilayotgan xalqning madaniyati, urf-odatlar va tarixini bilishingiz kerak.

Nutqda ko‘chma so‘z birikmalarining qo‘llanishi nutqning tinglovchiga yanada hissiy va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, u o‘z fikrlarini yanada aniq va aniq ifodalashga yordam beradi, chunki ko‘pincha frazeologik birliklar ko‘p qirrali ma’noga ega bo‘lib, so‘zlar bilan o‘ynash va tilni boshqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, obrazli frazeologizmlar nutq madaniyatimizning ajralmas elementi bo‘lib, ajdodlarimiz merosini asrab-avaylash, bu bilimlarni boshqalarga ham yetkazishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obidova, G. K. “Ingliz tilini o‘rganishda ekologik madaniyatni rivojlanishini ta’minlovchi omillar”. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(Special Issue 20), 2022y.124-129.
2. Обидова, Г. “Развитие экологической культуры в образовательных моделях развитых стран мира”. *Общество и инновации*, 2(10/S), 2021. 251-256.
3. Jurayeva Z.Q., “Specific features of language in the development of culture”. *Volume2/Specific issue 27.ISSN 2181-1784.*
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7353385> 192-196 pages. Tashkent. 25.11.2022.
4. Jurayeva Z.Q., “Improving listening skills at preschools and primary schools”. *Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari.* Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Fergana, 2022. 230-232 pages.

O`SMIRLIK YOSH DAVRINING O`ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSSIYATLARI VA BU DAVRDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Embergenova Gawhar Karimbaevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 19-sonli maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`smirlik davrining o`ziga xos xususiyatlari haqida va ushbu davrdagi yuzaga keladigan muammolar va ularning sabablari pedagogik va psixologik jihatdan tahlil qilingan va kerakli tavsiyalar berilgan

Kalit so`zlar: ontogenez, o`smirlik, shaxs, o`qish, muloqot, mehnat, do`slik.

O`smirlik inson shaxsining kamol topishida alohida o`rin egallaydi. U inson kamolotining muhim bosqichidir. O`smirlik davrida g`oyat katta ahamiyatga ega bo`lgan psixologik o`zgarishlar ro`y beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keying kamol topishi uchun zarur ta`lim –tarbiya ta`sirida barqaror, mustahkam iz qoldiruvchi, ijobiy xislatlar namoyon bo`ladi. Tabiiy ravishda izchil vujudga kelayotgan psixik o`zgarishlar, shakllanayotgan fazilatlar va shaxsning o`sishi, avvalo mazkur yoshdagi o`g`il-qizlar faoliyatlarining xususiyatiga bevosita bog`liqdir [157-b]

O`smirlik yoshi bu aynan o`smir o`g`il-qizlarning va ularning ota-onasi uchun jiddiy sinovli davrdir. Bu davrga kelib o`smirlar ko`pincha ota-onalari bilan, maktabdagi o`qituvchilari bilan janjallashishadi, ular kattalar tomonidan ko`proq mustaqillikka va minimal nazoratga erishishga harakat qilishadi. Bu tabiiy holatdir, ammo bu davrda ota-onalar o`zlariga nisbatan hurmatsizlik bilan shug`ullanishlari kerak. Ya`ni bolani mustaqillikka itilishi bu normal holat ammo ota-ona baribir nazorat qilib borishi lozim. Undagi salbiy hatti-harakatlarni, o`smirning xulq-atvori tobora muammoli bo`lib qoladigan vaziyatlarda, qiyin vaziyatni qo`ldan chiqmasdan oldin olish muhimdir.

Hozirgi kunda ota-onalar va pedgoglar zamonaviy o`smirlarning quyidagi asosiy muammolarga duch kelishmoqda:

1. O`smir elektron qurilmalarga berilib ketadi. Aksariyat o`smirlar doimiy ravishda mobil telefonlar va matnli xabarlarga e`tibor berishadi, ular uchun bu do'stlari bilan doimo aloqada bo`lish usulidir. Biroq, bu ularning hayotining boshqa jihatlariga, masalan, o`qish, uy atrofida yordam berish va o`z-o`zini rivojlantirishga xalaqit bermasligi kerak.

2. O`smir ota-onaga dushmanlik qiladi. Do'stlarning fikri oilaning fikridan ko`ra ko`proq qadrlanadi. Qanday bo`lmasin, xulq-atvorning asosiy me`yorlarini o`rnatish muhimdir. Sizning bolaga sizga nisbatan kechirimsiz xatti-harakatlarga toqat qilmasligingizni tushunishi kerak.

3. O'smirlar juda jizzaki va agressiv bo'lib qoladi. Bu ko'pincha bolaning jismoniy va hissiy o'zgarishlarining natijasidir. Taktikangizni o'zgartirishga harakat qiling - axloqiy va maslahat o'rniga, unga hamdardlik bildirishga harakat qiling. Bu sizga o'smiringiz bilan bog'lanish va halol muloqotga erishish imkonini beradi.

4. O'smir yolg'on gapiradi. O'smir sizga haqiqatni aytmasligi uchun ko'p sabablar bor. Masalan, katta mustaqillikka erishish yo'li sifatida ota-onalardan ba'zi faktlarni yashirish istagi. Farzandingiz o'z hayotining tafsilotlarini yashirganida, bu uning yomon kompaniyaga tushib qolganligi va insofsiz biznes bilan shug'ullanganligi haqida ogohlantiruvchi belgi bo'lishi mumkin. Bu, shuningdek, agar kerak bo'lsa, o'smir sizga yordam so'rab murojaat qilmasligini anglatishi mumkin. O'smir qanday muammolarni yashirayotganini tushunish kerak.

5. O'smir kechikib keladi. O'smirlar ko'pincha chegaralarni sinovdan o'tkazadilar va ko'pincha belgilangan komendantlik soatlarini ataylab buzadilar. Bir qator boshlashdan oldin, uning do'stlarining ota-onalari tomonidan belgilangan komendantlik soati haqiqatan ham siznikidan ancha kechroqmi yoki yo'qligini aniqlashga harakat qiling. Agar siz farzandingiz xavfli faoliyat bilan shug'ullanayotganidan xavotirda bo'lsangiz, ularni oqibatlar haqida ogohlantiring yangi paydo bo'lgan xavfli odatni buzish qoidalarini qo'llashga qodir ekanligingizga ishonch hosil qiling.

6. O'smir yomon do'stlarni tanlaydi. Sizning o'smir farzandingizning ba'zi do'stlari noto'g'ri kiyinadi va yomon ta'sir qiladi deb o'ylashingiz mumkin, ammo bu har doim ham tashvishga sabab bo'lavermaydi. O'smir do'stlarga juda bog'lanishi mumkin va ularga nisbatan har qanday tanqid shaxsiy tanqid sifatida keskin qabul qilinadi. Shuning uchun, ko'pincha o'z fikringizni juda qattiq bildirmaslik yaxshiroqdir. Albatta, agar siz bolangizning giyohvand moddalarni iste'mol qilishi yoki boshqa xavfli faoliyat bilan shug'ullanishidan xavotirda bo'lsangiz, erta aralashish muhimdir. Oila terapiyasi do'stlarning yomon ta'siriga yechim topishga yordam beradi.

7. Organizmdagi gormonal o'zgarishlarning kuchayishi tufayli o'smirlarning qarama-qarshi jins vakiliga qiziqishi ortishi tabiiy. Ota-onalar bolaga jinsiy tarbiyani o'zlari berishlari muhim. Internet va do'stlaridan noto'g'ri ma'lumot olishidan oldin.

O'smirlik davrida yetakchi faoliyat – bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir, o'smirlik davri muloqotning asosiy vazifasi – bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir, o'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. [2, 64-b]. Pedagoglar va ota-onalar shu jihatni inobatga olgan holda ular bilan to'g'ri munosabatni yo'lga qo'yishlari lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G`oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. T.: 2010 y. 298b.
2. M.G.Davletshin, Sh.Do`stmuhammedova, M. Mavlonov, S.To`ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O`quv metodik qo`llanma. T.:2004y 129b.
3. <https://minikar.ru/uz/schaste/problemy-voznikayushchie-u-podrostkov-problemy-podrostkov-kak-ponyat>

**ILOVA HODISASI KOMMUNIKATIV SINTAKSISNING TADQIQOT
OBYEKTI SIFATIDA**

*Xushvaqtova Guldon
SamDChTI magistranti*

Annotatsiya. Maqolada ilova konstruksiyalarning ingliz tilida ifodalangan sintaktik xususiyatlari ko`rib chiqiladi. Ilova hodisasiga ingliz tili sodda va murakkab gap tizimida til birligi sifatida o`rganiladi. Kommunikativ sintaksisning elementi sifatida ilova hodisasi bosh gapning semantik bo`linish vositasi sifatida qaraladi. Bosh gapning strukturasi soddalashtirib, ilova komponent matn tuzishning o`ziga xos usuli sifatida namoyon bo`lishi ta`kidlanadi.

Tayanch so`z va iboralar: asosiy ifoda, ilova konstruksiya, sintaksis, ilovali komponent, ilovali element, kommunikativ sintaksis, sintaktik aloqa, stilistik funksiya.

Odatda, ko`pchilik tilshunos olimlar og`zaki nutq sintaksisi va badiiy asarlar tilini o`rganar ekan, ilova hodisasini ham teng bog`lanishdan, ham tobe bo`g`lanishan farq qiluvchi o`ziga xos sintaktik aloqa turi sifatida ta`kidlaydilar.

Hozirgi davrda ingliz tili sistema sifatida o`ziga xos xususiyati dialogda qanday namoyon bo`lsa, monologda ham shunday namoyon bo`ladigan, tilning eksplikativ va implikativ tendensiyalarini tasvirlaydigan gapning funksional modellarining ma`lum bir to`plamlarini jalb qilmoqda. Bu bog`liqlikda parsellyatsiya yoki ilova hodisasi deb nomlangan yangi sintaktik hodisani tadqiq qilish zarurati tug`iladi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda yuqorida keltirilgan hodisalar mazmun-mohiyatining noaniqligi to`g`ri ko`rsatib berilgan. Bu, o`z navbatida bunday sintaktik xilma-xilliklar qaerdadir qo`shilib ketganligi va bir-biriga o`tganligi sababli, bir tomondan parsellyatsiya hodisasi, boshqa tomondan ilova hodisasi o`rtasidagi chegarani aniqlashda ma`lum bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Biz I.N.Kruchinin [3], V.D.Devkin [2] izidan borib, ilova hodisasi deganda gapning alohida nostandart qismi ko`rinishida mustaqil kommunikativ ma`noga

ega bo'ladigan gap bo'laklaridan birining ajralishi ro'y beradigan gap tuzish tamoyilidir.

I had one once. When they crossed the Don [Mitchell M.].

Sintaktik sathda ilova hodisasini gapning grammatik strukturasi va semantik mazmunini gapdan tashqarida sintaktik kuchaytirish uslublaridan biri sifatida ko'rib chiqish mumkin. Masalan:

I've been living with them for eleven years now. Like your own [Mansfield K.].

Til materialini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ilovali komponent sifatida turli sintaktik funksiyalarni bajargan holda gapning ikkinchi darajali bo'laklari namoyon bo'lishi mumkin. Eng avvalo ularga aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol talluqlidir.

Demak, ilova vazifasidagi aniqlovchi postpredikativ xarakterga ega bo'ladi. Ular ilova konstruksiyalarga sintaktik istiqbolning o'ziga xos lahzasini olib kiradi, butun gapga emotsionallik va ekspressiyani beradi. Aniqlanadigan ot bilan bir qatorda odatiy o'rnini egallamasdan birikuvchi ilovalar nuqtadan so'ng xabar berishi mumkin bo'lgan qo'shimcha, okkazonal belgi va sifatlarni ifodalagan holda antetsedent bilan distant pozitsiyada struktur-semantik aloqani saqlab qoladi.

Ilova konstruksiyaning semantik-stilistik funksiyasi bu holatda, shubhasiz, asosiy gapning egasini alohida ta'kidlashni ajratib ko'rsatishga shu tarzda ko'maklashadiki, ya'ni bunda ega ilova konstruksiyada ajralib turadi va takrorlanadi, qo'shimcha predikativlikni kiritadi, oldingi sodda gapni kengaytiradi va murakkab tipdagi yaxlit shakllangan sintaktik konstruksiya hisoblanadi [4; 152-157-b.]

Shu bilan birga birikuvchi ilovalar aniqlanadigan so'zga leksik o'xshash yoki o'xshash bo'lmasligi mumkin. Ta'riflanadigan so'zga bog'liq vaziyatda ular uning semantik strukturasi to'ldirib, kengaytirib va aniqlashtirib keladi.

The Germans only pressed us in one place. Farbers. On the right flank [Mitchell M.].

The sound comes. Intrusive, sort of domestic, not military at all [Mitchell M.].

We can learn a lot from this Martin. Perseverance, perseverance [Mansfield K.].

Leksik takror shaklidagi ilova emotsionallik, ekspressivlik, stilizatsiya (biror uslubga solish) ning muhim qo'shimcha axborotini beradi va bosh gap bilan bog'lanishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi [1; 182-183-b].

Misollarda ko'rinib turganidek, birikuvchi ilovalar predmet yoki shaxsga ancha aniq ta'rif berishga xizmat qiladi, shuningdek, so'zlovchi munosabatining bildirilayotgan xabarga emotsional baho berish vositasi hisoblanadi.

Faktik materialni tahlil qila turib, shunday xulosaga keldikki, ilova komponent ilova sifatida eng ko'p takrorlanib turadi. Biz bunday tez-tez sodir bo'lish ilova va birikish hodisalarining o'xshashligini izohlab berishi mumkin degan qarorga kelamiz. Haqiqatda ilova vositasida predmet ta'riflanadi va aniqlanadi, xuddi ilova hodisasida bo'lgani kabi yetishmaydigan ma'lumotni qo'shimcha qilib, allaqachon aytilgan gapni aniqlaymiz, ta'kidlaymiz va ta'riflaymiz. Shunday ekan, biz bu hodisalar semantikasiga ko'ra o'xshashligini ta'kidlashimiz mumkin, ular bosh gapning mazmunini to'ldiradi, aniqlaydi va ta'riflaydi. To'ldiruvchini ilovali komponent sifatida ko'rib chiqamiz. Agar bosh gapning kesimi vositasiz to'ldiruvchili o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, ilovali komponent predlogli to'ldiruvchi bilan ifodalangan bo'lishi mumkin.

Ilovali to'ldiruvchi qo'shimcha va aniqlash ma'nosiga ega bo'ladi, bundan tashqari ular ilovali komponentning tarkibida bo'lgan axborotni ajratib ko'rsatish va ta'kidlash vositasi hisoblanadi. Gapning asosiy kesimi to'ldiruvchida ko'pincha fe'l kesimlarning mazmuni tushunarsiz, ba'zan esa yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmagan kuchga ega bo'ladi. Bu (ilojsiz bo'lgani kabi) ilovali komponentlarning funksional yo'nalganligini – uning ajralish, to'ldirish mazmunini, oldingi gapning mazmunini tushuntirishni juda yaxshi ochib beradi. Illyustrativ materialni ko'rib chiqib, ilovali komponent to'ldiruvchi sifatida (kam chastotali) eng kam sodir bo'ladi, degan xulosaga kelamiz. To'ldiruvchi, xuddi gapning doimiy bo'laklari kabi fe'l valentligiga bog'liq. Shu sababli gapning fakultativ bo'laklaridan farqli ravishda to'ldiruvchi kam qo'llanadi.

Tahlil qilinayotgan til materialida predlogli otlar bilan ifodalangan hol guruhi ifodalangan. Ushbu guruh quyidagi funksiyalarni bajargan holda ilova konstruksiyaning tobe komponenti sifatida keng qo'llanadi:

- a) payt va harakat joyini (o'rmini) aniqlashtiradi;
- b) harakat bajarish usullarini detallashtiradi;
- c) harakat ro'y beradigan holatni ta'kidlab ko'rsatadi;
- d) harakat, holat yoki belgini aniqlashtirib keladi.

Demak, ilovali hol bosh gapdagi yetishmaydigan axborotni ajratib, aniqlashtirib, to'ldirib keladi. Ular muhim axborotni ajratish va ta'kidlash vazifasini bajaradi. Ilova komponent qandaydir muhim hodisani xabar berganligi sababli, butun gap emotsional xarakterga ega bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ilova hodisasi o'ziga xos shakl sifatida matnda yuzaga kelishi mumkin, ba'zi hollarda esa uni nutq universalizatsiyasi deb hisoblashga ham imkoniyat berish kerak. Ilova hodisasi gap tuzishning formal-struktur va intonatsion-semantik aspektlarining nisbiy mustaqilligini, til va nutq birliklarining assimetriyasini yaqqol ajratib ko'rsatadi. Kommunikativ

sintaksisning elementi sifatida ilova hodisasi bosh gapning semantik bo‘linish vositasi sifatida qaraladi. Chunki ilova komponentlar logik urg‘uni beradi va rematik elementlar rolini bajaradi, ular, shuningdek, nutq ta’sirchanligi (ekspressivligini) vositasi ham sanaladi. Bosh gapning strukturasi soddalashtirib, ilova komponent matn tuzishning o‘ziga xos usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ va ekspressiv (ta’sirchan) funksiyasi tufayli ilova komponent nutqning turli uslublarida qo‘llanishi mumkin.

Ilova hodisasi bosh gapning alohida komponentlarining til normalari, aniq shakllangan gap bo‘laklari sifatida yaratiladigan tuzilmalar nuqtai nazaridan nostandart oqibatlarga olib keladigan struktur xilma-xilligini namoyon bo‘lishiga imkon tug‘diradi. Ilova komponentlar gapning sintaktik va funksional istiqbolini ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. М., 1990. 300 с.
2. Девкин В. Д. Немецкая разговорная речь. М., 1979. 254 с.
3. Кручинина И. Н. Присоединение [Электронный ресурс]. URL: <http://tapemark.narod.ru/les/399b.html> (дата обращения: 01.02.2016).
4. Mamasoliev I.U. Structural-semantic complication of speech in german with the participation of connecting structures // Vestnik tadjikskogo natsionalnogo universiteta. Seriya filologicheskix nauk, №4. ISSN 2413-516X. –Dushanbe, 2022. –S. 152-157.
5. Mansfield K. The Doll’s House and Other Stories. Penguin books, 1992. 64 p.
6. Mitchell M. Gone with the Wind. Oxford university press, 1998. 1441 p.

KALANCHOE O'SIMLIGINING TABOBATDA QO'LLANILISHI**S.Sh.Do'saliyeva***Farg'ona davlat universiteti Kimyo kafedrası o'qituvchi*

Kalanxoe o'simligi toshyorardoshlar oilasiga mansub sukkulent o'simliklar turkumi bo'lib, ularni Madagaskar, tropik Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo va tropik Janubiy Amerikada 125 turi tabiiy holda o'sadi. Aksariyat turlari xona o'simligi sifatida o'stiriladi. Kalanxoe turkumi vakillari sukkulent o'simliklar bo'lib, ularning kattaligi bir necha sm dan 3-4 metrgacha yetadi. Ularning orasida ko'p yillik o'tsimon formalar bilan birgalikda liana va epifitlar ham uchraydi. Aksariyat turlarining barg chetida va to'pgulida ajratuvchi kurtakchalar hosil bo'lib, ulardan yangi o'simlik hosil bo'ladi. Barglari turli xil shaklda bo'lib, odatda poyada qarama-qarshi holatda bo'ladi. Ba'zan esa 3 tadan bo'lib halqa hosil qiladi. Juda kamdan kam holatda ketma-ket joylashishi mumkin. Barglari suvli, oddiy, butun yoki chetlari qirqilgan, tishli bo'ladi.

To'pguli terminal holatda bo'lib, soxta soyabon hosil qiladi. Tez-tez gullaydi. Gullari to'rt qismli, tik turuvchi, yetarlicha yirik, gultojibarglari oq, pushti, siyohrang, yashil, sariq va qizil rangda bo'ladi. Qushlar yordamida changlanadi. Changchilari sakkizta bo'lib, ikki halqada joylashgan.

Kalanxoening muhim turlaridan biri [*Kalanchoe daigremontiana*](#) bo'lib, bu turning vatani Madagaskar. Bo'yi 50 sm gacha yetuvchi sukkulet o'tsimon o'simlik. Barglarining uzunligi 20 sm gacha yetadi. Ingichka tuxumsimon yoki ingichka uchburchak shaklda, qalin, kulrang-yashil rangda, pastki tomonida siyohrang dog'lari mavjud. Barglarning cheti tishli bo'lib, tishchalar oralig'ida ajratuvchi kurtakchalar joylashgan bo'ladi. Ushbu kurtakchalar tuproqqa tushishi bilan tezda una boshlaydi. 1925 yildan Yevropada xonaki o'simlik sifatida o'stiriladi. Degremon kalanxoesi dorivor o'simlik sifatida juda ham qadrlanadi. O'simlik bargini ezib, tomchilarini shamollashda burunga tomizishingiz mumkin.

Dorivor xususiyatlari uchun Kalanchoe "hayot daraxti" nomini oldi. Madagaskar aholisi o'simlikning dorivor imkoniyatlarini uzoq vaqtdan beri kashf etgan va ulardan keng foydalanilgan.

Kalanchoe pinnate barglaridan olingan sharbat terini ham, shilliq pardalarni ham bezovta qilmasdan, yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Shuning uchun u shilliq pardalar va shikastlangan to'qimalarning yangilanishini rag'batlantirish uchun stomatologiya va ginekologiyada keng qo'llanilishini topdi. Stomatologiyada kalanxoe shirasi gingivitlar, stomatitlar va parodontitni davolashda applikasiya, aerozol ingalyatsiya holida ishlatiladi. Xeylitlarda, lab bichilganda va milk absesslarni davolashda kalanxoe malhami ishlatiladi.

Kalanchoedan foydalanish ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, migrenlar, yuqumli kasalliklar, gripp, bo'g'uvchi yo'tal uchun ham tavsiya etiladi. Akne, so'gal va furunkullarni davolashda samarali.

Ezilgan barg tish og'rig'idan xalos bo'lishga yordam beradi. Bu o'simlikdan olingan sharbatning tasdiqlangan dorivor xususiyatlari uni dorixonalarda xarid qilish mumkinligi bilan ham tasdiqlanadi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, ushbu preparat bilan davolanish faqat shifokor bilan maslahatlashgandan keyin boshlanishi mumkin. Bu yallig'lanish jarayonini sezilarli darajada kamaytirishga va tish go'shtidan qon ketishini kamaytirishga imkon beradi, jarohatni davolash jarayoni sezilarli darajada tezlashadi. Ginekolog va pediatrlar emizish vaqtida ko'krak uchlarida yoriqlar paydo bo'lganda, Kalanchoe sharbati asosidagi mahsulotlardan foydalanishni tavsiya qiladi. Emizikli onaning ko'krak uchlariga 2-3 tomchi Kalanchoe sharbati surtilishi 4-5 kun ichida ularning yoriqlaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Ushbu dorivor preparatlar, malhamlar, shuningdek, o'simlikning sof shaklida sharbati shifo jarayonini tezlashtiradi. Ginekologlar tug'ruq vaqtidagi eroziya va zararni (to'qimalarning yorilishi) davolashda ham malhamlarni tavsiya qiladilar. Oftalmologiyada mutaxassislar turli kasalliklarni - keratit, eroziya, blefarit, turli xil kon'yunktivit, shikastlanishlar va ko'z kuyishlarini davolash uchun Kalanchoe asosidagi preparatlarni tavsiya qiladi. Viruslar va bakteriyalar sabab bo'lishi mumkin bo'lgan sars, gripp va boshqa lor kasalliklarida Kalanchoe davolash uchun ham, profilaktika sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Dermatologiyada ham ushbu vositani va uning hosilalarini qo'llashingiz mumkin. Ushbu uy gulining shifobaxsh xususiyatlari va undan turli xil dori-darmonlarni qanday qilib to'g'ri tayyorlash haqida gapirganda, Kalanchoening barcha navlari davolanishga mos kelmasligini ta'kidlash kerak. Qoida tariqasida, faqat ikkita tur qo'llaniladi: Kalanchoe pinnate va Kalanchoe Degremontiana.

Kalanchoe sharbati tarkibida eng foydali moddalar mavjud. U turli xil biologik faol moddalarni o'z ichiga oladi: flavonoidlar, fermentlar, taninlar, pektinlar, kislotalar va boshqalar. Sharbat barglar va kurtaklardan olinadi. Kalanchoe asosidagi preparatlar allergiya, ovqatlanish buzilishi, qichishish, tanadagi turli reaksiyalarni keltirib chiqarishi, o'zingizni yomon his qilishingiz va hokazo. Shuning uchun davolanish jarayonida tananing umumiy holatini kuzatib borish kerak va agar tavsiflangan muammolar paydo bo'lsa, davolanishni darhol to'xtatish kerak. Kalanchoe malhami ko'plab dorixonalarda sotib olinadigan vositadir. Biroq, u o'simlikdan uyda ham tayyorlanishi mumkin. Uyda tayyorlangan malhamni varikoz tomirlari bilan oyoqlarga surtish mumkin. Xulosa

qilib aytganda, bunday dorivor xususiyatlarga ega bo'lgan o'simlikni har bir xonadonda o'stirish foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Da Silva S.A., Costa S.S., Mendonca S.C., Silva E.M., Moraes V.L., Rossi-Bergmann B. Therapeutic effect of oral *Kalanchoe pinnata* leaf extract in murine leishmaniasis – Acta. Trop. 1995, 60(3), 201-210.
2. Волжанова М.И., Байльман Р.А., Суслина С.Н., Быков В.А.
3. Каланхоэ перистое и дегремона: химический состав, применение в медицине (обзор) - Вопросы биологической, медицинской и фармацевтической химии 2010, 8, 7, 14-21.
4. S.N. Maxsudov, G.R. Shukurova “Bolalar stomatologiyasi”. Toshkent 2008-yil. 97-bet.
5. [4.https://agro_market.net/news/tips_and_advice/lechebnye_svoystva_kalankhoe/](https://agro_market.net/news/tips_and_advice/lechebnye_svoystva_kalankhoe/)

SANOAT ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINING AMALDAGI HOLATI VA HUDUDIY TAHLILI

Mirzaolimova Dilraxon Olimjon qizi
Andijon mashinasozlik instituti magistranti
dilrabomirzaalimova@gmail.com

Karimova Muyassarxon Abdqayumovna
AndMI Gumanitar fanlar kafedراسi mudiri

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakat iqtisodiyotida ulkan ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Xususan, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda ham qator ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uning sanoat jihatdan rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda mavjud sanoat korxonalarini faoliyatini tubdan yaxshilash va yangi korxonalarini tashkil etish masalalari hozirgi kundagi dolzarb masalalar qatoriga kiritilgan. “O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida”gi Prezident Qaroriga muvofiq, “Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va

kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish" ishlari maqsad qilib qo'yilgan [1].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qaror va farmonlar ijrosini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Bunga yaqqol misol tarzda Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari tomonidan 2017-2022-yillarda hududlar iqtisodiyotini sanoatlashtirish dinamikasi va tendensiyalari tahlilini ko'rib chiqishimiz mumkin. Unga ko'ra, mazkur davrda mamlakat sanoati jadal rivojlandi: 2017-2022-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 134,2 foizga o'sib, yalpi ichki mahsulot o'sishidan (129,5 foiz) yuqori ko'rsatkichni qayd etdi [2].

Andijon, Namangan, Xorazm, Jizzax, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, investitsiya va tadbirkorlik faolligini (asosan, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, kauchuk va plastmassa, qurilish materiallari, elektron qurilmalar, elektrotexnika ishlab chiqarish, avtomobilsozlik, metallurgiya) rag'batlantirish hisobiga sanoat tarmog'ida hududlar kesimida yuqori o'sishga (1,4-1,9 baravar) erishildi. Mahalliy resurslar va hududlar salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy shakllari keng joriy etildi. Natijada 2022-yilga kelib mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishida 2017-2022-yillarda tashkil etilgan 20 ta erkin iqtisodiy zonalarning ulushi 4,9%, 506 ta klasterning ulushi 5,2%, 317 ta kichik sanoat zonasining ulushi 1,2% gacha oshdi.

Shuningdek, hududlar sanoatini transformatsiyalash va diversifikatsiyalash borasida ham bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. Quyida ularni ko'rib chiqamiz:

- mamlakatimizning 10 ta viloyati (Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari) YaHM tarkibida sanoat tarmog'ining ulushi ortdi;

- aksariyat hududlarning (Andijon, Jizzax, Xorazm, Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo viloyatlari) qayta ishlash sanoatida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning hissasi oshdi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi yanada diversifikatsiyalashdi;

- sanoatning rivojlanish darajasi past bo'lgan Buxoro, Jizzax, Namangan, Xorazm viloyatlarida aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish respublika parametriga yaqinlashib, mintaqalararo nomutanosibliklar qisqardi.

Qolaversa, Respublikamizda zamonaviy innovatsion tuzilmalarni rivojlantirish bo'yicha ham erishilgan ijobiy natijalar samarasi tufayli hozirda mamlakatimizda 22 ta erkin iqtisodiy hududlar, 114 ta kichik sanoat zonasi, 7 ta texnopark, 415 ta klaster mavjud [3]. Oxirgi uch yil ichida ushbu tarmoqda ishtirok

etayotgan korxonalarining ishlab chiqarish hajmi uch barobar oshib, 43 trln. soʻmni tashkil etdi. Bunda eng katta ulush klasterlarning hissasiga toʻgʻri keldi. 2021 yilga kelib, ushbu tuzilmalarning sanoatdagi ulushi 9,4 foizni tashkil etdi. Oʻrta muddatli istiqbolda mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, yengil va oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika kabi ustuvor tarmoqlarda yangi hududiy ishlab chiqarish tuzilmalari tashkil etiladi.

Qisqa qilib aytganda, 2017-2022-yillarda Respublikada mintaqaviy siyosat boʻyicha amalga oshirilgan samarali islohotlar natijasida hududlarning sanoat salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga erishildi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, kelgusida hududlar sanoatini rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqarish omillari (inson kapitali, resurs tejankor texnologiyalar, innovatsiyalar va boshqalar) samaradorligi tufayli sifat oʻzgarishini taʼminlashdan iborat boʻlishi lozim.

A.Ortiqov va M.Isakovlarning “Industrial iqtisodiyot” kitobida sanoat tushunchasi quyidagicha tavsiflanadi [4]: “Sanoat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan taʼminlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sogʻliqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bogʻliq. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori boʻlsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli boʻladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi boʻlgan ishchilar sinfini oʻzida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band boʻlgan xodimlarning soni koʻpayadi, ularning bilimi va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga koʻtariladi.

Sanoat qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan taʼminlash orqali fermer, shirkat, dehqon xoʻjaliklarini va boshqa shakllarda faoliyat koʻrsatayotgan subʼektlarni iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga koʻtarishga, shahar bilan qishloq oʻrtasidagi muhim tafovutlarni yoʻqotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi”.

Lekin Davlat statistika qoʻmitasining mehnat bozori toʻgʻrisidagi 2022-yil 3-chorak maʼlumotlariga asosan, sanoatda band boʻlgan aholi soni 1851,7 ming kishini tashkil etdi [5]. Vaholanki, qishloq xoʻjaligi, oʻrmon va baliq xoʻjaligi sohasida band boʻlgan aholi soni esa 3246,7 ming tani tashkil etgan boʻlib, uning sanoatda band boʻlgan aholi sonidan ulushi koʻproq. Rivojlangan mamlakatlarda esa, sanoat ulushi koʻproqni tashkil etadi. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va yangi sanoat korxonalarini tashkil etish orqali esa aholi bandligini oshirishga va

turmush darajasining oshishiga erishish mumkin. Va shu sababli, Respublikamizda ham sanoat tarmoqlarida band bo'lgan aholi sonini qishloq xo'jaligida band aholi sonidan oshirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ 72-son, 30.12.2021, <https://lex.uz/uz/docs/-5801123>
2. "Hududlar iqtisodiyotini sanoatlashtirish dinamikasi va tendensiyalari", Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tahlili, Toshkent 2023
3. "Zamonaviy innovatsion tuzilmalarni rivojlantirish natijalari", Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tahlili, Toshkent 2023
4. A.Ortiqov, M.Isakov "Industrial iqtisodiyot", o'quv qo'llanma, T., "Iqtisodiyot", 2019, 14-15-b.
5. Davlat statistika qo'mitasining mehnat bozori to'g'risidagi 2022-yil 3-chorak ma'lumoti

ДАВЛАТ ИНСТИТУТЛАРИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: ҒОЯДАН РЕАЛИЗАЦИЯГА.....

Султонов Махмудбек Хикмадбек ўғли
Чирчиқ давлат педагогика университети
4 курс талабаси

Аннотация. Ушбу мақолада рақамли технологияларнинг келиб чиқиши, ҳозирги кундаги ҳолати ва бошқарувда жорий этишнинг хориж тажрибаси чуқур таҳлил қилиб ўрганилган. Бошқарув фаолияти самарадорлигини оширишда рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятлари ва унинг афзалликлари илмий жаҳатдан тадқиқ этилган. Бошқарувда рақамли технологияларни қўллаш ва уларнинг самарадорлигини баҳолаш имкониятлари назарий жиҳатидан ёритиб берилган.

Калит сўзлар: рақамли технология, бошқарув, бошқарув фаолияти, самарадорлик, иқтисодий самарадорлик, рақобат, менежмент, давлат хизматлари, рақамли эгизаклар, мослашув, рақамли ҳукумат, институционал ва ҳуқуқий тўсиқлар, потенциал харажат.

Аннотация. В данной статье с углубленным анализом изучается происхождение цифровых технологий, их текущее состояние и зарубежный опыт внедрения в менеджмент. Научно исследованы возможности

использования цифровых технологий и их преимущества в повышении эффективности управленческой деятельности. В менеджменте возможности применения цифровых технологий и оценки их эффективности рассматриваются в теоретическом плане.

Ключевые слова: цифровые технологии, менеджмент, управленческая деятельность, результативность, экономическая эффективность, конкуренция, затраты.

Annotation. in this article, the origin of digital technologies, its current state and the foreign experience of implementation in management are studied with an in-depth analysis. The possibilities of the use of digital technology and its advantages in improving the effectiveness of management activities have been scientifically researched. In management, the possibilities of applying digital technologies and assessing their effectiveness are covered in theoretical terms.

Keywords: digital technology, management, management activities, efficiency, economic efficiency, competition, cost.

Кириш. Давлат бошқаруви ва давлат хизматларини кўрсатиш соҳаларида рақамли технологиялар ва платформа ечимларини жорий этиш масалаларини кўриб чиқиш, шунингдек, жамиятда давлат бошқарувининг асосий моделлари эволюциясини таҳлил қилиш ва давлат институтларини рақамлаштиришни ривожлантириш истиқболларини баҳолаш, мавжуд қийинчиликлар ва таҳдидларни ҳисобга олган ҳолда. Давлат бошқаруви анъанавий равишда ижтимоий-иқтисодий тизимнинг энг консерватив институтларидан бири бўлиб, у учун ҳар қандай инновацияларни қабул қилиш узоқ вақт мослашиш ва ўз функцияларини бажариш учун зарур бўлган янгиликларни тан олиш билан боғлиқ. Шу билан бирга, тобора кўпайиб бораётган соҳалар ва жараёнларни рақамлаштиришнинг объектив тенденциялари нафақат аниқ операцион вазифаларни ҳал қилиш жараёнини тезроқ бекор қилиш, балки давлат хизматчиларининг ваколатини ошириш учун рақамли давлат бошқарувиға ўтиш зарурлигини тезда англамоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномасида “Рақамли технологиялар нафақат маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади, ортиқча харажатларни камайтиради. Шу билан бирга, мени жуда қаттиқ ташвишга соладиган ва безовта қиладиган энг оғир иллат – коррупция балосини йўқотишда ҳам улар самарали воситадир. Буни барчамиз теран англаб олишимиз даркор. Давлат ва жамият бошқаруви, ижтимоий соҳада ҳам рақамли технологияларни кенг жорий этиб, натижадорликни ошириш, бир сўз билан айтганда, одамлар турмушини кескин яхшилаш мумкин”, -дея таъкидлаб ўтган эди [1].

Ахборот-коммуникация технологиялари жамиятнинг ахборот ресурсларидан фойдаланиш жараёнининг энг муҳим таркибий қисми ҳисобланади.

Шу билан бирга, давлат органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш, ҳужжатларни қоғоз шаклидан электрон шаклига тўлиқ ўтказиш ҳамда ортиқча овозагарчиликларни олдини олиш мақсадида давлат органлари фаолияти ва улар томонидан кўрсатиладиган давлат хизматларини рақамлаштиришнинг қамровини янада кенгайтириш масаласи муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистон ўз олдига кучли демократик, илғор ривожланган давлатлар сафидан мустаҳкам ўрин эгаллашни мақсад қилган. Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилга келиб, Глобал инновацион индекс рейтингини бўйича жаҳоннинг 50 та илғор мамлакати қаторига кириши – бош вазифа. Кейинги йилларда Ўзбекистон халқаро ҳамжамият томонидан эътироф этилмоқда. Хусусан, нуфузли “The Economist” журнали 2019 йилда дунёнинг икки юзга яқин давлатлари орасидан Ўзбекистонни “Йил мамлакати”, яъни дунёда энг кўп яхши тарафга ўзгарган мамлакат деб топди. Давлат раҳбарининг Олий Мажлисга Мурожаатномасида 2020 йилнинг “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”, деб эълон қилиниши ҳамда шу бўйича “Йўл харитаси”нинг ишлаб чиқилиши, келаси беш йил ичида рақамли иқтисодиётга ўтиш вазифасининг қатъий мақсад сифатида белгилаб қўйилгани, нафақат халқаро экспертлар ҳамжамияти томонидан қизғин кутиб олинди, балки бугунги пандемия даврида ҳам ниҳоятда рационал қарор бўлганини кўрсатди. Рақамли иқтисодиёт – янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари яратиш ҳамда уларни кундалик ҳаётга жорий этиш орқали мавжуд иқтисодиётни янги тизимга кўчиришдир. Рақамли иқтисодиёт – иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларнинг рақамли технологияларини қўллаш асосида амалга ошириш мумкин бўлган тизим[4].

Методология. 2020 йилнинг “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб номланиши Ўзбекистоннинг ривожланиш тарихидаги илк инқилобий давр бошланиши десак, муболаға бўлмайди. Мамлакатимизда соғлиқни сақлаш тизимида олиб борилаётган ислохотлар самарадорлигини янада ошириш, соҳага илғор ва рақамли технологиялар ҳамда сифат менежментини жорий этиш, тиббиёт муассасалари имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш мақсадида ПҚ-4847-сонли қарори қабул қилинди [5]. Рақамли иқтисодиётнинг келиб чиқиши, назарий асослари А. Форк, Л.В. Лapidус, Д.Белл, М.Кастелс, В.Десоуза, Д.Макконаз, М.Линч, С.Дирикан, С.Халфорд, М.Саваж М.А.Шнепс-Шнеппе, Д.Е. Намиот, П.Виня, М.Кейн, Н.Поппер, Е.Филиппов сингари хорижлик иқтисодчи олимларнинг

илмий тадқиқотларида атрофлича ёритилган. Л.В. Лapidус ўз тадқиқотларида рақамли технологиялар эволюцияси таъсири остида бизнес моделларини ўзгартириш нуқтаи назаридан электрон бизнес ва электрон тижоратни бошқариш бўйича назарий қоидалар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган [6]. Добролюбова, Е.И., Южаков, В.Н., Ефремов ва бошқалар “Рақамли технологияларни давлат бошқарувидаги роли” номли методик қўлланмада давлат бошқарувини натижаларга йўналишини таъминлаш учун рақамли технологиялардан фойдаланиш имконияти ва зарурлигига эътибор қаратганлар [6]. Ўзбекистонлик олимлардан С.С.Фуломов, Р.Ҳ.Аюпов, Г.Р.Болтабоева, Т.Шодиев, Т.З.Тешабаев, З.М.Отақузиёва, Ш.Мустафақулов, Р.С.Урунов, М.Ю.Жуманиёзова, З.М.Қурбонов, У.М.Асраевнинг ишларида рақамли иқтисодиётнинг назарий асослари баён этилган. Хусусан, Ш.Мустафақуловнинг илмий изланишларида ривожланишнинг янги тенденция ва хусусиятлари атрофлича ёритилган [4]. 2020 йил 5 октябрда «Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Президент фармони қабул қилинди. Ушбу стратегия қисқа ва узоқ муддатли истиқболда рақамли инфратузилмани, электрон ҳукуматни, рақамли иқтисодиётни ва IT-таълимни ривожлантиришнинг асосий устувор йўналишларини белгилаб берди. [7]

Натижалар. Жамиятни давлат бошқарувининг асосий моделлари эволюцияси таҳлили ўтказилди ва мавжуд таҳдидларни ҳисобга олган ҳолда давлат институтларини рақамлаштиришни ривожлантириш истиқболлари баҳоланди. Ҳар қандай рақамли маълумотлар қайта ишланади ва ҳужжатлаштирилади. Олинган натижалар мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсат режасини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш учун ишлатилади. Ушбу режанинг амалга оширилиши натижасида давлатнинг молиявий аҳволи ривожланмоқда. Ҳозирги вақтда давлатнинг маъмурий функцияларидаги ўзгаришлар ва фуқаролик жамиятига бир қатор омиллар таъсир қилади. Электрон лицензиялаш тизимининг ривожланиши туфайли 100 дан ортиқ лицензиялаш ва рухсат бериш процедуралари оптималлаштирилди. Бу корхоналарга 4 миллион долларгача, давлат идораларига эса 1,5 миллион долларгача бўлган махсус қоғоз шакллари бекор қилинишига имкон берди. Фуқароларга идентификация карталарини (ID-карта) бериш жорий этилди. Бу фуқароларга электрон давлат хизматларидан фойдаланишни соддалаштиришга имкон берди.

Соғлиқни сақлаш соҳасини рақамлаштириш кўлами кенгайтирилиб, «электрон поликлиника» тизимини татбиқ этишни, республика тиббиёт марказлари ва уларнинг ҳудудлардаги филиаллари ўртасида телемедицина

тизимини ишга тушириш, пневмония ва кўкрак беzi саратонини дастлабки босқичларида ташхислашда ақлли технологияларни тажриба асосида жорий этиш режалаштирилган. Барча ҳудудларида ИТ-паркларни ташкил этиш, бу борада малакали кадрлар билан таъминлашни назарда тутувчи 220 дан ортиқ устувор лойиҳаларни амалга ошириш бошланди.

40 дан ортиқ ахборот тизимлари билан интеграциялашган геопортални ишга тушириш, жамоат транспорти ва коммунал инфратузилма учун ахборотни бошқариш тизимини яратиш, ушбу тажрибани бошқа ҳудудларга тарқатиш билан ижтимоий соҳани рақамлаштиришни назарда тутувчи "рақамли Тошкент" комплекс дастури амалга оширилмоқда.

Хулоса. Давлат секторини рақамлаштиришга қизиқиш икки мақсад билан боғлиқлиги аниқланди:

- 1) миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш ва
- 2) тавсияларида акс эттирилган аҳоли учун сифат жиҳатидан янги турмуш даражасига эришиш рақамли ҳукуматларни ривожлантириш ва "сунъий интеллект бўйича тавсиялар" ҳукуматлараро стандарти тўғрисида.

Рақамли технологиялар вазирлиги томонидан 2022 йилда Ягона порталда жорий этилган давлат хизматлари сони 370 тага етказилган. 2023 йилда яна қўшимча 200 та электрон хизматлар жорий қилиниши режалаштирилмоқда. "Электрон ҳукумат"нинг асосий принципларидан бири электрон хизматларни "бир дарча" тамоили асосида, яъни электрон ҳамкорлик асосида кўрсатиши белгиланган бўлиб, ушбу йўналишда фуқаролардан 70 дан ортиқ ҳужжат ҳамда маълумотномаларни талаб қилиш амалиёти бекор қилинди. 38 турдаги хизматлардан фойдаланишда электрон рақамли имзо билан тасдиқлаш талаби бекор қилинди. Электрон ҳукумат куйидагиларни таъминлайди: маъмурий бошқарув сарф харажатини камайтиради ва самарадорлигини оширади; жамоа ва ҳукумат ўртасидаги ўзаро муносабатларни тубдан ўзгартиради; демократияни такомиллаштириш ва халқ олдида давлат маъсулиятини ошириш. Фуқаролар бевосита виртуалтизим орқали ҳукумат билаи мулоқот қилиш имконига эга бўладилар. Ҳукумат органлари ва жамоат ташкилотлари ва жойларида терминаллар ўрнатилган бўлиб, ҳукумат хизматлари ҳақидаги маълумотни олиш мумкин. Электрон ҳукуматнинг жамоатчилик вазифаси - давлатни тижорат билан, давлатни фуқаролар билан, ҳамда давлатнинг давлат таеаруфидаги органлар билан ўзаро муносабатларини ташкил этишдан иборат. Ягона сертификатлаштирувчи ахборот тизим асосан иккита томон, яъни гувоҳнома берувчи ва олувчи томонлар учун умумий онлайн тизим ҳисобланади. Тингловчилар гувоҳномаларини электрон шаклда олиш имконияти пайдо

бўлади. Тизимда фойдаланувчининг бир нечта ўқув курслари бўйича ўқиганлиги тўғрисидаги архив маълумотлар жойлашади.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, интерактив хизматлар электрон тижорат тизимини амалда жорий этилиши мижоз ёки буюртмачи учун бир катор афзалликларни яратса, хизматни ёки маҳсулотни таклиф қилувчи корхона ва ташкилот учун ҳам иқтисодий самара келтиради. Ҳукм сураётган бозор иқтисодиёти шароитида хизмат ва маҳсулотлар бозорида рақобат мунтазам кучайиб боради. Интерактив хизмат турлари мунтазам тарзда ошиб боради. Мазкур ишланманинг амалий тадбиқи мамлакатнинг ижтимоий иқтисодий ривожланишига, давлат бошқарув идоралари фаолиятидаги интерактив хизматларда шаффофликни таъминлашда муносиб ҳисса қўшади. Давлат бошқарувини рақамлаштириш орқали очиклик ва шаффофликни таъминлаш Давлат бошқарувидаги маълумотларнинг жамоатчилик учун очиклиги унинг коррупцияга қарши курашишдаги аҳамиятини янада оширади. Бугунги кунда одамлар озиқ-овқат маҳсулотларига буюртма бериш учун ижтимоий тармоқлар, мессенжерлар, айниқса, телеграм ботларидан фаол фойдаланмоқда. Турли интернет-дўконлар, электрон тўлов тизимлари ҳам фаол ривожланиб бормоқда. Демак, фуқароларимиз электрон битимларни амалга оширишга ишонишмоқда. Фақат ҳозирги кунда фойдаланувчилар катта харажатлар талаб қилмайдиган кичик битимларни амалга ошираётгани, ўртача харид ҳажмини оширишга эса, унчалик тайёр эмаслиги ҳам рост. Демак, навбатдаги масала ўртача ва йирик иқтисодий битимлар ҳамда молиявий операцияларни рақамли технологиялар орқали амалга оширишни ривожлантиришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 йил 24 январь. // Манба: www.president.uz/uz/lists/view/3324
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2021 йил 29 декабрь // Манба: www.president.uz
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 464 б.
Bundan tashqari, laboratoriya soatlari qisqarishi hisobidan murakkab tajribani o'tkazish juda muammoli bo'ladi. Pedagogik tajriba-sinov tahlili sifatida, laboratoriya faoliyatini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha sarflanadigan eng yuqori vaqtni individual o'lchash operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan ko'pchilik o'lchovlar ikki yoki uch baravar cheklashga majbur qiladi, bu talabalarning bilim darajasiga tabiiy ta'sir qiladi.

Laboratoriya ishiga mustaqil tayyorgarlikda talabalarni mustaqil ravishda o'z-o'zini rejalashtirishni ta'minlash, tavsif nazorat masalalarini o'z ichiga oladi. Ulardan ba'zilar o'lchov usulining mohiyatini yaxshiroq o'zlashtirish va ish davomida olingan natijalar haqida chuqur tushunish uchun mo'ljallangan. Nazort savollarini tuzishda talabalarning fizika ta'limga pedagogik yo'nalishi ham hisobga olindi.

Tahlil va natijalar. Fizika praktikumidagi qurilmalarning batafsil tavsifi, mualliflar bir vaqtning o'zida talabalarning laboratoriyaga bo'lgan munosabatini mustaqil, eksperimental tadqiqotlar olib borishini maqsad qilishdi.

Ba'zi hollarda talabalar laboratoriya ishlari rejasi talabalari tomonidan qurilmalar o'rnatish va tanishishdan keyin taqdim etiladi.

Ushbu praktikum quyidagi muammolarni ko'rib chiqadi.

1. Fizik hodisalarni o'rganish: Yorug'likning yutilishi, Polyarizatsiyaning tekislikda aylanishi, Yorug'lik sinishi,• Yorug'lik difraktsiyasi.

2. Fizik tayyorgarlik va uskunalar: Optik jihozlar, Vakuimli va ventilli jotoelementlar.

3. Fizik kattaliklarni aniqlash: Difraktsion panjara yordamida yorug'lik to'lqin uzunligini aniqlash, Linzaning fokusi, Refraktsiya, Dispersion prizma, Stefan-Boltsman doimiysi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida uskunalar qisman ishlaymay qolganligi sababli tushkunlikka tushadi va doimiy mablag' etishmasligi tufayli yangi bir narsani sotib olishning iloji yo'q.

Qo'llanma fizik hodisaning tavsifi va tajribani takrorlash uchun zarur bo'lgan asosiy koeffitsientlarning xulosasini o'z ichiga olgan nazariy materialni o'z ichiga oladi. Har bir ish oxirida tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati beriladi. Talabalarning mustaqil ishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun deyarli barcha ishlarga turli xil qo'shimcha vazifalar berilgan.

Fizikaviy praktikumlardan biri K.A.Barsukova tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu praktikum optika bo'yicha laboratoriya ishlarining barcha bo'limlarni qamrab oladi: elektromagnit to'lqinlarning difraktsiyasi, intenfereitsiyasi, qutblanishi, optik nurlanishning moddalar bilan ta'siri, elektro-akustikooptik effekt. Qoida tariqasida, barcha ishlar zamonaviy fizik qurilmalar (lazerlar, raqamli qurilmalar va boshqalar) yordamida ko'rib chiqiladi, ammo bir qator ishlarni oddiy asboblardan bajarishi mumkin. Ta'kidlash joizki, elektromagnit to'lqinlarning intenfereitsiyasi ikkita nuqtaviy kogerent manbadan tarqalayotgan elektromagnit to'lqinlardan hosil bo'ladi.

Fizik eksperimentning rivojlanish tendentsiyasini tahlil qilish o'quv tajribalaridan ilmiy tajribaga o'tish lozimligini ko'rsatadi. Bu eksperimental ilmiy texnologiyalarning yutuqlari to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayonida foydalangan holda amalga oshiriladi. So'nggi yillarda, ostsillograflar, videomagnitofonlar, yuqori va past chastotali gineratorlar, televizion qurilmalar, optik kvant generatorlari (lazer), shuningdek shaxsiy kompyuterlar keng qo'llanilmoqda.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish OTM ning ta'limi mazmunida bo'lajak mutaxassislarni eksperimental tayyorgarligini takomillashtirishga imkon berdi:

Фойдаланилган адабиётлар

1. Молотков Н.Я. Приближение учебного познания к научному в целях активизации познавательной деятельности студентов по физике. // Качество инженерного образования. Тамбов, ТГТУ, 2001. - С.25-26.
2. Светозаров В.В., Светозаров Ю.В., Концепция физического практикума для вариативной системы образования // Физическое образование в вузах, 1998, том 4, №4. - С. 43-45.
3. Лысов В.Ф. Спецпрактикум по физике и его роль в повышении эффективности подготовки учителя физики (на примере спецпрактикума по физике полупроводников и полупроводниковых приборов). Дисс. канд. пед. наук / Ленинград, 1986. - 150 с.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАЗЛИЧНЫХ КАНАЛОВ ВОСПРИЯТИЯ ИНФОРМАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Касимова Дилноза Мелсовна
психолог СОШ №2 г. Бухары

Аннотация. В статье рассматриваются причины неуспеваемости учащихся. Автором предлагаются варианты речевых воздействий для решения данного вопроса.

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning o'qishda orqada qolish sabablari yoritilgan. Ushbu muammoni hal qilishda muallif tomonidan so'z bilan ta'sir ko'rsatish yo'llari ko'rsatilgan.

Annotation. The article discusses the causes of student failure. The author offers options for speech influences to solve this issue.

Ключевые слова: речевое стратегии, индивидуальный подход в обучении, восприятие, аудиал, визуал, кинестетик, установки, тип темперамента, характер, положительные качества.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев уделил особое внимание образованию в нашей стране. «В сфере образования наступает новое время», - отметил наш Президент, - «В то же время самая непростая задача — это «подготовка обладающих инновационным, креативным мышлением учителей и наставников, обучающих своих учеников на основе самых высоких критериев».¹

Каждое слово, сказанное в адрес ребёнка, с детства оседает в подсознании и программирует на дальнейшие шаги в жизни. Например: «Ты всё не правильно делаешь!» Ребёнок думает и воспринимает это так: «Я не

¹ <https://mfa.uz/ru/press/news/2019/08/20608/>

могу правильно делать. Одно неправильное слово может убить личность в ребёнке.

Учитель и родитель являются для ребёнка примером подражания.

Слова, как магия, могут творить чудеса.

Нужно индивидуально подходить к обучению ребёнка. То есть, учитывать индивидуальные особенности восприятия ребёнка. Мы уже знаем, что каждый человек по-разному воспринимает информацию. Одно из пяти чувств – зрение, слух, осязание, вкус или обоняние – является ведущим в процессе восприятия мира. Человек пользуется тремя основными системами представления во время получения информации: а) визуальная – в виде образов (доминирует зрение); б) аудиальная – в виде звуков и слов (доминирует слух); в) кинестическая – (доминируют двигательные ощущения).

Такое деление соответствует описанным П. П. Блонским видам памяти: «Моторная память или память-привычка, образная память или память-воображение, логическая память или память-рассказ».¹

По доминантным каналам человек воспринимает, хранит и передаёт информацию. По некоторым данным, у 40% людей преобладает визуальный канал, у 40% - аудиальный и только у 20% - кинестетический.

Левое полушарие отвечает за речь, логику, анализ, а правое - за обработку образной информации, интуицию, воображение, чувства и эмоции.

Если преподаватель будет знать, какая из систем у человека ведущая, тогда он сможет подать информацию так, чтобы ученик легче смог усвоить материал. Учитель должен обратить внимание на следующие факторы:

Если ученик лучше справляется с письменными заданиями (пишет без ошибок), чем пересказ текста, значит он визуал. Визуалы любят порядок на столе, мало отвлекаются на шум, часто смотрят на собеседника и у них обычно красивый почерк. В данном случае преподавателю следует использовать наглядные пособия и иллюстрации при объяснении темы.

Если ученик с большей охотой слушает лекции и пересказывает без трудностей, значит он аудиал. При чтении он проговаривает слова, шевелит губами и сильно отвлекается на шум.

Кинестеты лучше усваивают материал, когда участвуют в ролевых играх. Таким нужно сначала потрогать, чтобы понять. При общении они стоят близко от собеседника, часто до него дотрагиваются. У них живая

¹ Нагорнов Ю.С., Нагорнова А.Ю., Погребная О.С., Прилепских О.С., Корнеева С.А., Кирюхина Д.В. «Применение НЛП в преподавании спецкурса «Основы нанотехнологий» // Современные проблемы науки и образования. – 2013. – № 3, с. 121.

мимика и жестикация, часто вертят в руках какой-то предмет и у них может быть неразборчивый почерк, на столе наблюдается беспорядок.

Если мы скажем, например, собака, визуалы вспомнят образ собаки, аудиалы звук (лай) собаки, а кинестеты – ощущение (шерсти) или запах.

Сейчас уже не секрет, что аффирмации и вера в себя это половина достижения успеха. Для создания условий развития личности педагогу нужно говорить учащемуся такие фразы, как: «У тебя всё получается.».

В основе успешности обучения лежат установки. Если у человека есть такие ограничивающие убеждения, как: «У меня ничего не получается», тогда это будет тормозить процесс обучения. Нужно негативные убеждения превратить в позитивные: «У меня всё получается. У меня есть способности к языкам.».

Необходимо учителям учитывать такие типы характера человека, как интроверты и экстраверты. Экстравертам нужно общение и их можно привлекать к выступлению на сцене в главных ролях. Также необходимо учитывать типы темперамента личности. Например, холерики бывают быстрые и шустрые. А флегматики и меланхолики выполняют задание медленно, но качественно. Поэтому когда учитель даёт задание, не всегда правильной будет фраза: «Проверю у первых троих, сдавших задание.» Учитывая особенности человека, данные природой, учителю важно понимать, что не ко всем эффективен одинаковый подход в обучении.

Список литературы

1. Нагорнов Ю.С., Нагорнова А.Ю., Погребная О.С., Прилепских О.С., Корнеева С.А., Кирюхина Д.В. «Применение НЛП в преподавании спецкурса «Основы нанотехнологий»» // Современные проблемы науки и образования. – 2013. – № 3.
2. Источник из интернета: <https://mfa.uz/ru/press/news/2019/08/20608/>
3. Источник из интернета: <https://www.psychologies.ru/articles/dizayn-cheloveka-jit-po-prirode-a-ne-po-lojnomu-ya/>

O`QUVCHI DIQQATINI JALB QILISH, BU BORADAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Shamsiyeva Nazokat Amonovna

Buxoro viloyat G'ijduvon tuman 14-maktab psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchining diqqatini o'qituvchi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarga jalb qilish, mavzuga doir ma'lumotlarning o'quvchi xotirasida tez va oson saqlanib qolishini ta'minlash usullari, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari tadqiq etiladi. Shuningdek, diqqat haqida ma'lumotlar beriladi. Chunki diqqat inson aqliy faoliyatining asosi hisoblanadi. Zero, dars jarayonida o'quvchi aqliy faoliyatining faolligi ta'lim samarasining asosi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: metod, diqqat, ixtiyoriy diqqat, rag'batlantirish, dars jarayoni, faollik, ong, tadqiqot.

Kirish. Ayni damda zamonning o'qituvchilar oldiga qo'ygan talablardan biri bu – dars jarayonini samarali tashkil etish hamda o'quvchilar bilim sifatini yaxshilash. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttirish, ta'lim oluvchilarning diqqatini mavzu bo'yicha berilayotgan ma'lumotlarga jalb qilish tom ma'noda o'qituvchining pedagogik va psixologik mahoratiga bog'liqdir. Bugungi kunning eng dolzarb mavzusi sifatida o'rin olayotgan masalalardan biri bu – o'quvchining diqqatini mavzuga qaratish, ya'ni yangi mavzu o'tilayotganda o'quvchining aqliy faolligini ta'minlash. O'quvchi dars jarayoniga diqqat qaratsagina, ta'lim natijalari sifatli bo'lishi mumkin.

Hozirgi globallashuv davrida yurtimizda ta'limga katta e'tibor berilmoqda. chunki har qanday rivojlanayotgan davlatning taraqqiyot strategiyasida, albatta, ta'lim katta o'rinni egallaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoni eng ko'p e'tibor hamda kuch talab qiladigan soha hisoblanadi. Ushbu jarayonning ishtirokchilari bo'lmish o'qituvchi va o'quvchilardan ham talab qilinadigan narsa bu faollikdir.

Tadqiqot obyekti va metodi. Dars jarayonini samarali tashkil qilish uchun o'quvchi diqqatini tadqiq qilish lozim. O'quvchilarning ixtiyoriy diqqati va uning bir joyga turg'unlashtirilishini tadqiq qiladigan bo'lsak, ushbu tadqiqotda bevosita o'quvchilar va o'qituvchilar tadqiqot obyekti vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur tadqiqotda kuzatish metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Xorazm viloyati Urganch shahri 1-sonli umumta'lim maktabi o'quvchi va o'qituvchilarida kuzatish va tadqiqotlar olib borildi. Maktab o'quvchilarining, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonlaridagi faoliyatlari kuzatib borildi. Mavzuga doir adabiyotlar va ilmiy ishlarni o'rgangan holda, o'quvchilarning diqqati darsda

qay darajada jalb qilinishi, ularda ixtiyoriy diqqatni turg'unlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. O'quvchi miyasining ranglarga nisbatan munosabatini aniqlash, rangli materiallar o'quvchi diqqatini qay darajada jalb qilishini o'rganish yuzasidan bir qator metodlar o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Kuzatishlar davomida o'quvchilarning dars davomidagi aqliy faolligini ta'minlash va diqqatini mavzu materiallariga qay tarzda jalb qilish tadqiq qilindi. Olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida o'quvchilar diqqatini o'qish materiallariga qaratishning quyidagi usullari aniqlandi:

1. Darsni o'quvchi qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish
2. Darsni qiziqarli o'yinlar bilan bog'lash.
3. Rang-baranglikka intilish.
4. Rag'batlantirish

1-usulga to'xtaladigan bo'lsak, o'quvchi o'zi uchun qiziq bo'lmagan ma'lumotlarga diqqat qaratmaydi. O'qituvchi mavzuni qanchalik yuksak mahorat bilan, ustalik bilan o'quvchilarga tushuntirmasin, agar o'quvchining o'zida qiziqish bo'lmasa, buning umuman foydasi yo'q. Bu ayni haqiqat. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilar qiziqishlaridan xabardor bo'lishi lozim. Masalan, sinfda o'g'il bolalarning deyarli hammasi mashina, raketa, samolyotga qiziqadi. Buni dars bilan bog'lash juda oson. Mashina, raketa yoki samolyotni qatnashtirgan holda matematik masala tuzilsa, o'quvchi o'z-o'zidan bunga diqqat qaratadi. Bu bilan o'quvchining diqqatini jalb qilgan holda mavzu materiallari o'rgatiladi.

Keying usul – darsni qiziqarli o'yinlar bilan bog'lash. “ Ixtiyoriy diqqat, ayniqsa, o'qitishda katta ahamiyatga ega, dars o'zlashtirish ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Chunki o'qish nafaqat jiddiy mehnat, balki ko'p mashaqqatli ishdur. Shuning uchun u irodaga suyanadi. Ammo o'qishni faqat ixtiyoriy diqqat asosidagina o'tkazish o'quvchilarni tez charchatib qo'yadi. Shu sababli o'qishga qiziqtirish, darsni qiziqarli qilib o'tish kerak”. Mohir pedagogga qo'yilgan talablardan biri bu - dars ma'lumotlarini qiziqarli o'yinlar bilan uyg'unlashtirish. Agar dars boshidan oxirigacha faqatgina mavzu bayoni bilan o'tadigan bo'lsa, bu hattoki katta yoshdagi maktab o'quvchilarini ham zeriktirishi, diqqatini chalg'itishi muqarrar. Shuning uchun o'qituvchi bisotida qiziqarli o'yinlar va metodlar ko'p bo'lishi zarur. Masalan, oddiygina bor bilan ham qiziqarli o'yin o'tkazish mumkin. O'quvchilardan oddiy tarzda o'tilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni so'rash ancha zerikarli. Buni qiziqarli tarzda o'tkazish mumkin. Yozuv taxtasiga katta qilib aylana chizamiz va buni qora oyna deb tasavvur qilamiz. Bu oynaning narigi tomonida barcha bilimlar jamlangan. Oynani sindirish va bilimlarni chiqarib olish zarur va buni bajarish uchun o'quvchilardan yordam so'raladi. Har bir o'quvchi bitta ma'lumot aytadi va oynaga “X” belgisini chizadi. Aylana “X”larga to'lgandan

keyin oyna parchalanadi va bilimlar chiqarib olinadi. Bu jarayonda nafaqat o`quvchining diqqati darsga jamlanadi, balki bilimlari mustahkamlanadi.

3-usul – rang-baranglikka intilish. Ushbu usulni 2 xil ma`noda tushunish mumkin: 1. Dars jarayonida rangli materiallardan foydalanish. 2. Darsda bir xillikdan uzoqlashib, turfa xil metodlardan foydalanish, darsni turli xil usullarda o`quvchilarga tushuntirish. Ranglar inson miyasiga juda katta ta`sir qiladi. Agar o`qituvchi mavzu ma`lumotlarini rangli qog`ozlarga yozib, o`quvchilarga tushuntirsa, ranglar o`quvchi diqqatini o`ziga jalb qiladi. O`quvchilar avval rangga e`tibor bergan holda, keyin qog`ozdagi ma`lumotlarga e`tiborini qaratadi, o`quvchilar o`rtasida o`tkazilgan tadqiqotlar natijalarida shunisi aniq bo`ldiki, ushbu rangli qog`ozlarga yozilgan ma`lumotlar oq qog`ozga yozilgan ma`lumotlardan ko`ra ko`proq o`quvchi diqqatini jalb qiladi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qoladi.

4-usul – rag`batlantirish. O`quvchi rag`batlantirilganda o`z bilimiga ishonch hissi paydo bo`ladi. Bu tuyg`uning o`rnini keyinchalik darsni o`rganishga bo`lgan ishtiyoq hamda shijoat egallab oladi. Qarabsizki, o`quvchi maqsadli ravishda darsga diqqat qila boshlaydi. Rag`batlantirish usuli orqali o`qituvchi dars mobaynida juda katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Muhokama. Demak, o`quvchining diqqati undagi barcha aqliy faoliyatlarni boshqaradi va uni darsga jalb qilish o`qituvchining vazifasidir. Ammo “Diqqatning kuchli konsentratsiyasini diqqatni ancha osonroq, ancha qiziqarliroq harakat turlariga o`tkazish yo`li bilan, kamroq zo`riqishni talab qiladigan yoki zo`r diqqat berilishini talab qiluvchi ishga o`quvchilarda o`ta qiziqish uyg`otish bilan almashtirib turish foydalidir”. Ba`zi o`quvchilarning darsdan orqada qolib ketishlari, dars mashg`ulotlarini yaxshi o`zlashtira olmasliklari ularning aqli yoki xotirasining sustligidan emas, balki diqqatining bo`shligidan kelib chiqadi. Shu sababli o`qituvchi darsda o`quvchilarning diqqatini bir joyda turg`un to`plashni o`ylashi zarur.

Xulosa. Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsak, diqqat ta`lim-tarbiya sohasida juda katta ahamiyatga ega. Chunki fikr yuritish, xotirada saqlash, idrok etish kabi jarayonlarning barchasi diqqat tufayli sodir bo`ladi. Darsda o`qish materialini muvaffaqiyatli o`zlashtirish, avvalo, diqqat bilan belgilanadi. Yuqorida keltirib o`tilgan diqqatni jalb qilish usullari ham darsda juda yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova . Umumiy psixologiya. – Toshkent: “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008.
2. K. D. Ushinskiy. Pedagogika kursi programmasining proyeksi. – Toshkent: “Uchpedgiz”, 1998.

ПОКАЗАТЕЛИ ЭНДОГЕННОЙ ИНТОКСИКАЦИИ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ТУБУЛОИНТЕРСТИЦИАЛЬНОМ НЕФРИТЕ У ДЕТЕЙ

Мухаммаджон Аблокулович Ахматов
студент 216-группы 2-лечебного факультета

Азиз Алимович Боймуродов
клинический ординатор 2-го обучения

Фазлиддин Сирожиддинович Каримов
клинический ординатор 2-го обучения Самаркандского
государственного медицинского университета.

Ахматова Ю.А.
Научный руководитель: PhD, ассистент

Актуальность. Хронический тубулоинтерстициальный нефрит (ХТИН) склонна к хронизации, рецидивированию и прогрессированию с формированием нефросклероза и развитием хронической почечной недостаточности, приводящих к инвалидизации организма и требующих экстраординарных вмешательств. По данным ряда авторов, в настоящее время установлено, что важным компонентом патогенеза хронического тубулоинтерстициального нефрита является абактериальная неструктивная, неспецифическая патология в ренальной интерстициальной ткани [Алботова Л.В., Агранович Н.В., Лихачева А.П., 2020]. В развитии ХТИН у детей имеют значение поражение не только канальцевого аппарата, но и всех сосудов ренальной интерстициальной ткани. Этот феномен вызывает антидеструктивный процесс мозгового слоя переходящий в интерстициальный фиброз с вовлечением в воспалительный процесс всего нефрона. Исследования последних десятилетий доказали важную роль в происхождении ТИПП молекул повреждения почек [Галкина О.В., 2016; Горшкова Е.Г., Кривич М.Б., 2017]. Они могут участвовать одновременно во многих процессах формирования эндотоксинов и кумуляции их во внутреннем гомеостазе организма

Цель исследования. Оценить состояние белкового метаболизма при хроническом тубулоинтерстициальном нефрите (ХТИН) у детей, принимая во внимание идентифицированную патогенетическую значимость параметров эндогенной интоксикации (ЭИ).

Материал и методы исследования. Обследованы 120 детей с ХТИН в возрасте от 4 до 15 лет в фазе активного воспалительного процесса,

находившихся в детском отделении нефрологии детского областного многопрофильного научного Центра г. Самарканда. С учетом клинического варианта ХТИН все больные были разделены на 2 группы: 1 группа – 52 (43%) детей с рецидивирующей формой ХТИН и 2 группа 68 (57%) больных с латентным ХТИН. Среди них мальчиков было 65 (54%), девочек 55 (46%). Состояние фильтрационной функции почек оценивали по клиренсу эндогенного креатинина и цистатина С. Для оценки концентрационной способности почек использовали пробу Зимницкого. У всех обследуемых больных определяли показатели обмена белка (белковые фракции, общий белок сыворотки, общая и эффективная концентрация альбумина, индекс токсичности в сыворотке крови, связывающая способность альбумина).

Результаты и обсуждение. Полученные данные показали, что концентрация молекул повреждения почек (МПП) в моче у больных с рецидивирующим рХТИН в фазе обострения была выше показателей контрольной группы в 16,3 раза, тогда как у детей с латентной лХТИН в 8 раз. Повышение уровня МПП в моче при ХТИН по видимому связано с тем, что при воспалительно-деструктивных процессах тубулоинтерстициальной системы нарушается реабсорбция МПП в проксимальных канальцах, так как они реабсорбируются там на 99,9%, в результате чего и наблюдается их экскреция с мочой. Накоплению МПП в моче способствует нарушение экскреторной функции почек, приводящее к тубулярной атрофии и органическим структурным расстройствам. Активная фаза ХТИН характеризовалась снижением эффективной концентрации альбумина (ЭКА) ($32,04 \pm 0,26$ г/л). Уменьшение ЭКА сочеталось снижением связывающей способности альбумина (ССА) до $64,8 \pm 0,65\%$. Высокий уровень индекса токсичности указывает на наличие интоксикации определяющийся во все периоды заболевания. Менее выраженные, но стойкие изменения белкового метаболизма характерны при латентном течении ХТИН. Подобные изменения альбумина могут привести к формированию хронизации ХТИН.

Выводы. Таким образом, проведенные исследования показали, что при развитии рХТИН и лХТИН важным механизмом повреждения интерстициальной ткани почек, развития клинической симптоматики и течения заболевания является, как нарушение обмена веществ, приводящее к структурным сдвигам на уровне различных элементов нефрона и к изменениям функционального состояния почек, так и нестабильность цитомембран клеток канальцев. Это обосновывает необходимость проведения комбинированной терапии у больных с ХТИН, которая будет способствовать ликвидации воспалительного процесса, экскреции

эндотоксинов из почечной ткани, стабилизации клеточных цитомембран и функций почек.

Анкета участников конференции

1. Ф.И.О. (полностью)	Ахматов Мухаммаджон Аблокулович, Боймуродов Азиз Алимович–, Каримов Фазлиддин Сирожиддинович.
2. Статус (студенты, резиденты магистратуры, клинические ординаторы, диссертанты)	Студент 216-группы 2-лечебного факультета, Клинические ординаторы 2-го обучения кафедры 2-Педиатрии Самаркандского государственного медицинского университета.
3. Полное название ВУЗа с указанием электронной почты	Самаркандский Государственный медицинский университет
4. Название работы	ПОКАЗАТЕЛИ ЭНДОГЕННОЙ ИНТОКСИКАЦИИ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ТУБУЛОИНТЕРСТИЦИАЛЬНОМ НЕФРИТЕ У ДЕТЕЙ
5. Указать участие о Онлайн о Офлайн	Онлайн
5. Форма участия в конференции (необходимо указать) <input type="checkbox"/> публикация тезиса + доклад <input type="checkbox"/> только публикация тезиса	Только публикация тезиса
6. Ф.И.О. научного руководителя (полностью) с указанием должности, ученой степени, звания;	Ахматова Юлдуз Аблакуловна, PhD, ассистент кафедры 2-педиатрии Самаркандского Государственного медицинского университета.
7. Почтовый адрес, телефон, E-mail автора, с которым будет вестись переписка	Г.Самарканд, ул. Озод Шарк, дом №1А /9; Телефон – (97) 003 71 76; olimovshoh62@gmail.com

**ABDURAUUF FITRATNING FALSAFIY-IJTIMOIIY VA
MA'RIFATPARVARLIK QARASHLARINING SHAKLLANISHI
OMILLARI***Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Tabiiy ijtimoiy
fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasida assistenti*

Annotatsiya. Maqolada jadidchilik harakatining buyuk nomayondasi Abdurauf Fitratning asarlarida yoshlarni ahloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashga qaratilgan g'oya va fikrlar majmuasi haqida tuxtalib o'tilgan. Ayniqsa jadidlar qatori xalqni ilmi qilib, hayotni, jamiyatni yangilashga intiladi. U ham ilmiy va badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlarini ma'rifat izlash va hammani ma'rifatga da'vat etilganligi yoritilgan.

Kalit so'zi: jadidchilik, harakati, ma'rifatparvar, g'oya, tarix.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganish lozimligini alohida ta'kidladilar¹.

Ma'lumki, o'zbek jadidchilik harakatining asosida ma'rifat, jaholatga qarshi kurash, ilm, ta'lim-tarbiya orqali inson ongini o'zgartirish, mustamlaka bo'lgan Turkistonni dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari safida ko'rish maqsadi yotadi.

Jadidchilik harakati tarixiga nazar solsak, ular ilgari surgan g'oyalar, taklif qilgan islohotlar va bu yo'ldagi qizg'in sa'y-harakatlar bilan bugun yurtimizda kechayotgan shiddatli o'zgarishlar jarayoni o'rtasida ko'p mushtarak jihatlar mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, siyosatshunos, olim, davlat va jamoat arbobi. Turkiston jadidchiligining namoyondasi bo'lib butun kuch- qudratini xalqqa bag'ishladi. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886 yili Buxoro shahrida tug'iladi. «Fitrat» Abduraufning adabiy taxallusi bo'lib, bu so'z tug'ma tabiat, tug'ma iste'dod degan ma'noni anglatadi.² Uning otasi o'zbek, onasi tojik bo'lgan. Fitratning otasi savdogarchilik bilan shug'ullangan, dindor, o'qimishli shaxs bo'lib, olam kechishni, tijoratni yaxshi ko'rgan.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1938) XX asr o'zbek adabiyotining namoyondasi, fan va madaniyatning yirik vakili sanaladi. Abdurauf Fitrat qomusiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2020 йил 24 январь

² Замондошларининг гувоҳлик беришича талабалик йиллари мижмар (чўғдон, хушбўй нарсалар солиб тугатиладиган идиш маъносиди) тахаллуси билан ҳам ғазаллар битган. Ҳохи Неъматуллоҳ Муҳтарам. Тазкирату-ш-шуаро- Душанбе, 1975.319-320 б.

bilimga ega olim, tilshunos, betakror dramaturg, shoir, noshir va jurnalist sifatida shuhrat qozongan.

1886 yilda Buxoroda tavallud topgan Abdurauf Fitrat o'zining tug'ma iste'dodi bilan jahonga tanilgan.

Boshlang'ich tarbiyani diniy maktabda olgan Abdurauf Fitrat keyinchalik mashhur Buxorodagi "Mirarab" madrasasida tahsil oaldi. Fors va o'zbek tillarining mukammal ijod qilish bilan birga arab tilini ham chuqur egallagan Abdurauf Fitrat jadidchilik harakati vakillari faoliyatiga qiziqib, uning ashaddiy targ'ibotchilaridan biriga aylangan.

Jadidchilik harakatining faol vakili sifatida 1909-1913 yillarda Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olgan Abdurauf Fitrat Turkiston xalqi hayotini ham o'zgartirishga harakat qilgan. Fitrat o'zining "Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi" nomli ilk kitobini Buxoro amiri uni Buxoroda nashr etishga ruxsat bermagach mazkur asarni 1909 yilda Istanbulda nashr ettiradi. Mazkur asar Istanbulda nashr ettilganligiga qaramay fors tilida yozilgan va atoqli fan namoyondalaridan sanalgan Hoji Muin tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. 1911-1913 yillarda mazkur asar "Turkiston viloyatining gazetisi"da nashr etilgan.

XX asr boshlaridayoq o'zining she'rlari bilan ijod ahliga tanilgan Abdurauf Fitrat haj safarini amalga oshirib, Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat ham qilgan. O'zining asosiy tahsili va ijodini Turkiyada davom ettirgan Abdurauf Fitrat "Munozara" nomli ilk asarini ham Istanbulda nashr ettirib, uni turli yo'llar bilan Buxoroga olib keltirgan

Yapon olimi Hisao Komatsuning e'tirof etishicha "Munozara" dastlab 1911 yilda Istanbulda fors tilida nashr etilgan so'ngra esa Toshkentda o'zbek va rus tillarida qayta nashr etilgan¹⁷.

"Munozara"da asosan yosh buxorliklar tashkil etgan birinchi fors tilidagi "usuli jadid" maktabining faoliyati va uning atrofida yuzag kelayotgan nizoli holatlar aks ettirilgan.

Abdurauf Fitrat "Munozara" asarining bayoni xususida o'zining bir maqolasida shunday iqtibos keltiradi. "Munozara"ni Hoji Muin (1883-1942) o'zbek tiliga tarjima qildi va asar dastlab 1912 yili Turkiston viloyatining gazetisi, 1913 yili kitobcha shaklida Toshkentda bosilib chiqdi" deb qayd etadi. Mazkur maqola "Munozara" nashr etilgandan so'ng yigirma yil o'tib yozilgan.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, Fitrat asarining mazkur tarjimasida muallifning asosiy islomchilik fikrlari, Rossiya va Buxoro hukumatlari va ulamolar tanqidlari deyarli chiqarib tashlanib, Hoji Muin asosan Chor Rossiyasi siyosatiga

¹⁷ Komatsu H. 20. Yüzyil Başlarında Orta Asya'da Türkcülük ve Devrim Hareketleri. Ankara, 1993. – 79 s.

mos keladigan fikirlarni kiritgan. Shu sabadan general N.Ostroumov o‘z gazetasida ushbu tarjimani bosishga ruxsat bergan.

Abdurauf Fitrat Maskovadan qaytib kelgach, Buxoro, Samarqand va Toshkent universitetlarida tahsil berib, O‘zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot instituti, Til va adabiyot instituti hamda O‘zbekiston Fanlar qo‘mitasida beminnat faoliyat yuritadi. Mazkur yillar orlig‘ida Fitrat ko‘plab she‘rlar, p‘esalar va birqancha teran ilmiy asarlar yozishib qoldirgan. Shunga qaramay Fitratning millatparvarligi bolsheviklar va Sho‘ro hukumati rahbarlariga yoqmas, uni boshqa ma‘rifatparvarlar qatori millatchilikda ayblay boshladilar. Bu to‘g‘risida Fitratning o‘zi “Men o‘zbek millatchisi bo‘lgan zamonlarda har vaqt Sho‘ro hukumatining kommunistik firqasiga xayrixoh bo‘lib turdim”, deb qayd etgan. Shunga qaramay 1937 yil aprelda hibsga olingan Abdurauf Fitrat 1938 yilning 4 oktyabrda boshqa ma‘rifatparvarlar qatori vahshiylarcha otib tashlangan.

Eng achinarlisi ushbu ma‘rifatparvarlarni otish haqidagi hukm bir kun keyin, ya‘ni 1938 yil 5 oktyabrda chiqqan bo‘lib, 1957 yilda Sobiq Ittifoq Oliy sudining harbiy kollegiyasi 1938 yil 5 oktyabrdagi hukmni bekor qilgan va Fitratni aybsiz deb e‘lon qilgan.

Fitrat ko‘pqirrali va sermahsul ijodkordir. Uning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg‘unlik, g‘aflatdan uyg‘otish, ilm-ma‘rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga va milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi. Fitrat o‘zbek xalqining o‘zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug‘vor kashfiyotlar qilishga, birlashgan, kuchli, qudratli davlat tuzishga va dunyoning ilg‘or madaniy mamlakatlariga yetib olishga chaqirgan. Buxoroning o‘sha davrdagi arboblardan bo‘lgan Fayzulla Xo‘jaev “Buxoro mustaqilligi g‘oyasi yorqin milliy shaklda birinchi bor ifodalab berilishida edi” deb Fitrat ijodiga ta‘rif bergan.

Fitratning she‘riy to‘plamida Vatanga muhabbat, xalqning g‘am-g‘ussasiga achinish va zulmdan qutulishga undash g‘oyalari ilgari surilgan. Masalan:

Bayt:

Ham mohi mangu osoyishi, izzatu sharafi man,

Ham Ka‘bai man, qiblai man, chamani man.

Tarjimasi

U mening osmondagi oyim, izzatu, sharafim

Ka‘bam, sajdagohim, jonu tanimdir.

Fitratning bir qancha asarlari bizgacha yetib kelmagan. Jumladan, “Uchqun” degan to‘plamining 1923 yilda nashrdan chiqqanligi to‘g‘risida xabarlar tarqalgan bosilgan, lekin mazkur to‘plam topilmagan. Fitrat fors, arab tillarini yaxshi bilsada, o‘z she‘rlarini asosan sodda o‘zbek tilida yozishga harakat qilgan. Bundan

tashqari Fitratning bir necha pesalari va yozgan asarlari o'z vaqtida nashryotda bosilmay yo'qolib ketgan.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi eng og'ir damlarda millat va Vatanga xizmat qilishga yo'naltirilgan edi. Har qanday holatda ham xalq bilan birga bo'lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo'yish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan biri edi. Abdurauf Fitrat ijodkor sifatida o'zbek adabiyotini birinchilardan bo'lib jahonga tarannum etdi. Uni yangi hayotbaxsh g'oyalar bilan boyitib, o'z iste'dodi bilan o'zbek tilining boy imkoniyatlarini, eta olgan mutafakkir edi. Abdurauf Fitrat o'zbek dramaturgiyasini yuksak pog'onaga olib chiqqan, zamonaviy adabiyotshunoslik ilmining asoschisi sifatida tarixga kirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2020 йил 24 январь
2. Замондошларининг гувоҳлик беришича талабалик йиллари мижмар (чўғдон, хушбўй нарсалар солиб тугатиладиган идиш маъносида) тахаллуси билан ҳам ғазаллар битган. Ҳохи Неъматуллоҳ Мухтарам. Тазкирату-ш-шуаро- Душанбе, 1975.319-320 б.
3. Ayni S. Ta'rixi inqilobi Buxoro. — Dushanbe: Adib, 1987.
4. Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. — Душанбе: Адиб, 1987. – Б. 102
5. Komatsu H. 20. Yüzyil Başlarında Orta Asya'da Türkcülük ve Devrim Hareketleri. Ankara, 1993. – 79 s.
6. Абдурашидов З. Фитрат ижоди ва фаолиятига бир назар: “Мунозара” ва Истанбул Бухоро жамияти хайрияси. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 2 (31)
7. Komatsu H. 20. Yüzyil Başlarında Orta Asya'da Türkcülük ve Devrim Hareketleri. Ankara, 1993.
8. Abdurashidov Z. Fitrat ijodi va faoliyatiga bir nazar: “Munozara” va Istanbul Buxoro jamiyati xayriyasi. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 2 (31)

**O‘ZGARAYOTGAN JAMIYATDA TALABA-YOSHLARINI
VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOIIY-
AHLOQIY JIHATLARI**

*Yusupov Yodgormirza Mirzasavlatovich,
Namangan muhandislik texnologiyalar instituti tayanch doktranti*

Ijtimoiy borliq ijtimoiy ongga katta ta’sir ko’rsatadi. Ayni chog‘da, ma’naviyat ijtimoiy va milliy ongni muayyan bir izga tushishiga imkon yaratadi. Chunki ma’naviyat tufayli odamzod bilimli, mehnatkash, axloq-odobli, imon va e’tiqodli, g‘oyaviy yetuk bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘rni kelganda shuni aytish joizki, imkoniyatni voqelikka aylantira olish uchun, barkamol inson bo‘lish uchun kurashish zarur. Ma’naviy yuksalish jarayonida mamlakatimiz xalqlari, xususan, yosh avlod uchun qulay imkoniyatlar vujudga keltirildi. Ana shu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda barkamol inson fazilatiga ega bo‘lish har bir insonning xohish-istagiga bog‘liq. Ma’naviy-axloqiy ongni yuksaltirish, uning tub mohiyatini tushunib yetish va tushuntirib borish ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibotchilari, pedagoglardan katta bilim va jasorat talab etadi.

Axloqning elementlari axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy munosabatlar axloqning elementlari sifatida bir-birlari bilan o‘zaro ta’sir kuchiga kirishadi. Masalan, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlar axloqiy ong predmeti sifatida ijtimoiy hayotning o‘ziga xos tomonlarini ifodalaydi. Axloqiy faoliyat esa insonning o‘z amaliyotining mazmuni va maqsadlarini axloqiy jihatdan anglashi tufayli yuzaga keladi. Axloqiy munosabatlar me’yorlarni qo‘llab-quvvatlash va ijro etishning ijtimoiy mexanizmi bo‘lib, doimo me’yorlarni shakllantirish, avaylab-asrash, rivojlantirish va keyingi avlodlarga qoldirish vazifasini amalga oshiradi.

Axloqiy ong faqatgina mavjud axloqiy hodisalarnigina emas, balki lozim bo‘lgan hodisalarni ham ifodalaydi. Xuddi shu sababli ular bir-biriga mos kelmaydi, ziddiyatli bo‘ladi. Ziddiyatlar, ayniqsa, ijtimoiy bir tuzumdan ikkinchisiga o‘tish davrida keskin tus olishi mumkin.

A.I.Titarenko ta’kidlaganidek: «Axloqiy ong tuzilmasi – bu nainki darajalar tizimi, balki butun bir yaxlitlikdir. Unda hamma narsa o‘zaro bog‘liq va undagi har bir element faqat boshqa elementlar bilan aloqaga kirishgandagina muayyan mazmun kasb etadi»[1]. Axloqiy ongni tadqiq qilishdagi aniq tarixiy yondashuvdan kelib chiqib, bu murakkab fenomen tahlilini odatiy darajadan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bizga ma’lumki, odatiy darajadagi axloqiy ong odatlar, an’analar, me’yor va baholar kabi tarkibiy tashkil qiluvchilar orqali ifodalanadi.

Odat – bu axloqiy ongning mustahkam elementi bo‘lib, muntazam takrorlanadigan xatti-harakatlar tizimi ko‘rinishidagi real voqelikni aks ettiradi[2]. U ishlab chiqarish sohasidan tashqaridagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan tartibga soladi, ijtimoiy fikr kuchiga tayanadi, rasm-rusum va marosimlar bilan uzviy bog‘liqlikda amal qiladi. An‘ana esa undan farqli ravishda axloqiy ongning tarixan shakllangan mustahkam va uzoq yashaydigan elementi bo‘lib, nafaqat ijtimoiy hayotni uning turli jabhalarida faol aks ettiradi, balki inson xulq-atvorini kishilar o‘rtasidagi insoniy axloqiy munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga yo‘naltiradi. Shuningdek, u kishi faoliyatining hissiy ta’sirchan tomonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Axloqiy ongning yana bir tarkibiy elementi axloqiy me‘yor hisoblanadi. Axloqiy me‘yor – kishilar xulq-atvorining majburiy va mumkin bo‘lgan ko‘rinishlarining o‘ziga xos chek-chegarasidir. Uning asosida individlar faoliyati, munosabatlari yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan tartibga solinadi[3]. Axloqiy ongning yana bir tarkibiy elementi bo‘lgan axloqiy baho deb inson xulq-atvorining axloqiy me‘yorlarga mos kelish-kelmasligi aniqlanadigan faoliyatga aytiladi.

Bizning nazarimizda, yuqorida bayon etilgan barcha tarkibiy elementlar o‘zaro uzviy bog‘liq, lekin mazkur darajaning asosini axloqiy me‘yorlar tashkil etadi. Chunki ular yordamida yoshlar manfaatlarini muvofiqlashtirish, muloqot jarayonini tashkil qilish, munosabatlarda eng kam, juda bo‘lmaganda, uningsiz muloqot sub’ektlarining o‘zaro ta’sirini umuman tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajadagi insoniylikni saqlash va takror yaratish mumkin bo‘ladi. Darhaqiqat, mavhumlashtirishning yanada yuqoriroq darajasi nazariy axloqiy ongga xos bo‘lib, uni G.G.Akmambetov «Zarur bo‘lgan narsa to‘g‘risidagi, ideal to‘g‘risidagi, umr mazmuni to‘g‘risidagi tizim»[4] sifatida ta’riflaydi. Ammo, ushbu izohni to‘liq deb bo‘lmaydi, chunki muallif mazkur ta’rifda nazariy axloqiy ongning tarkibiy tuzilishini belgilagani holda, uning asosiy tashkil qiluvchilari, ya’ni qadriyatlar va qadriyatlarga yo‘nalganlikni ko‘rsatmagan, aslida, ular axloqiy ongning undagi boshqa elementlarini bir butunga birlashtiruvchi, mazmun-mohiyatini ifoda etuvchi, axloqiy ong tuzilishining imperativ (qat’iy) yaxlitligini ta’minlovchi tamal toshi, poydevoridir.

Axloq bir nechta funksiyalarni amalga oshiradi: tartibga solish (boshqaruv), baholash, rag‘bat, tarbiyalash, bilish. Amalda esa ular bir-birini to‘ldiradi va bir-biriga o‘tib turadi, biri boshqasi orqali (ketma-ket) amalga oshadi[5].

Jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy kamolot o‘rtasidagi dialektik aloqadorliklarning o‘ziga xos uchta asosi va sababi mavjudligini falsafa fanlari doktori, akademik Erkin Yusupov izohlab, shunday degan edi:

birinchidan, ma'naviyat tug'ma, irsiy, irqiy yoki sof milliy sifat emas. Har bir shaxsning ma'naviy kamoloti ijtimoiy muhit bilan, uning yashash sharoitlari, mehnati va turmush tarzi, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyati zaminida shakllanadi va mustahkamlanadi. Irqidan, millatidan, yashayotgan aniq jo'g'rofiy sharoitidan qat'iy nazar inson farzandining barchasida (ruhiy sog'lom bo'lmaganlar bundan mustasno) ma'naviy kamolotning sub'ektiv imkoniyatlari bir xildir. Shaxs yashayotgan davr, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sharoitlar bilan taqozo qilinayotgan ob'ektiv imkoniyatlar turlicha bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar rivoji inson ma'naviyatiga ta'sir etadi. Yangi tarixiy sharoitlar, zaruriyatlar, ma'naviy ehtiyojlar ularning ro'yobga chiqishi uchun yangi imkoniyatlarni ham yuzaga keltiradi. Inson ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ta'sirida bo'lgan birinchi davrlardan boshlab jamiyat vujudga kela boshladi va rivojlandi. Shundan buyon jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv va sub'ektiv asoslari o'rtasida murakkab dialektik aloqadorlik shakllandi. Inson yashayotgan ob'ektiv sharoitlar bilan uning ma'naviyati o'rtasidagi o'zaro munosabat asosida jamiyat rivojlanishi amalga oshadi. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyoti uning ma'naviyati rivojlanishi bilan o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisiz amalga osha olmaydigan jarayonga aylanadi. Shu ikki omilning biri zaiflashsa, bo'hronga uchrasa, ikkinchisi ham keng rivojlanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Uchinchidan, inson takomillashib, fan va texnika yutuqlarini, jamiyat taraqqiyoti tajribalarini o'rganib, o'zlashtirib borgani sari ma'naviy omillarning jamiyat hayotiga bo'lgan ta'siri ortib boraveradi. Natijada, jamiyat taraqqiyotini inson ongli ravishda boshqaradi, degan falsafiy xulosa kelib chiqadi. Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotining barcha kattayu kichik muammolarining mohiyati va uning istiqbollari masalalari dastavval odamlarning ongida pishib yetiladi, so'ngra ular turmushga tatbiq etiladi. Bu g'oyalar muayyan tajriba, ehtiyoj va zaruriyatlar tizimini egallagan va anglagan, muayyan vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan insonlar tomonidan amalga oshiriladi[6].

Demak, ma'naviy-axloqiy ong jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi va sayqallashib boradi. Shuning uchun ham ma'naviy tarbiyaning ilk toshlarini to'g'ri qo'ya bilish lozim.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng jamiyat ijtimoiy hayotida tub o'zgarish va yangilanishlar yuzaga keldi. Bugungi kunga kelib Sobiq Ittifoq mafkurasi asosida shakllangan ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik qadriyatlarga munosabat o'zgardi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni qaytadan baholanishi, ayniqsa ma'naviy-axloqiy ongning mohiyati, uning ichki tizimini yangicha talqin qilish orqali zamonaviy komil inson ma'naviyatini

shakllantirish bilan bog'liq muammolar ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Титаренко А. И. Структуры нравственного сознания. – Москва: Мысль, 1974. – 278 с.
2. Вундт В. Этика: Принципы нравственности. Области нравственной жизни. Пер. с нем. Книжный дом ЛИБРОКОМ, 2011. – 264 с.
3. Пантелеев А. С., Звездин А. Л., Канке Виктор. Современная этика: учебник 2-е изд. Издательство: ОМЕГА-Л, ГРУППА КОМПАНИЙ, 2008. – 394 с.
4. Акмамбетов Г.Г. Проблема нравственного развития личности – Алма-Ата, 1971. – 82 с.
5. Вундт В. Этика: Факты нравственной жизни. Философские системы морали. Пер. с нем. Изд.стереотип.Кн.2. Из наследия мировой психологии М. Книжный дом `ЛИБРОКОМ` 2019. - 456с.
6. Юсупов Э. Маънавият ва жамият тараққиёти. – Хўжанд, 1996. – 9-10 б.

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 8-SINF O'QUVCHILARIGA KOMPYUTER GRAFIKASINI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARINI QO'LLASH BO'YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR

*Nazarova Shaxnoza Shokirovna,
Namangan muhandislik-qurilish instituti,
"Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari"
kafedrasida stajor o'qituvchisi
tel: +998902154990*

Annotasiya. Bu maqola 8-sinf o'quvchilariga kompyuter grafikasini o'qitishning innovatsion usullarini taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Maqolada kompyuter grafikasi darslarini o'qitishda murakkab tushunchalarni oson, qiziqarli va o'rganishga imkon beruvchi yangiliklardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning o'zlashtirilgan bilim va qobiliyatlarini joriy etish, fikrlash va ish yechish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan interaktiv, amaliy va texnologik usullar haqida tavsiyalar beriladi. Bu maqola o'qituvchilar va o'quvchilar uchun foydali bo'ladi, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirib, kompyuter grafikasini o'rganishning zaruriyati va qiziqishlarini oshiradi.

Kalit so'zlar: kompyuter grafikasi, 8-sinf o'quvchilari, innovatsion usullar, takliflar, tavsiyalar, murakkab tushunchalar, osonlik, qiziqish, motivatsiya, o'zlashtirilgan bilim, qobiliyatlar, fikrlash, ish yechish, interaktiv usullar, amaliy

usullar, texnologik usullar, o'qituvchilar, o'quvchilar, o'rtasidagi hamkorlik, zaruriyat, qiziqishlar.

"Umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilariga kompyuter grafikasini o'qitishning innovatsion usullarini qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar" nomli maqola uchun quyidagi takliflar va tavsiyalar qo'llanilishi mumkin:

Amaliy mashg'ulotlarga asoslangan darslar: Kompyuter grafikasini o'rganishning eng yaxshi usullaridan biri amaliy mashg'ulotlarga asoslangan darslarni o'tkazishdir. O'quvchilarni kompyuterda muvaffaqiyatli amallar bajarishga, ilovalar ishlashga va dizayn qilishga yo'naltirish uchun darslar amaliyotga asoslangan bo'lishi kerak.

Tushunchalarni amaliyot bilan bog'lash: O'quvchilarni kompyuter grafikasi tushunchalarini teoridan o'tkazib, amaliyot bilan bog'lashadi. Misol uchun, darsda bir tushuncha haqida gapirish va unda qanday effekt yaratish mumkinligini ko'rsatishdan keyin, o'quvchilar bu effektini o'zi amaliyotda ishlab ko'radi. Bu usul o'quvchilarning o'rganish jarayonini samaraliroq qiladi va ularga nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

Kreativlikni oshirish uchun vazifalar: O'quvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun, ularga o'zlarining fikrlarini va ideyalarini grafik dizaynida ifoda qilishga yo'naltirishga harakat qiling. Ularga tasvir, loyihalar, logotip, plakat va boshqa dizayn vazifalari berish orqali ularga o'zlarini o'zgartirish va shaxsiy fikrlarini yaratishga imkon yaratiladi.

Kollektiv ish: Kompyuter grafikasini o'rganishning innovatsion usullarini qo'llab-quvvatlash uchun o'quvchilarning kollektiv ishlash qobiliyatini rivojlantirishga harakat qiling. Ularga guruhdagi yoki jamoatchilikda ishlagan holda loyihalar yaratish imkonini berish, ularga bir-biriga yordam berish va birgalikda yaratishning qudratini ko'rsatish foydali bo'ladi.

Muvofiq vositalarni qo'llash: Kompyuter grafikasini o'rgatishda foydalaniladigan dasturlarni va vositalarni muvofiq ravishda qo'llashingiz muhimdir. O'quvchilarning Adobe Illustrator, Photoshop yoki Inkscape kabi dasturlar bilan tanishishlari va ularda amaliy mashg'ulotlar o'tkazishlari kerak. Bu, ularga mutaxassislik sifatida ham foydali bo'ladi va sohasida rivojlanishlari uchun ularga muhim asboblarni ta'minlash imkonini beradi.

Real hayotga integratsiya: Kompyuter grafikasini o'rganishni innovatsion usullarini qo'llash uchun o'quvchilarni haqiqiy dunyoga integratsiya qilish muhimdir. Ularga kasblar, bizneslar, matbuot va media mashg'ulotlarini amalga oshirish orqali kompyuter grafikasi bilan qandayliklarni yaratish va ularga talab qilingan sifatli dizayn tushunchalarini oshirish imkonini berish foydali bo'ladi.

O'zlashtirish va hissiyot: O'quvchilarni kompyuter grafikasi orqali o'zlarini ifodalash va hissiyotlarni aks ettirish bo'yicha yo'naltiring. Ularga tarjima, ranglar, yorqinlik va ko'rinish kabi tushunchalar orqali ta'sir qilishni o'rganishga imkon berish, ularning tajribalarini jiddiy hissiyotlarga aylantirishga yordam beradi.

Ko'p mediamuhitli darslar: Innovatsion usullarni qo'llash uchun, o'quvchilarga kompyuter grafikasi darslarini ko'p mediamuhitli sharoitlarda o'tkazish foydali bo'ladi. Virtual qo'llanmalar, online platformalar, interaktiv darsliklar, onlayn bog'lanishlar va aloqa sohalari orqali o'quvchilarning kompyuter grafikasini o'rganish jarayonida innovatsion xizmatlardan foydalanishlarini ta'minlash mumkin.

Joriy sohalarga misollar: O'quvchilarni kompyuter grafikasini o'rganishning innovatsion usullarini qo'llash uchun joriy sohalarni namunalar bilan bog'lab o'tkazing. Masalan, modadagi reklama kampaniyalar, brending, xabarlashish dizayni, web-dizayn va boshqalar. Ularga haqiqiy hayotda foydalanishlari mumkin bo'lgan misollar ko'rsating va ularni o'z fikrlari bilan yangi shakllantirishga qo'llang.

Bu tavsiya va takliflar o'quvchilarni kompyuter grafikasini o'rganishning innovatsion usullarini qo'llashda yordam berishi mumkin. Ularga amaliyotga asoslangan darslar, kreativlik, kollektiv ish, muvofiq vositalar, real hayotga integratsiya, o'zlashtirish va hissiyot, ko'p mediamuhitli darslar va joriy sohalarga misollar kabi tajriba va umumiy bilimlarni rivojlantirish imkonini berishingizga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ниязова, Н. А., and Ш. Ш. Назарова. "Техника олий таълим муассасаси битирувчисининг рақобатбардошлигини ривожлантириш." Research Focus 1.1 (2022): 86-91.
2. Турдалиев, В. М., С. Р. Комилов, and Ш. Ш. Назарова. "Ўқлараро масофаси ўзгарувчан занжирли узатманинг ўқлараро масофасини хисоблаш." механика ва технология илмий журнали 3 (2021): 29.
3. Nazarova, Sh, MB Madraximova, and IA Nazarov. "Kasb-hunar ta'limi maktablari o'qituvchilarida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari." Экономика: 181-184.

НЕГАТИВНЫЕ РАССТРОЙСТВА И КАЧЕСТВО ЖИЗНИ ПРИ ПАРАНОИДНОЙ ШИЗОФРЕНИИ

Тилавов М.Т.

*Кафедра психиатрии, наркологии и медицинской психологии
Бухарский государственный медицинский институт*

Цель исследования. Изучение динамики негативной симптоматики в процессе психофармакотерапии у больных с параноидной шизофренией.

Материал и методы. Для осуществления поставленной цели и задачи исследования обследовано 36 больных в возрасте от 30 до 50 лет, диагнозом шизофрения. На основе результатов исследования проводилось сравнительное исследование динамики негативной симптоматики, нарушений с учётом оценки качества жизни. Для улучшения критерия качества жизни больных особое внимание уделяется подбору доз как атипичного, так и классического нейрорептика.

Результаты исследования. К негативным явлениям шизофрении относятся отсутствие аффективной реактивности, утрата «глазного» контакта с окружающими, неадекватность аффекта, утрата интонационной окраски речи, бедность экспрессивной жестикуляции, уменьшение спонтанных движений, застывшее выражение лица, бедность речевой продукции, удлинение латентного периода ответов на вопросы, невнимание к одежде и гигиене, невыносимость работы, физическая анергия, потеря интересов и снижение активности, утрата чувства удовольствия, избегание развлечений и сексуальных контактов, аутизм, утрата связей с окружающими, потеря «социального» внимания и отсутствие интереса. Когнитивные функции были оценены в начале и к концу курса лечения. Динамика состояния когнитивных функций, оцениваемых по выполнению больными, показали улучшение в процессе терапии в обеих группах. Изменения суммарной среднегрупповой оценки по шкале MMSE оказались достоверными в контрольной группе к окончанию по сравнению с исходной оценкой, в основной группе достоверное улучшение отмечалось уже через месяц терапии и сохранялось до окончания лечения. У 90% больных отмечалось улучшение распределения внимания. Увеличилась продуктивность зрительной памяти, но снизились: объем рабочей памяти с 7,9 до 7,3 слов; устойчивость с 4,9 до 3,5 слов при отсроченном воспроизведении, продуктивность зрительной памяти – с 5,5 до 4,4 баллов. Соотношение типов динамики при этом показывает, что у половины испытуемых уровень выполнения методик остался прежним. Сравнительный анализ динамики когнитивного функционирования в группах

в зависимости от течения болезни показал, что в основной группе изменения результатов обследования в конце курса лечения занимают более благоприятное положение в отношении большинства показателей, и достигают до степени статистической значимости.

Выводы. Отечественные антипсихотические препараты малорезультативны в когнитивных областях и часто приводят к экстрапирамидным побочным эффектам, которые требовали антихолинергического лечения. При лечении атипичными антипсихотическими препаратами (рисперидон, кветиапин, оланзапин) с включением ноотропов показатели когнитивных функций достоверно улучшились, интенсивность экстрапирамидных побочных эффектов антипсихотиков снизилась. Нарушение когнитивных расстройств больных шизофренией зависит от клинических форм заболевания, преобладания негативной или позитивной симптоматики и оптимального соотношения психофармакотерапии.

ТАКТИКА ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОЙ ТЕРАПИИ КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ ПРИ ДЕМЕНЦИИ

Тилавов М.Т.

*Кафедра психиатрии, наркологии и медицинской психологии
Бухарский государственный медицинский институт*

Цель исследования. Изучить факторы риска, клинико-нейропсихологические и нейровизуализационные особенности клинических форм сосудистой деменции, разработать методы ее дифференцированной терапии.

Материал и методы. Для осуществления поставленной цели и задачи исследования обследовано 126 больных в возрасте от 62 до 68 лет, диагнозом была диагностирована сосудистая постинсультная сосудистая деменция. На основе результатов исследования проводилось сравнительное исследование динамики когнитивных нарушений, нарушений с учётом оценки качества жизни. Для улучшения критерия качества жизни больных особое внимание уделять эффективности терапии с транскраниальным магнитным стимулятором у пациентов различной степени тяжести деменции на раннем и отдаленном этапах терапии.

Результаты исследования. Нейропсихологическое исследование показало, что у пациентов с деменцией преобладали нейродинамические нарушения (снижение концентрации внимания, быстрая истощаемость в выполнении заданий), нарушения вербально-логического мышления при

выполнении счетных серийных операции. Мнестические нарушения, связанные со снижением активности и избирательности запоминания, нарушением воспроизведения и узнавания слов. Нарушения ориентировки во времени проявлялись как в оценках объективных значений - хронологии, так и в субъективных его параметрах - хроногнозии. Снижение речевой активности проявлялось обеднением структуры речевого высказывания, трудностями при подборе слов, снижением речевого внимания. Были выявлены нарушения исполнительных функций и зрительного внимания. Когнитивные функции были оценены в начале и к концу курса лечения. Динамика состояния когнитивных функций, оцениваемых по выполнению больными, показали улучшение в процессе терапии в обеих группах. Изменения суммарной среднегрупповой оценки по шкале MMSE оказались достоверными в контрольной группе к окончанию по сравнению с исходной оценкой, в основной группе достоверное улучшение отмечалось уже после терапии и сохранялось до окончания лечения. У 90% больных отмечалось улучшение распределения внимания. Увеличилась продуктивность зрительной памяти, но снизились: объем рабочей памяти с 6,6 до 6,2 слов; устойчивость с 5,4 до 4,5 слов при отсроченном воспроизведении. Соотношение типов динамики при этом показывает, что у половины испытуемых уровень выполнения методик остался прежним.

Выводы. Наиболее эффективной у пациентов с сосудистой деменцией представляют гетерогенные расстройства когнитивных функций, и обусловлены органическим поражением определенных структур головного мозга в зависимости от клинической формы и степени тяжести сосудистой деменции. При лечении комплексной терапии с транскраниальным магнитным стимулятором показатели когнитивных функций достоверно улучшились, своевременное проведение соответствующих терапевтических мероприятий пациентам с умеренными когнитивными нарушениями позволит препятствовать у них прогрессивности течения когнитивных нарушений и развитию деменции.

“XOTIN-QIZLAR SPORTI” TA’LIM YO‘NALISHIDAGI TALABA-QIZLARNI KELGUSIDAGI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raimov Xamid Soatovich

Termiz davlat universiteti “Sport boshqaruvi” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. “Xotin-qizlar sporti” ta’lim yo‘nalishidagi talaba-qizlarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda psixologik tomondan muammolarni hal qilish lozim.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar sporti, talabalar, sport, psixologik xususiyat, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, psixologik kamchiliklar.

Kirish. Jismoniy tarbiya amaliyotida “Xotin-qizlar sporti” ta’lim yo‘nalishidagi talaba-qizlarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlashning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud. Talaba-qizlarda jismoniy sifatlarni kompleks tarbiyalash maqsadida strukturali mashg‘ulotlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Bu bir vaqtning o‘zida asosiy jismoniy fazilatlarini (kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik) rivojlantirishni va ularning murakkab ko‘rinishini takomillashtirishni (tezlik kuchi, kuchga chidamlilik va boshqalar) nazarda tutadi, morfologik ko‘rsatkichlarning rivojlanishi esa funksional siljish bilan birga tanada kechadi.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarida ta’lim jarayoni, uning aniq sharoitlari, talabalarning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari, ularni to‘ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlari inobatga olinadi. Shuni inobatga olib, biz tadqiqotda talaba-qizlarni kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlashda qizlar uchun tabaqalashtirilgan didaktik topshiriqlardan foydalanish samarali ekanligini ilmiy faraz sifatida ilgari surdik.

O.Dovulov fikriga ko‘ra, jismoniy madaniyat jarayonida “differensial yondashuv o‘quv jarayonida talabalarning guruh xususiyatlarini hisobga oladi. Shu bilan birga, talabalarning ayrim guruhlariga xos bo‘lgan eng muhim omillarni hisobga olish, bir vaqtning o‘zida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari yoshi, tayyorgarlik darajasi va malakasi bo‘yicha nisbatan bir hil guruhni tashkil etuvchi tahsil oluvchilar uchun mo‘ljallanganligiga e’tiborni qaratishga chorlaydi” [53]. Demak, talaba-qizlarni kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta’lim jarayonning samarali bo‘lishi, ko‘p jihatdan ta’lim tamoyillariga asoslangan holda differensial o‘qitish jarayonlarini tashkil qilishga bog‘liq. Ushbu jarayonda ta’limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o‘zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Ta'limda individual yondashuvning barcha shakl va usullarida o'quv jarayonida qatnashuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi. Jismoniy madaniyat va sport nazariyasi va metodikasi bo'yicha taniqli mutaxassis L.P.Matveev individual ta'lim usullarini o'rganish va pedagogik sharoitlarni optimallashtirish maqsadida jalb qilinganlarga nisbatan individual yondashuv asosida ta'limni o'quv jarayonini qurish usuli sifatida ko'rib chiqadi.

Talaba-qizlarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun ko'p hollarda jismoniy madaniyat ta'limini differensiallashtirish psixologik-pedagogik prinsip bo'lib, unga muvofiq mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Bunda talaba-qizlarning amaliy ishlarida ular tayyorgarligini individualizatsiya qilish asosan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini, jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Talaba-qizlarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llaniladi va avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalarni tanlashga xizmat qiladi.

Talaba-qizlarni kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlashda mazkur faoliyat xizmat ko'rsatish bozorida o'quv jarayonga kreativ komponentlar bilan uzluksiz bog'liq holda qaralishi mumkin.

Differensial psixologiyaning asoschisi Uilyam Shtern, fanga "differensial ta'lim" konsepsiyasi bilan bir qatorda, "individuallik" atamasini ham kiritgan. Albatta, bu sohadagi izlanishlarni qadimgi davrlarda ham kuzatish mumkin. Masalan, Platon o'z asarlarida odamlarning moyilligi va qobiliyatiga qarab mehnat taqsimotining muhimligini ta'kidlagan. Ammo avvalgi tadqiqotlar tizimsiz va bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan. Fikrimizcha, talaba-qizlarni kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlashda quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: motivatsiya; qobiliyatlar; ta'lim olish ehtiyoji; ta'lim samaradorligi; ta'lim sifati; shaxsiy iroda.

Tadqiqotlarimiz avvalida biz izlanuv mavzusidan kelib chiqib, ishlanmalar, monografiyalar, dissertatsiyalarni tahlil qildik. Xususan, Ismoilova Xurshida Toxirovna falsafa doktori PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajargan dissertatsiyasida "Tabaqalashgan yondashuv- bu tarbiyaning asosi bo'lib, talabaning individual pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda olingan natijalar asosida tarbiya usulini tanlashdan iborat",-degan fikr ilgari surilgan. Olimaning fikriga qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlash joizki, tabaqalashgan, ya'ni differensial yondashuv talaba-qizlarni kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlashda nafaqat pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'rganish va tarbiya usulini tanlash, balki uning ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi va

motivatsiyasini oshirishga yo'naltirilgan, har bir talaba-qizning o'ziga xos individual, pedagogik-psixologik rivojlanishini inobatga olib, o'quv material va tarbiyaviy tadbirlarni tanlash, taqdim qilish yo'nalishidir.

Xulosa. Shunday qilib, Talaba-qizlarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'limning ilmiylik tamoyiliga tayanish o'ta muhimdir, chunki talabani o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil jismoniy madaniyat bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda va auditoriyadan tashqari o'qish vaqtida amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni talabalarni ob'ektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, jismoniy madaniyat sohasiga oid zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xurramov E.E. Jismoniy tarbiya darslarida muzyorar texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent: Navro'z, 2018. - 104 b.
2. Xurramov E.E. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil qilish mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. - 144 b.
3. Абдумаликов Р., Ашмарин Б.А. Биомеханические показатели будущих спортсменов. – Ташкент: Физкультура, 2016. – 231 с.
4. Аграновский М.А., Лукин Н.С., Качашкин В.М. Современная силовая тренировка. – М.: Физкультура и спорт, 2008. - 248 с.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 2019. - 192 с.
6. Бондарчук А.П. Объем тренировочных нагрузок и деятельность цикла развития спортивной формы. // Теория и практика физической культуры. - 2008. - №8. - С. 18.

**ВИРТУАЛ ЛАБОРАТОРИЯ ИШЛАРИДАН ЎҚУВ СИФАТИНИ
ОШИРИШ ЭЛЕМЕНТИ СИФАТИДА ФОЙДАЛАНИШ**

Мамадалиева Зарина Рахмат қизи
Самарқанд давлат тиббиёт университети

Аннотация. Ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланилган ҳолда махсус педагогик дастурий таъминотлар орқали ўқув жараёнига виртуал лаборатория ишларини жорий этиш, ташкиллаштириш ва бу жараёнда юзага келадиган муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўлларини ўрганишга бағишланган.

Калит сўзлар: Лаборатория, виртуал лаборатория, PhET, ўқув сифати, дастурлар, VirtuLab виртуал лабораториялари.

Лаборатория машғулотивнинг асосий вазифалари - назарий билимларни экспериментал текшириш; реал физик объектлар ва жиҳозлар билан ишлаш орқали амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш; олинган натижаларни экспериментал тадқиқ этиш ва қайта ишлаш кўникмаларини сингдириш. Ҳозирги кунгача олий таълимда дастгоҳли лаборатория ишларидан фойдаланган ҳолда лаборатория амалиётининг анъанавий шаклларида фойдаланиш устунлик қилиб келмоқда, чунки улар одатда осон ва тушунарли бўлади. Таббий таълимнинг асосий хусусияти шундан иборатки, лаборатория амалиётини реал тадқиқот ускуналаридан фойдаланган ҳолда ташкил этиш ва ўтказишдир. Касбий ва махсус тайёргарликнинг асосий (базавий) ўқув фанлари лаборатория машғулотивларини ташкил қилмасдан ва ўтказмасдан турли соҳа мутахассисларини тайёрлаб бўлмайди. Мазкур таълим турининг аҳамияти амалдаги давлат таълим стандартлари билан тасдиқланган

Маълумки, анъанавий таълим энг кенг тарқалган бўлиб, бир вақтнинг ўзида энг консерватив таълим ҳисобланади. Шунинг учун биз таълимда фақат дастгоҳли (стенд) лаборатория ишларидан фойдаланиш эскириб кетган фикрлигини тан олшимиз зарур бўлади. Дастгоҳли (стенд) лаборатория ишлари – молиявий жиҳатдан энг қиммат машғулот тури бўлиб, унинг харажатлари барча ўқув харажатларининг 80% гача бўлиши мумкинлиги исботланган. Бундан ташқари, электрон компонентларнинг технологиялари ва авлодларининг ўзгариши жуда тез содир бўлувчи жараён бўлиб унда лаборатория базасини янгилаб туриш одатда орқада қолади.

Телекоммуникация қурилмалари ва тизимларини реал физик моделлар бўйича тадқиқ қилиш қимматбаҳо лаборатория ускуналари ва ўлчов асбобларини талаб қилади. Амалиёт шуни кўрсатаптики, электр схемаларни

йиғиш ва ўлчов асбобларини улаш лаборатория ишларини ўтказиш учун ажратилган вақтнинг 30% ни олади. Шу билан бирга, ушбу лаборатория ишларини ўтказишда қўйидаги муайян қийинчиликлар пайдо бўлади: а) лаборатория иши учун қимматбаҳо ускуналар ва замонавий ўлчов асбобларининг катта тўплами талаб қилинади; б) тадқиқот натижаларига нотўғри уланишлар, улаш симларининг синиши, ўлчаш қурилмаларининг ишончсизлиги ва бошқалар таъсир кўрсатади в) қувват манбалари, ўлчаш қурилмаларининг ортикча юкланиш ва ишдан чиқиш хавфи мавжудлиги г) дастгоҳларда (стендларда) фавқулодда ҳолат режимларини амалга ошириш мумкин эмаслиги.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда виртуал лаборатория конструкторлари ҳақида маълумот берамиз.

Виртуал лабораторияларга мисоллар.

1. STAR виртуал лабораторияси. STAR (Software Tools for Academics and Researchers - академиклар ва тадқиқотчилар учун дастурий воситалар) Массачусетс технология институтининг тадқиқот ва ўқитиш учун виртуал лабораторияларни ишлаб чиқиш дастури. Дастурда умумий биология, биокимё, генетика, гидрология бўйича ўқув ва тадқиқот дастурларини ишлаб чиқишга қаратилган.

Ушбу виртуал лабораторияларни фақат тегишли соҳа мутахассислари баҳолашлари мумкин, лекин биз ишонч билан айтишимиз мумкинки, улар ўзининг фундаменталлиги билан фарқ қилиб, маълум бир соҳани кенг қўламли вазифаларни қамраб олган ва бой ишланма қурулларига эга.

2. VirtuLab виртуал лабораториялари. VirtuLab - физика, кимё, биология ва экология бўйича талабалар учун виртуал лаборатория ишларини ишлаб чиқиш лойиҳаси. Виртуал лаборатория ишлари Flash технологияси ёрдамида амалга оширилади. Улар тор ихтисослашувга мулжалланган, кўп ҳолларда тажрибанинг соддалиги билан фарқланади (тажриба ҳаракатлари ва натижаларининг кетма-кетлиги олдиндан белгиланади). VirtualLab маҳсулотлар таълим олиш соҳасида қўл келади ва зарур ускуналар йўқлигида лаборатория ишлари муаммосини ҳал этади. Лойиҳа сайти VirtuLab: <http://www.virtulab.net/>

3. Algodoo - физикавий 2D симуляцияси учун мўлжалланган дастур.

Дастур нафақат механик жараёнларни, балки оптик жараёнларни ҳам тақлид қила олади ва Thyme скрипт тилидан фойдаланиб оригинал физик хусусияти, бажаридаган функцияси, эффектлар ва ходисаларга эга объект яратади. Бундан ташқари, турли хил чизмаларни юклашингиз мумкин: сурат

симуляция объектига айланади ва унга хоҳлаган физик хусусиятларни юклаш мумкин. Дастур бепул. Расмий сайт <http://www.algodoo.com/>

4. PhET – лойиҳа Колорадо университети томонидан ишлаб чиқилган. Лойиҳа физика, биология, кимё, математика ва ер соҳасидаги фанлар турли ходисаларни намоиш этадиган кўплаб виртуал лабораторияларни ўз ичига олади. Тажрибалар юқори билим қийматига ега ва жуда қизиқарли.

5. Wolfram Demonstrations Project.

Wolfram Demonstrations Project лойиҳасининг мақсади замонавий фан ва техника концепцияларини намоиш қилишдир.

6. The ChemCollective лойиҳаси кимё фанини ўрганишга бағишланган.

The Virtual Lab: <http://www.chemcollective.org/vlab/vlab.php>.
Лабораториянинг ўзига хос хусусияти шундаки, унда вазифалар йўқ, фойдаланувчига ҳаракат эркинлиги берилади. Лойиҳанинг бошқа маҳсулотлари айрим мавзуларга бағишланган лаборатория лойиҳалари бўлиб, кимёнинг стехиометрия, термохимё, кислота ва асос назарияси, аналитик кимё каби бўлимларига алоқадор

7. Teachmen.ru виртуал лабораториялари лойиҳаси Россия Федерацияси Челябинск давлат университети мутахассислари томонидан ишлаб чиқилган ва физикага тўлиқ бағишланган. Бу лойиҳада лаборатория ишларидан ташқари, визуал интерактив элементлар билан бойитилган маърузаларни ҳам топишингиз мумкин.

8. Late Nite Labs - кимё, биология ва микробиология фанлари учун бир қатор пулик виртуал лабораториялар. Фойдаланиш нархи – ўқув семестри бошидан битта талабага 50 \$. Виртуал лабораториялар 3 D кўринишида яратилган. Манзил: <https://latenitelabs.com>

9. ChemLab Лаборатория ишларини моделлаштириш учун дастурий таъминот.

Дистанцион (масофавий) лабораториялар
<http://www.tstu.ru/science/seminar/ingobr/pdf/malygin.pdf>

The Labshare Institute (LBI) Лойиҳа манзили: <http://www.labshare.edu.au>

Labshare – Австралия давлатининг таълим, бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги таркибидаги 5 та техник университети ташаббуси билан ташкил топган консорциум. Лойиҳадан кўзланган мақсад - масофавий лабораторияларнинг миллий тармоғини яратишдир.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.R.Mamadaliyeva “Virtual laboratory Information In Education A Specific Factor Of The Cjmmunication System In Form”. Eurasian Scientific Herald 2022. ISSN:2795-7365 Page: 92-95. w.w.w.geniusjournals.or

2. Z.R.Mamadaliyeva “Improving The Quality of Learning Through Virtual Laboratory Work use as Element”. Eurasian Scientific Herald 2022. ISSN:2795-7365 Page: 84-86 w.w.w.geniusjournals.or
3. Z.R.Mamadaliyeva “Determination of aminotransferase in blood by virtual laboratory”. Thematics Journal of Chemistry 2022. Impact Factor 7.3 ISSN: 2250-382X -№ 5. -Б. Page: 20-22.
4. Z.R.Mamadaliyeva, M.Nazarova, Kediyo-rova Sh.X, K.M.Xoliqov Determination of alanine aminotransferase in blood by virtual laboratory method on a biochemical analyzer. Thematics Journal of Chemistry ISSN 2250-382X, Vol. 6(No. 1 (2022)), 20–22. [https://doi.org/10.5281/zenodo.6563063\(2022\)](https://doi.org/10.5281/zenodo.6563063(2022)).
5. Mamadaliyeva Z. R. Virtual Laboratory-Information In Education A Specific Factor Of The Communication System In The Form //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 5. – C. 92-95.
6. Mamadaliyeva Z.R. et al. DETERMINATION OF ALANINE AMINOTRANSFERASE IN BLOOD BY VIRTUAL LABORATORY METHOD ON A BIOCHEMICAL ANALYZER //Thematics Journal of Chemistry. – 2022. – T. 6. – №. 1.
7. Mamadaliyeva Z. R. Methodology for determining the level of bilirubin in the blood in a biochemical analyzer in a Virtual laboratory method //Confrencea. – 2023. – T. 10. – №. 10. – C. 20-22.

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING O'QUV
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH (XORIJIY TIL MISOLIDA)***N.D.Majidova**Toshkent shahridagi Adju universiteti**ingliz tili o'qituvchisi**+998930025370**nozima.majidova91@mail.ru*

Annotatsiya. o'quv-tarbiya muassasalarida xorijiy til turli maqsadlarda o'rgatiladi. Masalan, xorijiy til akademik litseyda umumta'lim predmeti sifatida o'rgatilsa, kasb-hunar kollejlari va texnikumlarda kasbiy va sohaviy matnlar va mashqlarga asosiy urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillarni o'rgatish-o'rganish, lingvodidaktik tizim, Toshkent shahridagi Adju universiteti, kredit-modul tizimi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon ... oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2ta xorijiy tilini mukammal bilishlari shart" [5]ligi ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

L.K.Iliyeva o'zining "Uzluksiz ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning lingvodidaktik tizimi tarkibi va mazmuni" nomli ilmiy maqolasida uzluksiz ta'limda lingvodidaktik tizim tarkibi quyidagi kategoriyalardan iboratligi keltirilgan: (1) ta'lim sharoiti (kim, qayer, qancha vaqt ajratilgan, qanday jihozlangan); (2) ta'lim maqsadi - o'quvchi-talabalarning nima maqsadda til o'rganishlari yoki ularga xorijiy til kelgusida qanday foyda keltirishi; (3) ta'lim mazmuni - nimani o'rgatish/o'rganish; (4) ta'lim metodi, prinsipi, texnologiyasi - qanday qilib yoki qaysi usul va yo'llar bilan tilni o'rgatish/o'rganish; (5) ta'lim vositalari - nima yordamida o'rgatish/o'rganish [3; 53-b.]. Ma'lumot uchun, oliy o'quv yurtida – bakalavriatda: mutaxassislik, ikkinchi xorijiy til va umumta'lim predmeti, magistraturada amaliy xorijiy tili sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, oliy ta'limda maxsus maqsadlar uchun ingliz tili o'rgatiladi.

Xorijiy til o'rgatish-o'rganishni takomillashtirish talabalar o'quv yuklamasi, ta'lim natijalari va kompetensiyalar, baholash shkalasini taqozo etadi.

A.A.Bo‘riboev fikriga ko‘ra, individual ta‘limda o‘quv jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa quyidagi natijalarni kafolatlaydi:

- talabaning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini saqlab qolish va ularni yanada rivojlantirish;

- o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtira olmaslikning oldini olish uchun har bir talaba tomonidan o‘quv dasturlaridagi mustaqil ta‘limni bajarishda individuallashtirish vositalaridan foydalanish;

- har bir talabada uning yaqin kelajakda rivojlantirishi uchun tayanch bo‘ladigan umumiy ta‘limiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

- talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish va ularda bilishga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirish;

- o‘quvchilarda mustaqillik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, fikrlash va ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish [1; 894-b.].

A.P.Minayar-Belorucheva va M.V.Pokrovskayalar o‘z ilmiy maqolalarida xorijiy til o‘quv predmetiga quyidagicha tavsif beradilar:

- predmetlararo aloqa. Xorijiy tildagi nutq mazmuni turli soha (tarix, san‘at, adabiyot, aniq fanlar) ma‘lumotlaridan iboratdir.

- ko‘p darajalilik. Zarur nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv)ni muvoziy egallashda til birliklari (leksika, grammatika, talaffuz) hajman turlicha bo‘ladi.

- ko‘p funktsionallilik. Xorijiy til muhim sohalar uchun ta‘lim maqsadi va shaxsning o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish vositasi bo‘lishi mumkin [4; 10-b.].

Kredit-modul tizimi O‘zbekiston ta‘limi uchun yangi tizimdir. Ammo biz faoliyat yuritayotgan Toshkent shahridagi Adju universiteti Koreyaning Adju universiteti qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan kredit asosidagi ta‘lim tizimini allaqachon o‘z ta‘lim dasturlariga kiritgan. Shunga qaramay, universitet Koreya kredit tizimini ta‘lim jarayoniga joriy qilishda O‘zbekistonning milliy qadriyatlariga xos bo‘lgan ta‘lim-tarbiyani ham hisobga oladi. Mazkur ta‘lim tizimining asosiy maqsadi – kredit va ta‘lim berishning modulli texnologiyalari majmuasiga asoslangan baholash modeli bo‘lgan ta‘limni tashkil etishdan iborat. Ushbu maqsadni to‘liq holda amalga oshirish ko‘p qirrali va murakkab tizimli jarayon hisoblanadi.

Universitetda o‘quv davri/semestri 2021-yil universitetning rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tgandan so‘ng, 2-fevraldan boshlandi. Quyida universitetning o‘quv davri haqida ma‘lumotlar keltirilgan:

A. Bir semestr 15 haftalik dars mashg‘ulotlaridan iborat.

B. Darslarni qayta tashkillashtirish (bayram va boshqa sabablar uchun qoldirilgan darslar): Koreya darajasini olish uchun 1 kredit 15 soat dars soatiga teng (2 soat laboratoriya mashg'ulotlari uchun).

C. Dars soati:

- 75 daqiqalik (3 kredit uchun, haftasiga 75 daqiqa dars va 2 marotaba tanaffus 15 daqiqadan)

- 50 daqiqalik (1 kredit mashg'ulot – 50 daqiqalik mashg'ulot hamda 10 daqiqalik tanaffusdan iborat) [2; 2-b.].

Toshkent shahridagi Adju universitetining boshqa davlat universitetlaridan farqi shundaki, darslar faqat o'quv rejasi va Sillabus (soddalashtirilgan fan o'quv dastur rejasi) bo'yicha tashkil etilgan. Semestrning ilk haftasi "Orientation week" (Fanga yo'naltirilgan hafta) deb nomlangan, ushbu haftada professor-o'qituvchilar talabalarni fan haqidagi barcha ma'lumotlar bilan tanishtiradilar. Talabalarga fan dasturi, rejasi (kurs krediti), baholash mezonlari (GPA, foiz ko'rsatkichlari), rejaga kiritilgan loyiha ishlari, oraliq va yakuniy nazoratlar va ularning o'tkaziladigan sanalari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shu bilan bir qatorda, ilk haftada talabalar ehtiyojlari hamda qiziqishlariga doir so'rovnoma ham o'tkaziladi. Adju universiteti darslari 80 soat (amaliy) va 20 soat (o'qitish qoidasi) yoki "student-centered approach" (markazda talaba yondashuvi)ga amal qiladi. Sababi talabalar kundalik hayotda ishlatiladigan maqsadli tilni amalda mashq qilishlari juda muhimdir.

Kredit-modul tizimining tamoyili ikkita asosiy masalaga qaratilgan: (1) talabalarni mustaqil o'z ustida ishlashga o'rgatish, yo'naltirish; (2) talabalar bilimni reyting asosida baholashdan iborat.

Xulosa o'rnida, xorijiy tilning boshqa o'quv predmetlaridan talabalar til tajribasi, ya'ni kompetensiya (lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy (sotsiokulturologik) va pragmatik)larining hisobga olinishi bilan keskin farqi qiladi. O'quvchi va talaba xorijiy til ta'limi jarayonida madaniyatlararo muloqotning subyekti bo'lib shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'riboev A.A. Kredit-modul tizimida individual ta'limning o'rni / "Science and Education" Scientific Journal, ISSN 2181-0842, April 2022, Volume 3 Issue 4. – B. 892 - 895. www.openscience.uz.
2. Handbook for students of Adju University. - Tashkent, 2021. - pp. 24.
3. Iliyeva L. Uzluksiz ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning lingvodidaktik tizimi tarkibi va mazmuni // J. Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2013. - 1-son. – B. 53 – 58.

4. Миньяр-Белоручева А.П., Покровская М.В. Лингводидактическая составляющая современного LSP - учебника по иностранному языку. Язык для специальных целей: система, функция, среда // Сборник материалов ИИИ Всероссийской научно-практической конф. 11-13 мая 2010 г. – Курск, 2010.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi nutqidan. <https://iiv.uz/oz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi>

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TILNING O‘RNI

Badelbayeva Yulduz Orifjonovna
Toshkent shahridagi Adju universiteti o‘qituvchisi
yulduz.badelbaeva@mail.ru

Annotatsiya. Ta’limga nisbatan madaniy yondashuv, talabalar yondashuvi jamiyatimizda alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqola integrativ yondashuv asosida talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijiy tilning o‘rni va ahamiyatiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: differensial ta’lim, kommunikativ ta’lim, madaniy kompetensiya, madaniy yondashuv, muloqot, loyiha, talabalar, test, o‘yin.

Zamonaviy ijtimoiy fanning va birinchi navbatda, boshqaruv sotsiologiyasining ajralmas qismi ijtimoiy-madaniy yondashuvdir. U odamlarning motivatsiyasi va xatti-harakatlarining eng muhim omillarini aniqlash va o‘rganish imkonini beradi, bu jamiyat va madaniyatning organik o‘zaro ta’siridir deb belgilagan.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv - talabalarning zamonaviy dunyoda amaliy vazifalarni mustaqil ravishda hal qilishning haqiqiy qobiliyatini aks ettiruvchi kompetensiyalar majmuasini ta’minlaydi.

Madaniyatlarning ushbu professional muloqotida xorijiy til alohida o‘rin tutadi. U boshqa mamlakat, madaniyat, xorijiy jamiyat mutaxassislari bilan aloqada bo‘lganida, mutaxassisning barcha professional kommunikativ niyatlarini amalga oshirish uchun vosita va adekvat vosita sifatida harakat qila boshlaydi.

Kasbiy muloqot sohasida talabalarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda xorijiy til o‘rgatish markazlarida chet tili bo‘yicha auditoriyadan

tashqari ishlarda shakllangan kompetentsiyani rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan metodikani joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Chet tillarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasi deganda biz kasbiy yo‘naltirilgan tayyorgarlik bilan chet tilida darsdan tashqari ishlarda madaniy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining qonuniyatlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini, texnikalar, usullar, vositalar to‘plamini tushunamiz, talabalarga pedagogik ta‘sir ko‘rsatish shartlari, ularning ketma-ketligi va uni optimallashtirish uchun ushbu jarayonga ta‘sir qilish usullarini ko‘rishimiz mumkin.

Integrativ yondashuv asosida talabalar madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘p jihatdan pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosiy maqsadi ushbu turdagi o‘quv muhitini ta‘minlashdir, ya‘ni:

- ijodkorlik, interaktivlik elementlari;
- bo‘lajak mutaxassislar shaxsini shakllantirishga qaratilgan faoliyat;
- o‘z ijodkorligining namoyon bo‘lishi;
- faollik va mustaqillik;

-sotsial-madaniy yondashuv doirasida madaniy kompetensiyasini rivojlantirish.

Talabalar madaniy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida chet tilini o‘rgatish quyidagi ta‘lim texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi [1]:

1. Kommunikativ ta‘lim - tinglovchilarning zamonaviy madaniyatlararo muloqot sharoitlariga moslashish uchun zarur bo‘lgan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish;

2. Ko‘p bosqichli (differensial) ta‘lim - talabalarning bilish faoliyatini hisobga olgan holda amalga oshirish, ularning individual qobiliyatlari, imkoniyatlari va qiziqishlari;

3. Ta‘limni individuallashtirish, talabalarning o‘zlashtirishini individuallashtirish qanday xususiyatlar va qay darajada hisobga olinishidan qat‘iy nazar, barcha shakl va usullarda sodir bo‘ladi;

4. Test - leksik, grammatik bilimlarni, lingvistik va madaniy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, chet tilini o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini shakllantirish darajasini nazorat qilish;

5. Loyiha - talabalarning kasbiy tayyorgarligi doirasida aniqlangan muammoni hal qilish uchun talabalarning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarini modellashtirish; Pedagogika fanlari doktori, talabalarga o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari sohasidagi taniqli tadqiqotchi E.S. Po‘lat loyiha metodini nafaqat

ma'lum bir natijaga erishishni, balki unga erishish jarayonini tashkil qilishni ham ta'minlaydigan talabalarning uyushgan tadqiqot faoliyati sifatida belgilaydi [2].

6. Hamkorlikda o'rganish – o'quv muammolarini hal qilish uchun ham individual, ham jamoaviy mas'uliyatni amalga oshirishda o'zaro ta'lim g'oyasini amalga oshirish;

7. O'yin - chet tili vositasida kasbiy faoliyatda muloqot muammolarini hal qilish uchun chet tilidagi nutq faoliyatida ko'nikmalarni rivojlantirish;

8. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - axborotga tanqidiy munosabatda bo'lishga, berilgan muammoni hal qilish uchun ma'lumotlarni tanlash qobiliyatiga ega bo'lgan ko'p qirrali shaxsni shakllantirish [1].

Har qanday o'qitish usuli maqsadni, harakatlar tizimini, o'qitish vositalarini va mo'ljallangan natijani nazarda tutadi. O'qitish metodining obyekti va subyekti talaba hisoblanadi. Har qanday o'qitish usuli sof shaklda qo'llanilishi juda kam uchraydi. Odatda o'qituvchi turli xil o'qitish usullarini birlashtiradi. Sof shakldagi usullar faqat maxsus rejalashtirilgan o'quv yoki tadqiqot maqsadlarida qo'llaniladi.

Madaniyatlar orasidagi tafovutlar, o'ziga "tashqi" nuqtai nazardan qarash, o'z xatti-harakatlari, qadriyatlari va e'tiqodlarini tahlil qilish va moslashtirish qobiliyatiga qaratilgan. Talabalar mustaqil ravishda vazifalarni belgilash, o'quv materialini tanlash va erishilgan narsalarni baholash uchun javobgar bo'lishlari mumkin [3].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, talabalarining madaniy kompetensiyasi kontekstida til ta'limini amalga oshirish texnologiyasini amalga oshirish jarayonida ta'lim va rivojlanishning integratsiyalashuvi tendensiyalari odatda talabani chet til madaniyati bilan tanishtirganda va shu bilan birga uning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi aniq ifodalandi va chet tilni o'qitishning maqsad-muddaolarini ishlab chiqishda til kompetensiyalarini shakllantirishda foydalaniladigan til vositalari, shakllari va usullari tizimi bilan chambarchas bog'liqlikni ta'minlovchi lingvodidaktikaning turli zamonaviy tushunchalari o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сергеева, Н.Н., Походзей Г.В. Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов неязыковых специальностей в системе профессионально-ориентированного языкового образования [Текст] : монография / Н.Н. Сергеева, Г.В. Походзей ; Урал. гос. пед. ун-т. — Екатеринбург, 2014. — 214 с.
2. Полат, Е.С. Метод проектов на уроках иностранного языка в школе / Е.С. Полат // "English" приложение к газете «Первое сентября».- № 24. – 2004. – С. 14-15.

3. Handford M. Developing socio-cultural competence in the ESL classroom. Nottingham Linguistic Circular / M. Handford.- 2002.– 207 p.

MUNDARIJA

Д.Х.Исмоилова Ўсмирлик даврида деструктив хулқ-творнинг намоён бўлиши	3
I. G'oziyev, D. Alimjonov The theory of relativity	5
Jabborova S.A. Kognitiv tilshunoslik masalalari	7
I. G'oziyev, D. Alimjonov Ontology and reality	11
Daminova G.B. Zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiyaning ahamiyati	13
N.O.Musaev OTMda sifatga qaratilgan kadrlar tayyorlash mexanizmlari (tezis).....	16
Жабборова Н.Ж., Ибадуллаева З.О. Мактаб ўқувчиларида диққат концентрацияси бузилишлари ва уларни коррекция қилиш	17
Жалолова С.Х. История возникновения лингвистики в древнем риме и в древней греции	21
Х.Қ.Жаббарова Постмодерн социумда гендер тенглик барқарорлигининг ижтимоий- фалсафий таҳлили.....	24
Iskandarova Y.O. Oliy ta'lim sohasidagi imtiyozlar va ularni tasniflashning nazariy asoslari .	28
Tokhirova U.A. Ilmiy-fantastika janrida aytek azimovning o'ziga xos uslubi	32
Mamatisakova N.N. Ona tili o'qitishning umumiy metodi.....	36
Куролов А.А., Авазов А.Н., Ражабов Э.Х. Пути повышения проветривания в подземных выработках шахты «Мурунтау» на перспективу.....	38
Jurayeva Z.Q. Obrazli fraziologizmlarning shakllanish omillari	43
Embergenova G.K. O'smirlik yosh davrining o'ziga xos psixologik xussiyatlari va bu davrda yuzaga keladigan muammolar	46
Xushvaqtova G. Ilova hodisasi kommunikativ sintaksisning tadqiqot obyektii sifatida	48
S.Sh.Do'saliyeva Kalanchoe o'simligining tabobatda qo'llanilishi	52
Mirzaolimova D.O., Karimova M.A. Sanoat ishlab chiqarish salohiyatining amaldagi holati va hududiy tahlili.....	54
Султонов М.Х. Давлат институтларини рақамлаштириш истиқболлари: ғоядан реализацияга.....	57
Shavkatova Z. Legal status of users of underground resources	63
Назаров С.Р., Шин Илларион Георгиевич, Искадарова Н.К Интенсивность износа режущих инструментов с покрытием из нитрида титана.....	68
Tursunova D.A. Ona tili predmeti va uning mazmunini moddiylashtirish darajalari.....	71
Pulotova Z. Psychosocial rehabilitation of patients with schizophrenia in the context of their adaptation in society	73
Maksumova S., Sayliyeva M. O'zbek yozuvchilari asarlarida badiiy tasvir vositalarining o'rni	74
Ibodova F.M., Sayliyeva M.M. Famous person of Uzbekistan. great Amir Temur	76
Qodirov S.P. Fizikadan laboratoriya ishlarini tashkil etish va bajarilishining tahlili.....	80
Касимова Д.М. Эффективное использование различных каналов восприятия информации в образовательном процессе	83
Shamsiyeva N.A. O'quvchi diqqatini jalb qilish, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari	86
Ахматов М.А., А.А. Боймуродов, Ф.С. Каримов, Ахматова Ю.А. Показатели эндогенной интоксикации при хроническом тубулоинтерстициальном нефрите у детей ..	89

Isomiddinov Y..Y. Abdurauf Fitratning falsafiy-ijtimoiy va ma'rifatparvarlik qarashlarining shakllanishi omillari	92
Yusupov Y.M. O'zgarayotgan jamiyatda talaba-yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-ahloqiy jihatlari.....	96
Nazarova Sh.Sh. Umumta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilariga kompyuter grafikasini o'qitishning innovatsion usullarini qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar	99
Тилавов М.Т. Негативные расстройства и качество жизни при параноидной шизофрении	102
Тилавов М.Т. Тактика дифференцированной терапии когнитивных нарушений при деменции	103
Raimov X.S. "Xotin-qizlar sporti" ta'lim yo'nalishidagi talaba-qizlarni kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik xususiyatlari	105
Мамадалиева З.Р. Виртуал лаборатория ишларидан ўқув сифатини ошириш элементи сифатида фойдаланиш	108
Majidova N.D. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish (xorijiy til misolida).....	112
Badelbayeva Y.O. Integrativ yondashuv asosida talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijiy tilning o'rni	115